

N. ISLOMOVA, D. ANDULLAYEVA

IJTIMOY PSIXOLOGIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

N. Ismoilova
D. Abdullayeva

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5110900 – Pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
Toshkent ~ 2015

UO'K: 316.6(075)

KBK: 88.5

11877

Ismoilova, Nurjahon

**I-58 Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma / N. Ismoilova, D. Abdul-
layeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
– Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015.
– 168 b.**

UO'K: 316.6(075)

KBK: 88.5ya73

Ushbu o'quv qo'llanmada shaxs va jamiyat munosabatlariga oid muammolarning boshqa adabiyotlarda yoritilmagan jihatlari kengroq yoritilgan. Har bir bo'lajak psixologiya va pedagogika yo'nalishidagi mutaxassis-talabalar uchun bu kabi muammolarga doir bilimlarni chuqur egallash o'z mutaxassisligini chuqur egallashga xizmat qilibgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida ham o'ziga xos zaruriyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada zamonaviy psixologiyada hozirgi kun uchun dolzarb bo'lgan mavzular imkon doirasida qamrab olingan. Bu mavzularni yoritishda xorij hamda rus psixologiyasi namoyandalarining o'tkazgan tadqiqotlari va qarashlaridan foydalanilgan.

Qo'llanmadan oliy o'quv yurtlari pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, shuningdek, oliy o'quv yurtida shu soha bo'yicha faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va umuman shu sohaga qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

N. Kamilova – psixol. f.n., dotsent,

S. To'ychiyeva – psixol. f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-391-68-0

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015

«Yer-u ko'kdagi buyuk o'zgarishlarni sezish, his qilish va ulardan saboq chiqarish, o'rnatish uchun odamzod o'zining yon-atrofiga uyg'oq nigoh, qalb ko'zi bilan qarashi lozim.

I. Karimov

KIRISH

Prezidentimiz aytgan bu fikrni shaxs va uning psixologiyasi bilan qanday bog'lash mumkin. Bu fikrning mag'zini chaqadigan bo'lsak, uning butun mazmun-mohiyati go'yoki ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Axir har bir individ tug'ilganidan boshlab to umrining oxiriga qadar haqiqatan ham «yer-u ko'kdagi o'zgarishlarni sezib, his qilib, ulardan saboq chiqarib» yashaydi-ku! Aytish mumkinki, aynan mana shunday jarayonlarni boshidan kechirgan individgina shaxs bo'lib shakllanadi va jamiyat hayotiga qo'shila oladi. Buning uchun undan hamisha «o'zining yon-atrofiga uyg'oq nigoh, qalb ko'zi bilan qarash» talab etiladi. Shundagina u yetuk inson bo'lib ulg'ayishi va jamiyat uchun kerakli shaxs bo'la olishi mumkin.

«Biz, faqat o'zimiz uchungina yashay olmaymiz, — deb yozadi, mashhur romannavis yozuvchi German Melvill, — bizning hayotimiz boshqalarning hayoti bilan bir-biriga minglab rishtalar bilan chambarchas bog'langandir». Ijtimoiy psixologiya aynan mana shu rishtalarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan hisoblanib, nima uchun jamiyatdagi kishilar bir-birlariga ta'sir o'tkazishlari, bir-birlari haqida o'ylashlariga oid ma'lumotlarning ilmiy asoslarini o'rganadi.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasi va predmeti shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlari ekanligini ko'pgina ijtimoiy psixologlar ta'kidlab o'tganligi ma'lum. Shunday ekan, ushbu o'quv qo'llanmada biz shaxs va jamiyat munosabatlariga oid muammolarning boshqa adabiyotlarda yoritilmagan jihatlarini kengroq yoritishni maqsad qildik.

Chunki bo'lajak psixolog, psixologiya fani o'qituvchisi sifatidagi mutaxassis-talabalar uchun bu kabi muammolarga doir bilimlarni chuqur egallash o'z mutaxassisligini chuqur egallashgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida ham o'ziga xos zaruriyat kasb etadi. Ayniqsa shaxs va shaxslararo munosabatlar doirasida yuz beradigan aloqalar chuqur yoritilgan bo'lib, bu bo'lajak mutaxassislarning bilimlarini yanada oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada zamonaviy psixologiyada hozirgi kun uchun dolzarb bo'lgan mavzular imkon doirasida qamrab olingan. Bu mavzularni yoritishda xorij hamda rus psixologiyasi namoyandalarining o'tkazgan tadqiqotlari va qarashlaridan foydalandik.

Biz, mualliflar guruhi nomidan psixologiya sohasini chuqur o'rganish ishtiyoqida bo'lgan barcha talabalarga omad tilagan holda ularning o'quv qo'llanmaning kamchiliklariga doir qarashlari va uni boyitish yuzasidan takliflarini ham kutib qolamiz.

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi

Shaxs u yoki bu xildagi hayot tarzini tanlash imkoniga ega bo'lgan ongli va faol insondir. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning shaxsiy va psixologik sifatlarini o'rganishga katta e'tibor beriladi, chunki bunday ma'lumotlarni bilish va shaxslararo munosabatlarda hisobga olish juda muhimdir. Inson shaxsi jamiyatning a'zosi sifatida turli xil o'zaro munosabatlar doirasida faoliyat yuritadi. Shaxsning shakllanish jarayoniga shaxslararo munosabatlardan tashqari jamiyatdagi mavjud siyosiy doiralar va mafkuraviy qarashlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mafkuraviy qarashlar jamiyatdagi ma'lum bir g'oyalar tizimi sifatida shaxsga ta'sir ko'rsatib, uning psixologiyasi, dunyoqarashi, shaxsiy va ijtimoiy ustanovkalarining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Shaxs psixologiyasining shakllanishiga u mansub bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy guruhlarning munosabatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday o'zaro ta'sir va muloqot jarayonida shaxslarning bir-biriga ta'siri sodir bo'lishi bilan birgalikda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga, o'zining shaxsiy sifatlariga nisbatan o'z qarashlariga, ijtimoiy ustanovkalariga ta'sir o'tkazishi sodir bo'ladi. Ma'lum bir ijtimoiy muhitda yashar ekan, shaxs u yerda o'ziga xos o'ringa, obro'ga, rolga ega bo'ladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlarning obyektigina emas, balki uning subyekti va faol ishtirokchisi hamdir. Shaxs bu konkret inson, ma'lum bir davlatning, jamiyatning, guruhning (bu guruh ijtimoiy, etnik, diniy, siyosiy, yoshga oid va h.k. bo'lishi mumkin) vakili, o'z atrofida gilar bilan ongli munosabat o'rnata oladigan, ongli ravishda faoliyat yurita oladigan, barcha munosabatlarda o'ziga xos insoniy qiyofani namoyon qila oladigan, shuningdek, o'ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishidir.

Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasi sohasida shaxsni o'rganish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar masalasi, ayniqsa bu boradagi amaliy vazifalar ijtimoiy psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida shaxsni o'rganishga nisbatan ikki xil ijtimoiy psixologiya – «psixologik ijtimoiy psixologiya» va «sotsiologik ijtimoiy psixologiya» mavjud. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasada, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruhiy kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish, xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruhlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urg'u beriladi.

Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tushuntirish va ko'rsatish maqsadida bu sohada ish olib borayotgan barcha olimlar o'z qarashlarini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan. Shulardan biri D. Mayers ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tahlil qilish uchun barchaga ma'lum bo'lgan bir ertakdan foydalanadi.

Bu ertak yoqimtoy Zolushka haqidagi ertak bo'lib, unda quyidagicha mazmun aks ettiriladi: taqdir taqozosi bilan Zolushka shahzoda uyushtirgan katta bal (qadimda boy xonadonlar tomonidan maxsus uyushtiriladigan raqs kechasi)ga tushib qoladi va shahzodaning e'tiboriga sazovor bo'ladi. Zolushkani qattiq sevib qolgan shahzoda uni izlab kelib, o'gay onaning xonadonida ko'rganida avvaliga tanimaydi. Nega?

Bu ertak shaxs va uning atrofidagi muhit munosabatlarini tushunib olish uchun juda sodda misoldir. Zolushka shahzoda

huzuridagi balda go'zal, xushchaqchaq, jozibali ko'ringan bo'lsa, o'gay ona huzurida butunlay boshqacha ko'rinadi va o'zini boshqacha tutadi. Balda u o'ziga nisbatan ijobiy munosabatlar doirasida o'zini go'zal va ajoyib qiz ekanligiga ishonib aloqaga kirishgan bo'lsa, o'gay onasining uyida unga nisbatan salbiy munosabatlar ta'sirida o'ziga nisbatan past baho berishi natijasida o'zini tortinchoq, kamgap tutadi.

Fransuz filosofi Jan-Pol Sartrning ta'kidlashicha, Zolushka bilan sodir bo'lgan voqeda hech qanday hayratlanarli narsa yo'q, uning fikricha, biz odamlar «hamisha vaziyatlarga bog'liqmiz. Bizni vaziyatlardan ajratib bo'lmaydi, vaziyatlar shaxs sifatida bizni va bizning imkoniyatlarimizni shakllantiradi».

Ijtimoiy psixologiya shaxsga turli xil vaziyatlarning ta'sirini o'rganib, kishilar bir-birlariga qanday ta'sir ko'rsatishini va ular bir-birlarini qanday idrok etishlarini o'rganadigan fan sifatida qiziqarlidir. Shuningdek, uning tadqiqot doirasiga barchani birdek qiziqtiradigan quyidagi savollar ham kiradi:

– Kishilar bir-birlari haqida nimalarni o'ylaydilar? Bizning o'zimiz haqimizdagi tasavvurlarimiz qanchalik to'g'ri? Do'stlarimiz haqidagisi-chi? Notanishlar haqidagi fikrlarimiz-chi? Bizning fikrlarimiz va harakatlarimiz orasidagi aloqa qanchalik ahamiyatga ega?

– Odamlar bir-birlariga qanday va qay darajada ta'sir o'tkazadilar? Ijtimoiy muhit ta'siriga qanday qarshilik ko'rsatish mumkin?

– Nima uchun odamlar ba'zida bir-birlarini xafa qiladilar, ba'zi paytlarda yordam beradilar?

Bu savollarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ijtimoiy psixologiya ana shu savollarga javob topish bilan shug'ullanadi. Qisqasini aytganda, **ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligi shundaki, bu fan odamlar bir-birlari haqida nima o'ylashidan tortib, ular bir-birlariga qanday ta'sir ko'rsatishigacha bo'lgan psixologiyasini o'rganadigan fandır.**

Shaxsning «Men» obrazi

Shaxs ijtimoiy psixologiyada, garchi uning shakllanishiga jinsi, temperamenti, irsiy belgilari kabi biologik tavsiflar ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatsa-da, ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi.

Ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan mutaxassislarning aksariyati o'z tadqiqotlarining asosiy yadrosi sifatida G.Olport, S.Meddi, Uilyam Jeyms kabi psixologlarning nazariyalariga tayanadi.

Ulardan biri U.Jeymsning shaxs nazariyasida shaxs «Men»i haqidagi fikrlarini to'liq ifodalay olgan, desak bo'ladi. U.Jeyms shaxs «Men»iga xos ikki aspektni ajratib ko'rsatdi: empirik «Men» va haqiqiy «Men». Empirik «Men» inson nimaniki «o'zimniki» deb atay olgan barcha narsalar yig'indisidir. Uning ichiga:

- Material «Men» — o'z ichiga shaxsning tana tuzilishi va shaxsan uning o'zigagina tegishli bo'lgan barcha narsalarini oluvchi «Men» bo'lsa;

- Ijtimoiy «Men» — shaxsdagi uning atrofida tan olgan «Men», har bir shaxsni o'zi haqida uning atrofida gilarining fikri qiziqtiradi, albatta. Demak, shaxsning atrofida qancha alohida ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lsa, uning uchun shuncha ijtimoiy «Men»i mavjud bo'ladi;

- Psixik «Men» — individning ijtimoiy muhitda uning kimligini namoyon qilishiga yordam beruvchi qobiliyat va iqtidorlarining yig'indisi hisoblanadi;

- Haqiqiy yoki axloqiy «Men» — shaxsning o'zini anglashi, o'z-o'ziga baho berishi doirasidan iboratdir. Zamonaviy psixologiyada bunday «Men»ni shaxsning markaziy bo'g'ini sifatida qaraladi va «Men» konsepsiya (bu ilmiy atama fanga amerikalik psixolog K.Rodjers tomonidan kiritilgan) tushunchasi orqali ifodalanadi.

U.Jeymsning tasvirlashicha, shaxsning ijtimoiy «Men»i ijtimoiy psixologik nazariyalar orasida uzoq vaqtdan beri va ko'p

o'rganilgan mavzudir. Sotsiolog olimlardan biri Charlz Kuli «Shaxs oynasi» tushunchasini ishlatgan bo'lib, bu orqali shaxs atrofidagi odamlarning unga nisbatan berayotgan bahosi va fikriga aynan oynaga qaraganday qaraydi, degan fikrni asoslagan. Uning fikricha, har qanday shaxs o'ziga nisbatan atrofdagilarning berayotgan bahosi va fikrini qabul qilar ekan, o'zini oynaga solgandek bo'ladi. Bu fikrni keyinchalik Jorj Gerbert Mid va Garri Stek Sallivanlar ham rivojlantirgan. J.G. Midning fikricha, shaxsning o'zini anglashi uning ijtimoiy munosabatlarining hosilasi bo'lib, bu jarayonda u o'ziga tashqi tomondan, go'yoki obyektga qaragandek qarashni o'rganadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bunda atrofdagi butun bir ijtimoiy guruh yoki jamoa a'zolarining fikri jamoaviy ustanovka sifatida rol o'ynaydi. Aynan shu holat tufayli biz o'zimizni boshqalar qanday ko'rsa o'shanday ko'rishga, o'zimizga boshqalar ko'zi bilan qarashga o'rganamiz. Lekin o'sha jamoadan aynan kimningdir fikri nima uchundir bizga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan savol barchani qiziqtiradi. Bu savolga javob aynan jamoa a'zolarining barchasi ham biz haqimizda bir xil fikr yuritmasligi va bizga bir xil baho beravermasliklari bilan bog'liqdir.


Bundan tashqari atrofdagilarning fikrini inobatga olishimizda qanday omillar rol o'ynaydi, degan savol ham muhimdir. Dastlabki omil sifatida fikrlarni qabul qiluvchining yoshi muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolalar uchun ota-onasi, o'qituvchisining fikri muhimdir. Katta yoshdagilar uchun esa oila a'zolaridan biri, do'sti, hamkasbi kabilar ta'sir ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi mumkin. Bu borada jins xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Amerikalik Jon Hoelter, amerikalik o'smir o'quvchilar bilan tadqiqot o'tkazib, shuni aniqlaganki, o'smir qizlar o'zining o'g'il bola tengdoshlarining fikrlarini ko'proq inobatga olar ekan, o'smir o'g'il bolalar esa o'z ota-onalarining fikrlarini ko'proq inobatga olishi aniqlangan (Hoelter J., 1984).

Shaxs «Men»i va o'zini anglashida boshqalarning ta'siri katta, lekin buning o'ziga xos muammoli jihati ham mavjud-

dir. Karl Yungning ta'kidlashicha, shaxs psixikasi tuzilishida himoya qismi mavjud va u Persona deb ataladi. Ana shu Persona shaxsning haqiqiy «Men»i va Yolg'on «Men»i o'rtasida muammolarni keltirib chiqaradi. K. Yungning fikricha, Persona, o'ziga xos niqobga ega bo'lib, shaxs jamoatchilik bilan munosabatlarda o'zining haqiqiy «Men»ini yashirish maqsadida shu niqobni taqib oladi. Buning natijasida shaxs o'zining asl basharasini har doim ham va barcha ijtimoiy guruhlar oldida ham namoyon etavermaydi, natijada uning aslida qandayligini atrofidaqilar bila olmaydi. K. Yungning taxmin qilishicha, Persona bu jamiyat va shaxs o'rtasidagi hamkorlikdir. Uning maqsadi shaxsning haqiqiy «Men»ini yashirgan holda boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otishdan iboratdir. Ko'pincha shaxs o'zining asl holati bilan Personani chalkashtirib yuboradi. Bunday holda «Men» ham Persona bilan aralashib ketadi, shaxs esa ijtimoiy muhit oldida rol o'ynovchi yolg'onchi mavjudodga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs o'zini o'z niqobidagi holati bilan chalkashtirib yuboradi. K.G. Yung bunday holat individning o'z-o'zini anglashiga xavf solishini ko'rsatib beradi. Dastlab K. Yung, undan keyin esa uning izdoshi Ester Xarding shaxsning atrofidaqilar uning niqobdagi holatiga qarab bergan bahosini qabul qilishi natijasida o'z «Men»ining haqiqiy mohiyatini to'liq anglay olmasligi bilan bog'liq vaziyatlarni ham keltirib o'tishgan. Bunday holatda shaxsning «Men» konsepsiyasi va Personasi bir-biriga mos tushadi. Bunday bo'lishi shaxs uchun har doim ham istalgan holat bo'lavermaydi. Shu bois bunga yo'l qo'ymaslik uchun shaxs faqat atrofidaqilarning fikri va bahosiga suyanibgina qolmasdan, o'zi ham o'zini tahlil qilish, o'z kamchiliklarini tan olish orqali o'zini anglashga va o'zining haqiqiy «Men»ini, «Men» konsepsiyasini rivojlantirishga harakat qilishi lozim.


Shaxs «Men»ining tuzilishiga doir turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p tarqalgani, o'z ichiga «Men»ning uch tarkibini qamrab oladi: kognitiv (o'zi haqida

bilimlar), emotsional (o'z-o'ziga baho) va xulqiy (o'ziga munosabat). Shaxsning o'z-o'zini anglashining tuzilishi haqida boshqa bir yondashuv V.V. Stolinga tegishli bo'lib, u o'z-o'zini anglashni tadqiq etishda eng asosiysi shaxsning oddiy tavsiflari majmuasida emas, balki ma'lum yaxlitlikda o'zini tushunishi, o'z identivligini aniqlashida aks etadi, degan fikrni ilgari suradi.



Ijtimoiy psixologiyada ko'proq aynan shu yaxlitlikdagi ma'lum strukturaviy elementlar haqida gapirish mumkin. O'z-o'zini anglashning boshqa xususiyati shundan iboratki, uning ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanishi bu nazorat etiladigan, faoliyat va muloqot diapazonining kengayishi sharoitida ijtimoiy tajribani muntazam egallash orqali aniqlashtirilib boriladigan jarayondir. O'z-o'zini anglash shaxsdagi chuqur, intim tavsiflariga mansub. Uning rivojlanishi faoliyatdan tashqarida amalga oshmaydi: faqat faoliyat jarayonidagina shaxs o'zi haqidagi tasavvurlar bilan atrofdagilarning u haqidagi tasavvurlarini taqqoslab boradi, kerak bo'lsa, «korreksiyalaydi».

Shaxsning o'z-o'zini anglash sohasi bu «Men» obrazining yil sayin o'zgarib borish jarayoni bo'lib, bu jarayon davomida shaxs dastlab o'zining boshqalardan farqliligini anglash bilan birga, o'zini ko'rsatishga harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini ham anglashga harakat qiladi. Undan so'ng shaxsda o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlana-diki, bular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismi si-fatida qaraladi.



«Men» siymosi ijtimoiy munosabatlarning ham shart-sharoiti, ham oqibatidir. Mutaxassislar shaxsda amalda birgina uning «Men» siymosini emas, balki, navbatma-navbat goh o'zini anglashi, goh muayyan vaziyatda o'zining ahamiyatini yo'qotadigan ijtimoiy o'zaro birgalikdagi harakatni qo'yadigan va bir-birining

o'rnini egallab turadigan ko'plab «Men» siymolar bo'lishini qayd etishadi.

O'spirinlik davriga xos bo'lgan talabchanlik asosida u «men o'zimni yomon ko'raman» deb gapirganda yoki o'ylaganda, bunday baho berishni o'spirinning «Men» siymosiga beradigan barqaror tasnifi sifatida tushunmaslik kerak. Ozgina vaqtdan keyin uning o'zi haqidagi tasavvurlari butunlay qarama-qarshi tomonga o'zgarib qolishi ham ko'p kuzatiladigan holatdir.

L.S. Vigotskiyning ta'rifiga ko'ra, o'z-o'zini anglash bu insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining dinamik tizimi bo'lib, o'zining jismoniy, intellektual va boshqa turli sifatlarini anglash bilan yuzaga keladi. Ushbu sifatlariga o'z-o'ziga beradigan bahosiga tashqi omillar, munosabatlar ham ta'sir etishi mumkin.

O'z-o'zini anglash ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlash bu muammoning aynan ijtimoiy psixologik mohiyatga ega ekanligini anglashga yordam beradi. «Men» obrazi ma'lum vaziyatlarga qarab farqlanishi mumkin (masalan, individning o'zini his qilishi, kayfiyati ham bunga ta'sir ko'rsatadi), inson o'zining muayyan fazilatlarini sezishi o'z-o'zini anglash natijasida yuzaga keladi.


R. Bernsning «Men» konsepsiyasi

R. Berns «Men» konsepsiyasining differensiyalashgan tizimini taklif qiladi. Unga ko'ra «Men» konsepsiyasining asosini o'ziga yo'nalganlik ustanovkalari tizimi tashkil etadi. «Men» konsepsiyasi strukturasi asosiy komponentini quyidagi ustanovkalar tashkil qiladi: kognitiv; emotsional; xulq-atvor.

R. Berns «Men» konsepsiyasining ierarxik (ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo'ysundirish usuli) tizimi ko'rinishida «Men» konsepsiyasi cho'qqisiga erishib, o'z-o'zini anglashdagi imkoniyatlar chegarasini ochib berdi. R. Berns «Men» konsepsiyasi elementlarini quyidagicha tasniflagan:

- a) «Men» – anglovchi;
- b) «Men» – obyekt.

U «Men» konsepsiyasini insonning o'ziga nisbatan ustanovka-
larining yig'indisi deb tushuntiradi. U buni ikki komponentga
bo'ladi, bu komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, quyidagicha izoh-
lanadi: o'ziga baho berish yoki o'zini qabul qilish «Men» – ang-
lovchi «Men» obrazi bilan bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida
«Men» – obyekt bilan bog'liq bo'ladi.



R. Berns o'ziga yo'nalganlik ustanovkasini 3 ga bo'ladi:

— real (haqiqiy) «Men» ustanovkasi bu individning o'z aktual qobiliyatlarining rolini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi;

— oynadagi «Men» ustanovkasi;

— kelajakdagi «Men» ustanovkasi.

R. Bernsning ierarxik tizimidagi eng quyi pog'onada «Men» konsepsiyasining keyingi aspektlari joylashgan. Bular: ijtimoiy «Men»; ma'naviy «Men»; jismoniy «Men».

R. Berns nazariyasida jismoniy «Men» aspekti boshqa elementlarga nisbatan zaifroq ochib berilgan.

«Men» va uning ijtimoiy psixologik mohiyati

Biz quyida «Men» konsepsiya doirasiga kiradigan tushunchalarga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Ideal yoki bo'lishi mumkin bo'lgan «Men». Shaxsning «Men» konsepsiyasi uning ayni paytdagi xarakterlovchi «Men» tizimlarini emas, balki shaxs bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lishni istagan «Men»larni o'z ichiga ham oladi. Amerikalik psixolog tadqiqotchi J. Markus va uning hammualliflarining fikricha, bo'lishi mumkin bo'lgan «Men» o'z tarkibiga shaxs bo'lishni istagan tasavvurlar — badavlat, yoqimtoy, sevimli «Men»larni oladi (Markus et al., 1989; Markus & Nurius, 1986). Bo'lishi mumkin bo'lgan «Men»ning ichiga shaxs bo'lishdan qo'rqadigan «Men»lar ham kiradi — ishsiz «Men», «ikkinchi» Men, yoqimsiz «Men». Bo'lishi mumkin bo'lgan «Men» shaxsni har doim ma'lum maqsadlarga erishishga undaydi: bu maqsadlarga erishilgandan so'ng, shaxs o'zi intilgan hayotni ko'rishga muvassar bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy «Men»ning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. «Men» konsepsiyasi ijtimoiy psixologiyadagi tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylandi, chunki u jamiyatdagi ijtimoiy fikrlarni tashkil etadi va shaxsning xulq-atvorini boshqaradi. «Men» konsepsiyasining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Olimlar tomonidan egizaklarni tadqiq etish natijalari shunday xulo-

sani berganki, shaxsning xarakteri va «Men» konsepsiyasiga irsiy omillarning ta'siri mavjud, lekin bu borada asosiy rolni ijtimoiy tajriba o'ynaydi. Bunda quyidagi omillar asosiy rol o'ynaydi:

- biz bajaradigan rollar;
- biz shakllantiradigan ijtimoiy identifikatsiyalar;
- atrofdagilar bilan o'zimizni taqqoslashimiz;
- yutuqlarimiz va omadsizliklarimiz;
- atrofdagilarning biz haqimizdagi fikrlari;
- biz mansub bo'lgan madaniyat.

Shaxs ijro etadigan rollar. Har qanday shaxs ijtimoiy muhitning unga yuklagan yangi roli – institut talabasi, ota-ona, rahbar va shu kabi rollarni ijro etishga o'tganida o'zini dastlab «yaxshi» his qiladi. Lekin asta-sekinlik bilan shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari ushbu rollarni o'ziga singdiradi va bu rollarni eplash-eplamasligiga qarab shaxsning «Men» konsepsiyasida o'zgarishlar yuzaga keladi.

Ijtimoiy identivlik. Shaxsdagi «Men» konsepsiyasi – bu uning o'zi haqidagi tasavvurlari bo'lib, u o'z ichiga nafaqat personal identivlikni (shaxsiy sifatlari haqidagi tasavvurlari), balki ijtimoiy identivlikni ham oladi. Ijtimoiy «Men» tushunchasi irqiy, diniy, jinsiy, kasbiy va h.k. mansublikni ham bildiradi. Ya'ni ma'lum davraga mansub «biz» tushunchasi va unga kirmaydigan «ular» tushunchasi mavjud. Shaxs qandaydir bir katta guruhning tarkibiga kiruvchi kichik guruhning vakili bo'lsa, o'z ijtimoiy identivligini aniqroq anglaydi. Shaxsning o'zini mansub deb bilgan guruhi ko'pchilikdan tashkil topganida, u bu haqida o'ylamaydi ham. Erkaklar guruhidagi yagona ayol ham, ruslar orasidagi yagona o'zbek ham o'z unikalligini anglaydi. Yotoqxonadagi bittagina boshqa o'quv yurtining talabasi, psixologiya fakulteti talabalari orasida o'zining kasbiy identivligini chuqurroq sezadi va shunga yarasha reaksiya bildiradi (Kalin & Berry, 1995).

Ijtimoiy qiyoslar. Qanday qilib shaxs o'zini badavlat, aqlli yoki past bo'yli deb hisoblashga qaror qiladi? Bunda unga ijti-

moiy taqqoslash usuli yordam beradi (Festinger, 1954). Atrofdagi odamlar shaxsga ma'lum standartlar ishlab chiqishga turtki berishadi, bu standartlar yordamida u o'zini boy yoki kambag'al, aqlli va aqlsiz, baland yoki past bo'yli deb aniqlaydi. Atrofdagilar bilan o'zini qiyoslab, ulardan nimasi bilan farq qilishini aniqlaydi.

Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini yuqori ko'rsatkichlar bilan tugallab, o'zining intellektual qobiliyatlariga ishongan ko'pgina bitiruvchilar obro'li oliy o'quv yurtlariga kirib, u yerda o'ziga o'xshagan a'lochi talabalarni ko'rganidan keyin o'zini endi oldingidek hurmat qilmayotganligini his etishganligini tadqiqotchilar aniqlashgan (Marsh et al., 2000). Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, shaxs o'zini atrofidagilarga nisbatan qiyoslash orqali o'zining kimligini anglay boradi.

Muvaffaqiyat va omadsizliklar. Shaxsga «Men» konsepsiyasini qurish uchun material sifatida nafaqat uning ijtimoiy rollari va o'zini atrofdagilar bilan taqqoslashining natijalari xizmat qiladi, balki bu jarayonda oddiy turmush tarzining ham ahamiyati katta. Shaxs o'z oldiga qiyin, lekin amalga oshirsa bo'ladigan maqsadlarni qo'yib va uni uddasidan chiqishi orqali o'zining qobiliyatli ekanligini his etishi ham unga o'zini anglashida yordam beradi. Bo'lishi mumkin bo'lgan zo'ravonlikdan o'zini himoyalash malakasini egallagan ayol o'zini kamroq zaif his etadi va vaziyatni ko'proq boshqara oladi (Ozer & Bandura, 1990). Ilmiy ishlardagi muvaffaqiyatlar talabani ilmiy faoliyatdagi yaroqligiga nisbatan o'ziga bahoni oshiradi, bu o'z navbatida uni undan ham ko'proq ishlashga undab yanada taassurotli muvaffaqiyatlarga erishishga stimullashtiradi (Felson, 1984; Marsh & Young, 1997). Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida maksimum imkoniyatlarni qidirish va ulardan foydalanish — o'ziga nisbatan ishonchni yanada oshiradi.

Atrofdagilarning fikrlari. Atrofdagilar tomonidan shaxs erishgan muvaffaqiyatlarning tan olinishi uning «Men» konsepsiyasiga ijobiy ta'sir etadi, chunki atrofdagilar uni ijobiy baholayotganligini ko'radi.

Shaxs uchun o'zi haqida yaxshi tomonlarini o'ylash osonroq, agar atrofdagilar ham xuddi shunday o'ylasa. Qobiliyatliroq, mehnat-sevarroq yoki yordamga kelishga tayyor deb hisoblangan bolalar, bu sifatlarni o'z «Men» konsepsiyalari va xulq-atvori tarkibiga «olishadi». Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mahalliy jihatdan ozchilik vakillari bo'lgan talabalar, ularning intellektual qobiliyatlari haqidagi stereotipli tasavvurlardan kelib chiqadigan xavfni sezishsa, ayollar esa ulardan aniq va tabiiy fanlar doirasida katta yutuqlarni kutishmayotganligini bilishsa, natijada ular o'zlarini shu kutishlarga mos ravishda tutishadi. Ular bu fikrlarni inkor etishdan ko'ra, o'z imkoniyatlarini boshqa sohada amalga oshirishga kirishadilar (Steele, 1997).

O'z-o'zini hurmat etish. O'z-o'zini hurmat etish shaxsdagi mavjud va bo'lishi mumkin bo'lgan «Men»larning umumiy yig'indisimi? Agar shaxs o'zini jozibador, jismonan baquvvat, aqlli va badavlat va yana muhabbatga loyiq deb bilsa, bu uning o'zini hurmat qilishi «joyida» ekanligini bildiradimi? Mutaxassislar o'ziga yaxshi munosabatda bo'lish uchun o'zini chiroyliroq, jismonan baquvvatroq, aqlli roq va h.k.liklarini his etish kerakligini ta'kidlaganda aynan shuni nazarda tutishadi. Djennifer Kroker va Konn Volfning fikricha, yuqorida ko'rsatilgan sifatlardan ham o'zini hurmat qilish, o'zi bilan g'ururlanish uchun muhim ahamiyatga ega (Crocker & Wolfe). «Bir odam o'zini hurmat etish uchun faoliyatidagi muvaffaqiyat va tashqi ko'rinish kerak bo'lsa, ikkinchisi uchun Xudoning suyukli bandasi ekanligini va u axloq me'yorlarini buzmagani bilish muhimroqdir». Demak, agar birinchisiga o'zini aqlli va chiroyli his qilishni o'rgatishsa, ikkinchisini esa, o'zini odobli odam deb his etishga o'rgatgan taqdirda, u o'zini hurmat qiladi.

Lekin Djonatan Brayn va Keyt Dattonlar o'zini hurmat etish masalasiga o'zgacha yondashadilar, ular fikricha, sabab va oqibatning o'rnini almashtirish lozim. Agar odamlar umuman o'zlarini qadrlashsa, ular o'zlarining tashqi ko'rinishini, o'zlarining qobiliyatlarini ham qadrlaydilar (Brown & Dutton, 1994).

Shaxsning o'zini anglashida ijtimoiy muhitning ta'siri

Qurilishi jihatidan psixologlar shartli ravishda to'rt o'zaro bog'liq tomonlarni ko'rsatib o'tadilar:

1. O'z-o'zini bilish. 2. O'z-o'ziga munosabat. 3. O'z-o'zini his qilish. 4. O'z-o'ziga ta'sir.

Bularning har biri o'ziga turli imkoniyatlarni qamrab oladi. Biroq o'z-o'zini bilish — o'z-o'zini his qilish va boshqalarning manbaidir.

O'z-o'zini bilish yaxlit holda o'z ustida ishlash mazmunini, o'z-o'zini tarbiyalash dasturini belgilaydi. Ayni paytda, u shaxsning batafsil dasturini tuzish, o'quvchilarda tarbiyalanayotgan tegishli maqsadlar, ideallarga erishish uchun zarurdir. Demak, o'z-o'zini bilish asosidagi o'zlikni anglash, umuman olganda, o'z-o'zini boshqarishga, tarbiyalashga olib borishi mumkin ekan. Lekin bunda o'z-o'ziga munosabatning rolini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shuning uchun o'zlikni anglashning turli qirralari o'z-o'zini boshqarish va tarbiyalashga nima bera olishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

O'zlikni anglashning qiymatli tomoni bo'lgan o'z-o'ziga munosabat insonni o'zga shaxs sifatida munosabatda bo'lishini nazarda tutadi. U birinchi navbatda, shaxsning yo'nalganligi (maqsadlari, ideallari, ehtiyojlari, qiziqishlari)ni, qadriyatlar ma'naviy qiymatlarga yo'nalishi, o'ziga talabchanligi, o'zini ifoda qila olishini o'z ichiga oladi. O'z-o'ziga munosabat hamisha o'z-o'zini his qilish bilan bog'liq. O'z-o'zini his qilish esa o'z navbatida o'z-o'zini ifoda qilish, o'zini tasdiqlash bilan bog'liq. O'zidan qoniqish yoki qoniqmaslik bilan ifodalanadigan shaxsning ruhiy holati o'zining xulqi bilan ichki muhitni yaratadi, ichki muhit esa o'z navbatida inson «Men»ining barcha ko'rinishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, o'z-o'zini takomillashtirish qaysi rejada amalga oshirilishi ko'p jihatdan o'z-o'zini bilish va o'z-o'ziga munosabatda bo'lishga bog'liqdir. Agar shaxs o'zini to'g'ri ifodalashga, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy va xolisona yonda-

shishga qobil bo'lsa, unda baribir, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj tug'iladi.

O'z-o'zini his qilish va o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish o'zlikni anglashning hissiy-emotsional tomoni sifatida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglashning hissiy-emotsional tomoni qiziqishlar, istaklar, kayfiyat ularni boshqara bilish kabi komponentlar, tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'z hissiyotlari va fikrlarini, xatti-harakatlarini boshqarishga, asoslashga, o'z-o'zini tarbiyalashda u yoki bu darajada namoyon bo'ladi. O'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarishning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligini ma'lum chizma tarzida tasavvur qilish mumkin:

O'z-o'zini anglash bu umuman olganda, shaxs «Men» obrazining hosil bo'lishi demakdir (I.S.Kon, 1978). Ko'pchilik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, «Men» obrazi insonda tez hosil bo'lmaydi, balki butun umri davomida ijtimoiy ta'sirlar natijasida yuzaga keladi. Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan olib qaralganda, bu jarayon insonning turli ijtimoiy guruhlariga qo'shilishi qaysi yo'l orqali amalga oshirilishi biz uchun qiziq.

Ko'pgina ilmiy manbalarda o'z-o'zini anglashga quyidagicha ta'rif beriladi: «Insonning o'z bilimlari, ma'naviy qiyofasi va qiziqishlari, ideallari va axloq motivlarini anglash, baholash, o'z-o'ziga arbob sifatida his qiluvchi va fikrlovchi mavjudod sifatida yaxlit baho berishi, o'zini obyektiv dunyodan ajratishi, o'zining borliq olamga munosabatini anglash va unga baho berishi, o'zini shaxs sifatida anglashi, o'z xatti-harakatlari, fikrlari va hislari, istaklari va qiziqishlarini anglashidir».

Shaxsning o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o'smir yigitlarda ham nafaqat o'ziga munosabatni, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlari o'zida ayni paytda mavjud

ekanligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifat-larning bor-yo'qligiga bog'liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi. Lekin shuni alohida aytish joizki, «Men» obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirishdir. Refleksiya «Men» obrazi ega-sining ongiga taalluqli jarayondir.

«Men» obraziga doir bir qancha nuqtayi nazarlar mavjud bo'lib, bulardan eng ko'p tarqalgani quyidagi uch komponent hisoblanadi, bular:

1. Bilish komponenti (o'zini bilish).
2. Emotsional komponent (o'z-o'zini baholash).
3. Axloqiy komponent (o'ziga munosabat).

Insonning o'z-o'zini anglashi borasida ko'pgina olimlar ilmiy-psixologik tadqiqot olib borganlar. Masalan, D. Mill «Men» konsepsiyasini xotira bilan bog'lagan bo'lsa, V. Vundt «Men»ni insonning shaxsiy hissiyotlari bilan bog'lagan. I.S. Kon o'zining «Men»ning yaratilishi» nomli asarida bu fikrlarni tahlil qilib, «inson avvalo kishining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratadigan sifat-larini anglaydi» deydi. D. Millning fikricha, o'z-o'zini anglash bu birgalikdagi faoliyati tufayli birlashgan odamlarning ko'zi bilan o'ziga boqishdir. A.N. Leontev o'z-o'zini anglashda ijtimoiy faoli-

yatning roli haqida fikrlab, shunday deydi: «Individual «Men» o'zining tarkibiga ko'ra, ijtimoiy malakalar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tarkibdir».

Insonning o'z-o'zini anglashi borasida yana bir qator mulohazalar bo'lib, uni o'rganishda asosiy fakt shundaki, u oddiy tavsiflar kabi yuzaga kelmaydi, lekin u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq bilsa, tasavvur qila olsa, uning jamiyat me'yorlariga qarshi harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi, shunda u tarbiyalangan bo'lib hisoblanadi.

«Men» obrazi va o'z-o'ziga baho

«Men» obrazining asosiy tarkibiy qismi o'zini baholashdir. U. Djeymsning original formulasi bo'yicha uni hisoblash ham mumkin:

$$\frac{\text{Muvaffaqiyat}}{\text{Talabgorlik}} = \text{O'zini baholash}$$

U vaqt o'tishi bilan va vaziyatlarga bog'liq holda o'zgarib turadi. U o'ziga xos differensial o'lchovlarga ega, ya'ni o'ziga baho quyidagi o'lchovlarga ega bo'ladi: yuqori, adekvat va past. Bundan tashqari qo'shimcha ravishda adekvat past, adekvat yuqori, noadekvat past va noadekvat yuqori ham bo'lishi mumkin. Yoshlikda o'z-o'zini baholash tashqi baholar ostida shakllanadi, bu esa keyinchalik interiorzatsiyalanib o'ziga munosabatga aylanadi. Bu esa ma'lum intellektual rivojlanish darajasi bilan bog'liq ravishda amalga oshadi (oligofren bolalarda mazmuniy umumlashtirish bo'lmagani uchun ular barqaror o'z-o'zini anglashga ega bo'lmaydilar).

«Men» obrazi asosida har bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim obrazga mos tarzda turli xil bo'lishi mumkin. O'z-o'zini baholash borasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi kategoriyalarni (masalan, 14, 17

yoshdagi o'quvchilar va 30 yoshdagi kattalarni) beshta parametr: jismoniy sifatlar, shaxsiy muvaffaqiyatlar, intellektual rivojlanish, shaxslararo munosabatlardagi o'rni va mas'uliyat hissiga nisbatan o'ziga baho berishini taqqoslash so'ralganda, ularning yoshi o'tgan sayin individual variatsiyalari ortganligi kuzatilgan. Bolalikda o'zini hamma sifatlar bo'yicha bir xil baholash xos bo'lsa, katta yoshdagi respodentlar o'zining kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq ang-laganligi aniqlangan. Bu esa ularning shaxsiy tajribasi ortganligi bilan bog'liq, bu o'z navbatida shaxsning kognitiv jihatlari ortishi-ning natijasidir, ya'ni shaxs ulg'aygan sayin unda o'z «Men»ining turli tomonlarini baholash qobiliyati kengayib boradi.

Faoliyatning muvaffaqiyati uchun odam o'zining real imkoni-yatlarini yuqoriroq baholashi darkor, shu orqali u o'z-o'zini mo-tivlashtiradi. Obyektiv imkoniyatlariga nisbatan o'z-o'zini past baholash depressivlik, shaxsning nevrozga moyilligidan darak beradi. Salbiy «Men» konsepsiyasi odamning faoliyat va mulo-qot doirasini chetlovchi psixologik himoya mexanizmlarining ko'payishiga olib keladi.

O'zini qabul qilish shaxsning o'zini faollashtiruvchi asosdir. Ijtimoiy mazmundagi kasb egasi bo'lgan kishi o'zi haqidagi bili-mini chuqurlashtirishi va o'zidagi salbiy «Men» konsepsiyasini bartaraf etishi darkor.

O'z-o'zini yuqori baholash uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi lozim:

- a) faoliyatlaridan birida xususiy yutuqlarning mavjudligi;
- b) muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda rad etilishdan qo'rqmaslik;
- d) atrofdagilarning unga nisbatan ijobiy munosabatda ekanli-giga ishonch;
- e) boshqalar bilan o'zini solishtirmaslik.

Noadekvat o'zini yuqori baholash shaxs uchun hayotiy qiyin-chiliklar manbaiga aylanishi mumkin; o'ziga nisbatan tanqidiylik bilan qarashga asoslangan noadekvat past baho esa infantilizm-ga, mas'uliyatsizlikka, o'z faoliyatini tashkil eta olmaslik, uning

natijalarini ko'ra bilmaslik va odamlar bilan munosabatga kirisha olmaslikka olib kelishi mumkin.

O'zini baholash ichki talabgorlik, ya'ni odam o'z oldiga amalga oshirish qiyin bo'lgan maqsad va muammolarni qo'yishi bilan uzviy bog'liq. Agar odam o'z muammolarini va maqsadini hal eta olmasa, u o'zidagi ichki talabgorlikni kamaytirishi kerak.

O'z-o'ziga nisbatan baho shaxsning turli sifatlari, ijtimoiy tajribasi va o'zi erishgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni ma'lum bir muvaffaqiyat natijasida o'ziga baho ortib ketsa, aksincha muvaffaqiyatsizlik natijasida pasayib ketishi mumkin. O'ziga baho aslida boshqalarning shaxsga nisbatan real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq holda shakllanadi. Masalan, oliy o'quv yurtidagi talaba uchun hurmatli, qadrli bo'lgan o'qituvchisining unga nisbatan ijobiy munosabati va doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshiradi, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati yoki tanbehi ham bu bahoni pasaytira olmasligi mumkin. Chunki bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar natijasida ham hosil bo'lishi mumkin. Bunday holda shaxs tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chet-roqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar, xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, o'zining real borlig'idan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning o'ta yuqori bo'lishi ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki yuqori baho ham shaxs

yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, no'rin maqtoqlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi. Shaxs tomonidan «...xalaqit berdi-da», «...bo'lmaganida, albatta uddalagan bo'lar-dim» kabi bahonalarning ko'payishi aynan shu bilan bog'liqdir. Bunday shaxs bilan qanday omadsizlik sodir bo'lmasin, u aybdor sifatida o'zini emas, balki atrofdagilardan kimlarnidir yoki sharoitni, hech bo'lmaganda taqdirni aybdor deb hisoblashga odatlanadi. Bunday shaxslar asta-sekin atrofdagilar tomonidan «oyog'i yerdan uzilgan», «manman», «dimog'dor» kabi sifatlari bilan tahlil etila boshlanadi. Demak, o'z-o'ziga baho real, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar: ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarda ko'rsatilgan kamchiliklarni yoshligidanoq xolis qabul qilishga, kerak bo'lsa o'z vaqtida to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi, ya'ni referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, ba'zida maqtoq aralash bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real hayotda mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar) yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal, «kumir») bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat me'yorlariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimizning singishi, vatanparvarlik, adolatlilik, fidoyilik sifatlarining shakllanishi va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiyki, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini rivojlantirmoqda. Bu esa o'sha milliy o'zlikni anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

Z. Freyd nazariyasiga ko'ra «Men»ning tuzilishi

Zigmund Freyd shaxs nazariyasini rivojlantirish barobarida boshqa olimlarning fikrlariga qarshi chiqqan holda, nisbatan boshqacharoq tarzda asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra «individ doimo jamiyat bilan nizoda bo'ladi» deb ta'kidlaydi. Ya'ni «insonning biologik ehtiyojlari» (ayniqsa jinsiy ehtiyojlari) jamiyatdagi mavjud madaniyat me'yorlariga zid bo'lib, shaxs o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida bu me'yorlar bilan albatta to'qnash keladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'zidagi mavjud sifat-larni konkret baholash jarayoni ko'pincha shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan yomon sifat-larni anglamaslikka, bekitishga harakat qiladi. Hattoki bunday tasavvurlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos psixologik himoyalash mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi.

Z. Freydning klassik psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, «Men» konsepsiyasi inson psixikasining strukturali komponenti hisob-

lanadi, boshqacha aytganda, Zigmund Freyd shaxs shakllanishi-ning psixik strukturasi uch asosiy qismga bo'lib ko'rsatadi:

1. Id («U»). Bu shaxsga berilgan tug'ma reflekslar bilan bog'liq holda mavjud bo'lgan instinktiv ehtiyojlarning asosi. Rohat olish uchun yo'naltirilgan energiya manbai. «U» organizmning ovqatlanishi va kerakli ehtiyojlarini qondirish funksiyasini bajaradi.

2. Ego («Men»). Insonning atrof-muhitda o'zini tutishini, xulq-atvorini yo'lga solib turadigan funksiyani bajaradi. Ego reallik prinsipi orqali boshqariladi. Masalan, inson och qolganda, Ego uni zaharli mevalarni iste'mol qilishdan asrab qoladi, ya'ni taqiqlab qo'yadi.

3. Superego («Oliy Men»). U ideal ota-ona funksiyasini bajaradi. Superego insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadi va ota-onalarning standartlariga asosan uning jamiyatda shakllanishiga yordam beradi.

Bu uchta komponent bolaning shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar reallik prinsipiga, shuningdek, Ego va Superegoning talablariga rioya qilishlari kerak. Ego Superegoning jazolashlari va xatti-harakatlari uchun javobgardir. Shu orqali inson o'z aybini va mag'rurligini his qiladi.

Freyd nazariyasiga ko'ra, jamiyatda tarixan tarkib topgan odatlar, axloqiy prinsiplar, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli jinsiy mayl to'g'ridan to'g'ri to'siladi. Shuning uchun ham ba'zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o'rtasida ichki ruhiy nizo paydo bo'ladi, bunday to'qnashuvlar ba'zan barqaror asab kasalliklariga (nevrozga) olib keladi. Kishilik jamiyatida ko'pchilik kishilarning hayoti davomida bu tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratiladi va sarf etiladi. Hayotning yuksak sohasiga energiyaning shu tariqa ko'chirilishi sublimatsiya deyiladi.

Tayanch tushunchalar:

«Men» konsepsiyasi — ijtimoiy fikrlarimizni tashkil etuvchi va xulq-atvorimizni boshqaruvchi tizim.

«Men» obrazi – shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi asosida shakllanuvchi tasavvurlar yig‘indisi.

Individual «Men» – tarkibiga ko‘ra, ijtimoiy malakalar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tarkib.

Ijtimoiy «Men» – irqiy, diniy, jinsiy, kasbiy va h.k. mansublikni, shuningdek, ma‘lum davraga mansub «biz» bor va unga kirmaydigan «ular» bor degan tushunchani ham bildiradi.

Sublimatsiya – hayotning yuksak sohasida jinsiy mayl energiyasining mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratilishi va sarf etilishi.

Refleksiya – o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qilish jarayoni.

Personal identivlik – o‘z shaxsiy sifatlari haqidagi tasavvurlar.

Nazorat savollari:

1. Freyd nazariyasining mohiyatini tushuntiring.
2. Insonning o‘z-o‘zini anglashi borasida qaysi olimlarning qarashlarini bilasiz?
3. «Men» konsepsiyasining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarni ko‘rsating.
4. Shaxsning o‘z-o‘ziga bahosining mazmun-mohiyati nimalarga bog‘liq bo‘ladi?
5. «Men» konsepsiyada personal va ijtimoiy identivlikning ahamiyatini izohlab bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. U. Djeymsning o‘z-o‘ziga baho berish tizimining mohiyati.
2. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi borasida sharq mutafakkirlarining qarashlari.
3. J. Rumi asarlarida o‘z-o‘zini anglash masalasining yoritilishi.
4. Irsiy omillarning shaxs xarakteri va «Men» konsepsiyasiga ta‘siri.

TEST

1. Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida shaxsni o'rganishga nisbatan ijtimoiy psixologiyaning qanday turi mavjud?

- a) Psixologik ijtimoiy psixologiya
- b) Sotsiologik ijtimoiy psixologiya
- c) Umumiy ijtimoiy psixologiya
- d) a va b javoblar to'g'ri

2. Bo'lishi mumkin bo'lgan «Men» o'z tarkibiga biz bo'lishni istagan tasavvurlar: boy, nozik, sevimli va sevuvchi «Men»larni oladi. Ushbu fikr kimga mansub?

- a) D. Mill
- b) V. Vundt
- c) I.S. Kon
- d) J. Markus

3. «Men» konsepsiyasini xotira bilan bog'lagan olimni aniqlang.

- a) D. Mill
- b) V. Vundt
- c) I.S. Kon
- d) J. Markus

4. «Inson avvalo kishining diqqat-e'tiborni o'ziga qaratadigan sifatlarini anglaydi» deb aytgan olimni aniqlang.

- a) D. Mill
- b) V. Vundt
- c) I.S. Kon
- d) J. Markus

5. «Men» konsepsiyasini insonning shaxsiy hissiyotlari bilan bog'lagan olimni aniqlang.

- a) D. Mill
- b) V. Vundt
- c) I.S. Kon
- d) J. Markus

6. «Individual «Men» o'zining tarkibiga ko'ra, ijtimoiy malakalar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tarkibdir. Insonning ijti-

moiy roli jamiyat hayotida ishtirok etishning yo'llaridan biridir» deb aytgan olimni aniqlang.

- a) D. Mill
- b) A.N. Leontev
- c) I.S. Kon
- d) Z. Freyd

7. «O'z-o'zini anglash bu birgalikdagi faoliyati tufayli birlashgan odamlarning ko'zlari bilan boqishdir» deb aytgan olimni aniqlang.

- a) D. Mill
- b) A.N. Leontev
- c) I.S. Kon
- d) Z. Freyd

8. Hayotning yuksak sohasida jinsiy mayl energiyasining mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratilishi va sarf etilishiga nima deb aytiladi?

- a) Personal identivlik
- b) Refleksiya
- c) Sublimatsiya
- d) Persepsiya

9. O'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qilish jarayoniga nima deb aytiladi?

- a) Personal identivlik
- b) Refleksiya
- c) Sublimatsiya
- d) Persepsiya

10. Shaxs shakllanishining psixik tuzilishini uch asosiy qismini Id («U»), Ego («Men»), Superego («Oliy Men»)ga ajratib ko'rsatgan olim.

- a) D. Mill
- b) A.N. Leontev
- c) I.S. Kon
- d) Z. Freyd

SHAXSNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY NAZORAT SHAKLLARI

Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Odamzodning yashash sharoiti, boshqacha qilib aytganda uni o'rab turgan ijtimoiy muhitning doimo o'zgarib borishi qonuniy bir jarayondir, shunday ekan, shaxs muammosi va uni o'rganish barcha fanlar qatori ijtimoiy psixologiya uchun ham hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi.

Muammolar qanchalik bir-biriga o'xshash bo'lmasin, ular har gal boshqacha tarixiy sharoitda, o'zgargan ijtimoiy muhitda yashovchi, binobarin, o'zgacha tafakkur tarziga ega bo'lgan dunyoni boshqacha his etuvchi va tushunuvchi insonning muammolari bo'lib qolaveradi.

Shaxs biologik tur bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida muayyan tarixiy davr va ma'lum mamlakatdagi ijtimoiy muhitning ham farzandi hisoblanadi. Shaxsning qaysi tarixiy davrda, qaysi ijtimoiy muhitda yashashiga qarab uning fe'l-atvorida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi.

Shaxsning fe'l-atvori, xatti-harakatida tug'ma (irsiy) xususiyatlar mavjud ekanligini ijtimoiy nazariya tarafdorlari ham tan olishadi, lekin ularning fikriga ko'ra shaxsdagi bu xususiyatlar asosan muayyan ijtimoiy muhitda (oila, o'quv va mehnat jamoasi, davr ruhi, davlat tuzilishi, kasbiy va ijodiy uyushmalar va h.k.) hamda mehnat, til, nutq, tarbiya, tajriba orqali o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

Shaxs va jamiyatning shakllanishi hamda tarixiy takomilida ijtimoiy mehnat, nutq va tafakkur tarzining o'zgarishi, oila, nikoh munosabatlari takomillashishining ham ahamiyati katta bo'lgan.

Shaxsdagi tabiiylik va ijtimoiylik o'rtasidagi aloqadorliklarda ijtimoiylik mayllarining yetakchi bo'la borishi odamning insonga, ya'ni jamiyatlashgan mavjudodga aylanib borishini ta'minlaydi.

Genetik jihatdan chegaralangan tabiiy omillarga ijtimoiylik katta ta'sir ko'rsatishi natijasida odam hayotining davomiyligi ham uzayib boradi. Biologik jihatdan mehnat qila olish imkonini beruvchi tana tuzilishiga ega bo'lgan odam shaxsga, ya'ni ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi, voqelikni biluvchi hamda aktiv o'zgartiruvchi subyektga aylanib boradi. Shaxsning inson jinsiga mansublik nazariyasi individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsga aylanadi. Shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni odamning boshqalar bilan o'zaro munosabati jarayonida amalga oshadi va uning «ichki dunyosi» shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsda aktiv faollik bo'lishi uning uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor motivlarida, ko'rsatmalarida va ularga amal qilish usullarida namoyon bo'ladi.

Shaxs avvalo o'zining qadr-qimmati va kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol qatnashgan hamda ta'lim-tarbiya natijasida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo'lgan konkret tirik odamdir.

Shaxsning faolligi uning o'z hayoti uchun yo'l tanlashida, bu yo'lni egallashida, hatto o'z mavqei va o'rnini anglashida ifodalangani. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik protsesslarning o'sib borish xususiyatlari, hukmron hissiyotlar yig'indisi, faoliyat motivlari va tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

Shaxs tuzilishining o'zgarishi psixologlar tomonidan aniqlangan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar odamning yashash sharoiti va faoliyatida yuzaga keladigan o'zgarishlarning natijasi bo'lib, avvalo ijtimoiy tarbiya bilan bog'liqdir.

Psixologiyada shaxs shakllanishiga doir bir qator nazariyalar mavjud bo'lib, ular inson shaxsini tadqiq qilish jarayoniga har xil nuqtayi nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik,

kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik va shu kabi bir necha nazariyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Biogenetik nazariyada shaxsning biologik taraqqiyoti bosh omil sifatida qabul qilingan va qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy holatda ana shu omil bilan o'zaro bog'liqlikda kechadi. Mazkur nazariyaga ko'ra shaxs shakllanishining asosida biologik determinantlar yotadi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ham ularga bog'liq ravishda rivojlanadi. Biogenetik nazariya tarafdorlarining shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar borasidagi qarashlari «Umumiy psixologiya» va «Yosh davrlari psixologiyasi» darsliklarida yoritilganligini, qolaversa ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy omillarning roli haqida gapirish o'rinli bo'lishini hisobga olib sotsiogenetik nazariya haqida ma'lumotlarni beramiz.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyat strukturasi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi.

Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanishi ta'kidlangan. Ijtimoiy yo'nalishdagi nazariyalardan biri sifatida g'arbda yuzaga kelgan eng muhim nazariyalaridan biri rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakatlarning barqaror usullari majmuasini yaratgan bo'lib, bunda inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari orqali jamiyatda namoyon etayotgan xulq-atvori va boshqalar bilan munosabatida uning qanday shaxs ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy yo'nalishdagi nazariyalardan biri sifatida AQSHda individual tajriba va shaxs ijtimoiylashuvida bilimlarni o'zlashtirish (ko'nikish) nazariyasi keng tarqalgan bo'lib, mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va atrof-muhitdagi voqelikka

bo'lgan munosabati, ko'nikmalarni egallashi va olgan bilimlarini o'zlashtirishi ta'sir etuvchi omillarning barqarorligiga bog'liqligi aytib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, obyektiv shart-sharoitlari haqida batafsil ma'lumotlar berilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Sotsiogenetik nazariya shaxs taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi deb hisoblaydi. Sotsiogenetiklarning fikricha, odam «ijtimoiy muhitning nusxasidir». Sotsiogenetiklar ham biogenetiklar singari rivojlanayotgan odamning shaxsiy aktivligini inkor qiladilar. Odamni faqat atrofidagi muhitga moslashadigan, passiv rol o'ynaydigan mavjudod deb ataydilar. Shaxs taraqqiyotining qonuniyatlarini tushunishda biogenetik nazariyaga ham, sotsiogenetik nazariyaga ham asoslanib bo'lmaydi.

Chet el psixologi K. Markning so'zi bilan aytganda, inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iboratligiga e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Shaxs ijtimoiy mavjudod bo'lish bilan birga, o'zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi.

Jamiyat odamni juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi, uning instinktlari va mayllarini «senzuradan» o'tkazadi. Natijada odam o'zini qo'lga olishga, yo'l qo'yib bo'lmaydigan xatoliklarni qilmaslikka, o'zining hissiy kechinmalarini tormozlashga majbur bo'ladi. Shaxsning muhitga bog'liqligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Bunda shaxs muhit orqali avtomatik ravishda belgilanadigan, ijtimoiy muhitning oddiy funksiyasi sifatida yuzaga chiqadi. Muhit shaxsga o'zining eng muhim sifatlarini ko'chiradi. Ular shaxs aktivligining formalariga aylanadi.

Psixologiyada shaxsning shakllanishiga oid nazariyalaridan biri — psixogenetik yondashuv bo'lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarni kamsitmagan holda, shaxsning psixik jarayonlari rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Ularning fikrlari quyidagicha: ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol qatnashuvchi odamni shaxs deb atashimiz mumkin. Avvalo inson individ sifatida dunyoga keladi, so'ngra ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxsga aylanadi. Shaxsning shakllanishi uni o'rab turgan jamiyatdagi voqelikni o'zgartirishga qaratilgan turli-tuman faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatga kirishishi uning o'z hayoti uchun lozim bo'lgan yo'lni tanlashida va tanlagan yo'lni to'la-to'kis egallashida ifodalanadi.

Shaxs ijtimoiy hayotining tarkib topishida axloq va ong o'ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. O'zida umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayonida shaxs ishonch, haqiqat, yolg'on, muttahamlik kabi nuqtayi nazarlarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Demak, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatida uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini ham albatta, hisobga olish lozim.

L.S. Vigotskiyning fikricha, shuni ham inobatga olish kerakki, bolaning psixik rivojlanishida va o'z-o'zini anglashning taraqqiy etishida nasliy omillarning ham roli mavjuddir, biroq asosiy tamoyil sifatida psixikaning rivojlanishida muayyan hayot tarzining roli ham kattadir. Har bir psixik funksiyalar ba'zi o'rinlarda biologik organizm hayoti bilan birga shakllanib boradi.

L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, yuqori funksiyalarga qaraganda elementar funksiyalar ko'proq naslga bog'liq bo'ladi.

Yuqori funksiyalarga ixtiyoriy xotira, mantiqiy tafakkur, nutq kirsa, elementar funksiyalarga sezish, his qilish kabilar kiradi. Demak, shaxs psixikasining shakllanishida ham biologik, ham ijtimoiy omillarning ta'sirini inobatga olish muhimdir.

O'rta Osiyoda ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida mutafakkirlarimiz o'ziga xos fikrlarni bildirganlar. Ular orasida bu boradagi fikrlarini asosan ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan asoslashga harakat qilganlardan biri F. Attor hisoblanadi. Uning quyidagi fikrlari aynan ijtimoiy muhitning shaxsga ta'siri masalasini oydinlashtirishga qaratilgan desak,

xato bo'lmaydi. «Ko'zingini ochib qaragin, — deb ta'kidlaydi alloma, — dunyo xuddi qaynab turgan qozonday jo'shib-toshib turibdi, sen ham shu qozonning ichida qaynayapsan. Ostingda olov lovillab turibdi, shu sababli tinmay qaynab turibsan, dunyo bilan birga. Bu qudrat bor ekan, qaynash davom etadi. Ammo asosiy maqsad, bu qozonda pishib yetilish va «jonni jononga qo'shish»dir. Shunda quduqdan qutulib, «aynulyaqin» bo'lasan, ilohiy saodatda o'zligingni qayta namoyon qilasan. Shunda kishi: «Makon va lomakonni birlikda ko'rdim, jon va jismni uzviylikda ko'rdim», deya oladi bermalol».

Allomaning ushbu qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, inson ijtimoiy muhitsiz hech kim emas. U doimo xohlaydimi-yo'qmi, muhit bilan hamnafasdir. Asosiy maqsad esa «bu qozonda pishib yetilish va jonni jononga qo'shish», ya'ni hayotdagi tarixiy o'zgarishlar davomida shakllanish hamda muhit talablari asosida o'zining shaxsiy individualligini namoyon qila olishdadir.

O'zbek ma'rifatparvarlaridan biri bo'lmish A.Avloniy bolani tarbiyalashda oilaning o'rni va ahamiyati katta ekanligini ta'kidlagan. Muallif bola tarbiyasida bola yashab turgan sharoit, muhit, atrofdagi kishilarning roli muhimligini ta'kidlab, bu borada nafaqat oila, balki maktab sharoitini ham nazar-e'tibordan chetda qoldirmaydi. Oilaviy munosabatlardagi tarbiyalanganlik darajasi bolaning axloqiga, xulq-atvoriga va bola shaxsining shakllanishiga kuchli ta'sir etishini e'tirof etadi hamda ota-onalarga o'z bolalarini tarbiyalashda to'g'ri usullardan foydalanishni maslahat beradi. Albatta, bola shaxsining shakllanishida oilaviy tarbiya usulining ahamiyati katta bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga solishda har bir yosh davrlarining xususiyatlarini inobatga olish lozimdir.

Allomaning fikricha, inson bolasi aslida iste'dod va qobiliyat bilan tug'ilgandir. Lekin undagi bu qobiliyatni kamolga yetkazishda oiladagi shaxslararo munosabatlarning va bola shaxsiga nisbatan e'tiborning roli beqiyosdir. Alloma bola shaxsining shakllanishida oiladagi jismoniy tarbiya, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasining o'rni haqida alohida to'xtalib o'tadi. Avloniyning fikri-

cha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarurdir: «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning asosiy vositasi hisoblanadi. Mutafakkir badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoyat zarur va muqaddas bir vazifadir. Binobarin, «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, u muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur». Fikr insonning sharofatlikka, g'ayratli bo'lishga yetaklaydi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, aynan bizning zamonda, ya'ni demokratik jamiyat qurish davrida mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardandir. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov «O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi», deb bejiz aytmaganlar.

Ijtimoiy muhitning shaxsga ta'sirida ijtimoiy nazorat shakllarining o'rni

Har qanday shaxs ma'lum bir jamiyat a'zosi sifatida yashar ekan, faoliyat ko'rsatar ekan, u albatta ana shu jamiyat tomonidan o'rnatilgan ijtimoiy nazoratga amal qilishga harakat qiladi.

Ijtimoiy nazorat bu shaxsning xulqiga, qadriyatlariga, tasavvurlariga va ustanovkalariga nisbatan jamiyatdagi guruhlarining yoki jamoatchilikning ta'siridir. Ijtimoiy nazoratga ekspektatsiya, me'yor va sanksiyalar kiradi. *Ekspektatsiya* – aynan shaxsga nisbatan atrofdagilarning kutish shaklidagi talablaridir. *Ijtimoiy me'yor* – ma'lum vaziyatlarda shaxsning nima deyishi, o'ylashi, his qilishi, nima qilishini ko'rsatuvchi namunalar yig'indisidir. Ijtimoiy sanksiyalar – ijtimoiy nazoratning muhim vositalaridan biri sifatida shaxsga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralaridir.

Ijtimoiy nazoratning shakllari bu shaxsning jamiyatdagi hayoti va turli xil guruhlardagi faoliyatini boshqarish usullaridir. Ijtimoiy nazoratning ko'proq tarqalgan shakllari quyidagilardan iborat:

1. Qonun – davlat miqyosida shaxslarning rasmiy munosabatlarini nazorat qiluvchi va yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy aktlar yig'indisi.

2. Tabu – shaxsning biror-bir fikri yoki harakatlariga nisbatan cheklovlar tizimini qamrab oladi.

3. Urf-odat – yoshlikdan o'zlashtiriladigan va jamoaviy odatlilik xarakteriga ega. Urf-odatning asosiy belgisi tarqalganlikdir. Urf-odat jamiyatda ma'lum bir davrga xos bo'lgan va vaqtincha davom etuvchi tavsifga ega.

4. An'ana – shunday urf-odatki, ma'lum bir xalq madaniyati bilan bog'liq holda shakllangan, avloddan avlodga o'tuvchi, xalqning mentaliteti bilan aniqlanadi. Urf-odat va an'analar ommaviy harakatlarni qamrab oladi va jamiyat integratsiyasida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy ahamiyatga ega va aynan guruh yoki jamiyatda yaxshilik va yomonlikni tushunish bilan bog'liq bo'lgan maxsus urf-odatlar mavjud.

5. Axloq – ma'lum bir davrda jamiyat kishilarining xulq-atvorida, xatti-harakatlarida, o'zaro muloqot jarayonida o'z aksini topadigan ijtimoiy kategoriyadir.

6. Odat – shaxs hayotida ko'p takrorlanaverganligidan avtomatlashganlik darajasiga aylanib qolgan, anglanilmagan holda bajariladigan harakat shaklidir.

7. Etiket (etiket me'yorlari) — odamlarga nisbatan ijobiy va xayrixohlik bilan muloqotga kirishishda munosabatlarning tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladigan o'zini tutish qoidalari. Ammo bunday odoblilik orqasida ba'zan ichiqoralik va shaxsga nisbatan behurmatlik munosabatlari yashiringan bo'lishi ham mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu me'yorni bajarishda shaxsning odamlar bilan munosabatida uning samimiyligi yo'qolishi mumkin.

Shunday bo'lsa ham, «semiz janjaldan, ozg'in tinchlik yaxshi».

Jamiyatning har bir a'zosi interiozatsiya jarayoni va natijasi tufayli individ tomonidan doim ham anglanilmaydigan ijtimoiy nazoratning kuchli psixologik ta'siri ostida bo'ladi.

Bulardan tashqari shaxsning jamiyatdagi xatti-harakati va xulq-atvorini nazorat qilib turuvchi nazorat shakllari ham mavjud bo'lib, ulardan biri ijtimoiy me'yorlardir.

Ijtimoiy me'yorlar

Ijtimoiy me'yor — bu ma'lum bir vaziyatda kishilar qanday gapirishi, qanday harakat qilishini ifodalab beruvchi namuna yoki qoliplardir. Ijtimoiy me'yorga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning umumlashmasi sifatida quyidagi ta'rifni qabul qilish mumkin: **Ijtimoiy me'yor** — shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tibor etilgan harakatlar talablaridir. Me'yor so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, uning mazmuni «qoida», «namuna», «standart» degan ma'noni anglatadi. Jamiyatdagi mavjud me'yorlar shaxsga, oilaga, guruhga, tashkilotga o'zining aslini yo'qotmay, o'zligicha qola oladigan darajada ma'lum bir chegaralarni qo'yadi. Jamiyat a'zolarining shaxslararo munosabatlari, ijtimoiy guruhlarning harakat va faoliyatlari aynan shu jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy me'yorlar — haqiqatdan ham tartib va qadriyatlarining himoyachisidir. Hattoki eng oddiy o'zini tutish (axloqiy)

me'yorlari ham o'zida guruh va jamiyat tomonidan qadrlanuvchi jihatlarni aks ettiradi.

Qadrlash va me'yor orasidagi farq quyidagicha:

– Me'yor – o'zini tutish qoidalari hisoblansa,
– Qadrlash – yaxshilik, yomonlik, to'g'rilik, noto'g'rilik, majburlik va majbur emaslik kabi tushunchalar haqidagi abstrakt tushunchadir.

Ijtimoiy me'yorlarning vazifasi shundan iboratki, u jamiyat a'zolariga ma'lum bir munosabatlarda yoki harakat qilish jaryonida nima «to'g'ri», «majburiy», «tasdiqlanuvchi», «kutiluvchi», «inkor etiluvchi» ekanligini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy me'yorlarning o'ziga xos jihatlardan biri ularning hech qayerda yozilmaganligi va ularni buzgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmasligidadir. Ijtimoiy me'yorlarning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. **Umumahamiyatga ega namunalar.** Me'yorlar ko'pchilikning xulqiga ta'sir qilmay turib guruhning faqat bitta a'zosiga yoki butun guruhga tarqala olmaydi. Agar me'yorlar jamiyatga xos bo'lsa, u holda u butun jamoatchilik doirasida umumahamiyatga ega bo'ladi, agar guruhga tegishli me'yorlar bo'lsa uning umumiy ahamiyati shu guruh doirasi bilangina chegaralanadi.

2. **Guruh yoki jamiyat tomonidan sanksiyalarni qo'llash.** Ya'ni har qanday me'yorning bajarilgan yoki bajarilmaganligiga qarab rag'bat yoki jazolash, ma'qullash yoki qoralash shaklida namoyon bo'lishi.

3. **Subyektivlikning mavjudligi.** Subyektivlik ikki xil aspektda namoyon bo'ladi. Unga ko'ra shaxs tanlashi kerak bo'lgan holatni o'zi hal qilish huquqiga ega. Bunda ikki xil holat mavjud: a) inson guruh yoki jamoatchilik me'yorlarini qabul qilish va amal qilishi ham mumkin; b) inson guruh yoki jamoatchilik me'yorlarini qabul qilmasligi va amal qilmasligi ham mumkin.

4. **O'zaro bog'liqlik.** Jamiyatda me'yorlar o'zaro bog'langan va o'zaro shartlashgandir, ular odamlar faoliyatini nazorat qiluvchi murakkab tizimni namoyon etadi. Me'yortiv tizimlar turli xil

bo'lishi mumkin va bu turli xillik ijtimoiy va shaxslalarga nizo-larga olib kelishi ham mumkin. Ba'zi bir ijtimoiy me'yorlar esa bir-biriga zid bo'lib, shaxsni ulardan birini tanlashga majbur qilib qo'yadi.

5. **Masshtablilik.** Me'yorlar masshtabliligiga qarab ijtimoiy va guruhiy me'yorlarga bo'linadi. Ijtimoiy me'yorlar – butun jamiyat miqyosida amal qiladi va o'zida ijtimoiy nazoratning odat, an'ana, qonun, etiket va boshqa shakllarini namoyon eta-di. Guruhiy me'yorlar – amal qilish doirasi jihatdan kichikroq bo'lib, u ma'lum bir guruhdagina amal qilishi bilan cheklanadi va aynan shu guruhda o'zini qanday tutish kerakligi (axloq, odat, qiliqlar, guruhli yoki individual odatlar) bilan aniqlana-di. Talabalar guruhida guruh a'zosini «sotmaslik» kabi me'yor bo'lishi mumkin.

Jamiyatning ko'pchilik a'zolari uchun bora-bora bajarilishi shart bo'lib qoladigan ma'lum udumlar, odat tusiga aylanishga ulgurgan harakatlar shu jamiyat a'zolari uchun «umumiy qoi-dalar» bo'lib xizmat qiladi. Shunday me'yorlar mavjudki, ular buzilsa yoki ularga amal qilinmasa, u holda kichik jazolar (uni ma'qullamaslik, qovoq uyish, noma'qul qarash) qo'llaniladi.

Ijtimoiy me'yorlar tizimi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ruhiy yuksalishlarni o'zida aks ettiradi. Ularda quyidagilarning aksini topish mumkin: hayot tarzi, xalqning tarixiy xususiyatlari, uning mentaliteti, davlatda mavjud bo'lgan boshqaruv hokimiyatining ko'rinishi. Me'yor odamlarni jamoa va guruh sifatida bir-biri-ga bog'laydi. Bu qanday amalga oshadi? Birinchidan, me'yor – bu kutishdir: me'yorga amal qilgan odam atrofdagilardan ham xuddi shunday harakatni kutadi. Piyodalar o'tish yo'lakchasining o'ng chekkasidan o'tayotgan odamlar to'g'risidan, qarama-qarshi tarafga kelayotgan odamlar yo'lakning chap tarafiga o'tsa, tartib-li, tashkillashtirilgan harakat amalga oshadi. Me'yorlarni buzish oqibatida esa kishilarning bir-birlari bilan turtilib ketishi yuzaga keladi va natijada nizoli vaziyat yoki biror falokat yuz berishi mumkin. Demak, me'yorlar subyektining maqsadi, motivi, faoli-

yat, kutishi, baho berishi kabilarni qamrab oluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiradi. Shu tariqa, me'yorlar kutish ko'rinishida (boshqalarning o'zini tutishiga nisbatan reaksiya) yoki standart xatti-harakatlar (majburiyat, qoida) ko'rinishida talqin etilishiga ko'ra ma'lum vazifani bajaradi.

Nimaga odamlar me'yorlarga amal qiladi va nega jamoatchilik bularni nazorat qiladi? Me'yor qadr-qimmatning himoyachisidir. Oila sha'ni va qadri azaldan odamlar va jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan hisoblanib kelgan. Jamoatchilik tomonidan esa uning barqarorligi va rivojlanishi qadrlanadi. Oila jamiyatning asosiy yacheykasi va u haqida qayg'urish jamiyatning eng muhim vazifasidir. Oila va unda amal qiladigan me'yorlarning asosi sifatida quyidagi hadislarini keltirish o'rinlidir: «*Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq odobini ham yaxshilangiz*» (38-hadis), «*Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi*» (136-hadis).

Ijtimoiy me'yorlarning kelib chiqishi

Atrofimizni qurshab turuvchi borliq (tashqi olam)dagi mavjud bo'lmish barcha narsa va hodisalar o'z rivojlanish va kelib chiqish tarixiga ega. Xuddi shuningdek me'yorlar ham.

Ijtimoiy me'yorlarning turli ko'rinishlari bir vaqtning o'zida yuzaga kelmagan, balki zaruriyat tug'ilganligiga qarab birin-кетин vujudga kela boshlagan. Jamiyat rivojlangan sari ular murakkablashib borgan. Olimlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy me'yorning dastlabki turlari ibtidoiy jamiyatda marosimlar (ritual) bo'lgan. Marosim — oldindan bajarilishining qat'iy shakli belgilangan asosiy va muhim bo'lgan o'zini tutish qoidalari. Marosimning o'zi unchalik muhim emas — eng asosiysi uning shaklidir. Ibtidoiy odamlarning hayotidagi ko'p hodisalar rituallar (marosimlar) yordamida o'tkazilgan. Bizga ma'lumki, qabiladoshlarni ovga yuborish, sardorlik lavozimini egallash, sardorlarga sovg'a taqdim etish marosimlari bo'lgan. Marosimlardan so'ng udumlar ajrala boshladi. Udumlar o'zida ramziy ma'nodagi harakat-

larni o'tkazishdagi ba'zi qoidalarni aks ettiradi. Marosimlardan farqli o'laroq udumlarda shunday xususiyat borki, ular axloqiy (ideal) maqsadli va odam psixikasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Insoniyatning yangi va yuqoriroq rivojlanish bosqichlarining ko'rsatkichlari bo'lmish odatlar keyingi davrlarda rivojlangan ijtimoiy me'yorlardir.

Ibtidoiy davrda rivojlangan yana bir ijtimoiy me'yor turi bu diniy me'yorlardir. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchi oldida o'zining zaifligini sezar va uni xudoning kuchi deya qabul qilishardi. Dastlab, diniy sig'inish obyekti aniq bir buyum — «fetish» bo'lgan. Keyinchalik odamlar biror-bir hayvon yoki o'simlikka — «totem»ga sig'inishgan, chunki uni o'zining himoyachisi va ajdodlari deb hisoblashgan.

Ilk ibtidoiy jamiyatda odat va diniy me'yorlar bilan parallel ravishda axloq me'yorlari ham shakllangan bo'lib, ularni ijtimoiy me'yorlar deb atash mumkin. Ularning vujudga kelgan vaqtini aniqlab bo'lmaydi. Faqat shuni aytish mumkinki, axloq insoniyat jamoatchiligi bilan birga yaraladi va ijtimoiy nazoratning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Davlatlarning paydo bo'lishi bilan birga dastlabki huquqiy me'yorlar yuzaga kelgan.

Ijtimoiy me'yor turlari va ularning shaxs xususiyatlarini shakllantirishda tutgan o'rni

Shaxs tomonidan qo'llaniluvchi barcha me'yorlar 2 guruhga bo'linadi:

1. Ijtimoiy texnik (noijtimoiy) me'yorlar.
2. Ijtimoiy me'yorlar.

Ular orasidagi farq nazorat predmetiga ko'ra aniqlanadi. Aytaylik, ijtimoiy me'yorlar insonlar va ular o'rtasidagi munosabatni nazorat qilsa, texnik me'yorlar inson va tashqi dunyo, tabiat, texnika vositalari o'rtasidagi munosabatni nazorat qiladi. Bular: «inson — mashina», «inson — mehnat quroli», «inson — ishlab chiqarish» kabi munosabatlar.

1. **NOIJTIMOIY ME'YORLAR**ni bajarish odamga o'z faoliyatida texnika yutuqlaridan, tabiiy va sun'iy obyektlardan foydalanishga imkon yaratadi va shu bilan birga buni nazorat qiladi. Ularga texnika, qishloq xo'jaligi, iqlim bilan bog'liq, fiziologik, biologik, fizik, ximik, sanitar-gigiyenik kabi me'yorlar taalluqli. Texnik va boshqa noijtimoiy me'yorlarga rioya etmaslik tabiat kuchi yoki moddiy obyektlar tomonidan odamlarning aniq qilmishlari uchun negativ, ya'ni yomon oqibatlariga olib keladi. Masalan, agrotexnik qoidalarini buzish hosildorlikning tushib ketishiga sabab bo'ladi. Agar texnikaviy me'yorlar bajarilmasa, Chernobl atom elektr stansiyasidagi kabi falokat sodir bo'lishi mumkin.

2. **IJTIMOY ME'YORLAR** insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi harakatlar qoidasidir. Bu o'z navbatida shunday tUSDagi barcha vaziyatlarda keng qo'llaniladigan va ta'riflangan vaziyatga tushib qolganlarning hammasi bo'ysunishi shart bo'lgan, bir odamning boshqa odamga nisbatan o'zini tutish qoidalarining masshtab, namuna va standartidir.

Me'yorlarning turlari.

Ijtimoiy me'yorlarni 3 asosga ko'ra tasniflash mumkin:

1) jamoatchilik munosabatlarini nazorat qilish sohasi bo'yicha;

2) kelib chiqish usuliga ko'ra;

3) mustahkamlanish usuliga ko'ra.

Jamoatchilik munosabatlarini nazorat qilish sohasi bo'yicha ijtimoiy me'yorlar quyidagi turlarga bo'linadi: udum, marosim, odat, urf-odat, huquqiy, axloqiy me'yorlar, korporativ me'yorlar, siyosiy me'yorlar, diniy tashkilot me'yorlari, talabalar yotoqxonasi me'yorlari, estetik me'yorlar, etiket me'yorlari kabilar.

Odatiy me'yorlar bu muhrlanib qolgan, ma'lum faoliyat jarayonida ko'p va takroran qo'llanilishi natijasida shakllangan o'zini tutish qoidalaridir. Odatga aylanayotgan u yoki bu me'yor o'zining baholovchilik xarakterini yo'qotadi, uning bajarilishi asosida yotuvchi darajalar esa uning mavjudligi va odatiyligi oldida 2-darajali bo'lib qoladi.

Urf-odat me'yorlari odat me'yorlarining bir qismi bo'lib, bu oilaviy, milliy va shu kabi qoidalarni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan, tarixan rivojlangan va nasldan naslga o'tuvchi umumlashgan qoidalardir.

Diniy me'yorlar — dindorlarning xudoga, machitga, cherkovga, bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarni tashkil qilish va ularga amal qilishini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir.

Siyosiy me'yorlar — qo'lga olish, ushlab turish va ommaviy siyosiy boshqarishni qo'llash bilan siyosiy guruhlardagi munosabatlarni nazorat qiluvchi axloqiy me'yorlardir. Siyosiy me'yorlar xalq va ijtimoiy guruhlarning davlat boshqaruvida, davlat tashkilotlari hamda jamiyatning boshqa siyosiy tizimidagi tashkilotlar bilan munosabatlaridagi ishtirokini nazorat qiladi.


Iqtisodiy me'yorlar — ishlab chiqarish, moddiy boylik taqsimoti va iste'moli bilan bog'liq bo'lgan ommaviy munosabatlarni nazorat qiluvchi axloqiy qoidalar.

Huquqiy me'yorlar (ichki va xalqaro) — barchaga majburiy bo'lgan, maxsus davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan, shakllanadigan, tasdiqlanadigan va davlat tomonidan nazorat qilinadigan shaxslarning o'zini tutish qoidalari. Ular qonunlar, farmoyishlar, ustavlarda e'tirof etiladi va me'yoriy aktlarda aks etadi.

Kooperativ me'yorlar — turli tashkilotlar o'rtasidagi, tashkilot a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni nazorat qiluvchi axloqiy qoidalar.

Axloqiy me'yorlar — jamoatchilikda odamlarning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, majburiyat, g'urur, qadr-qimmat kabi axloqiy tushunchalarga muvofiqlikda o'rnatiluvchi o'dob me'yorlaridir. Axloqiy me'yorlarni buzishdagi sanksiyalar vijdonning qiynalishi va qilgan ishidan afsuslanishi. Lekin jamoatchilik tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlarni buzganlarga ular tomonidan jazo berilishi mumkin. Axloqda me'yor va qarash o'rtasida aniq farq mavjud emas. Bir odam uchun xatti-harakatlar

qoidasi hisoblangan hodisa boshqasi uchun majburiy bo'lmagan, ammo imkoniyat darajasida bajarish mumkin bo'lgan qarashdir. Shunday bo'lsa ham, jamoatchilikka xos axloq qoidalari ham mavjud. U keng tarqalgan va butun jamiyat uchun zarur bo'lgan me'yorlarni o'z ichiga oladi.



Bu eng avvalo odamlarning boshqalarga nisbatan ijtimoiy sifatlarining namoyon bo'lishi — gumanizm, rahm-shafqatlilik, xayrixohlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, adolatlilik me'yorlaridir. Bu me'yorlar o'zida axloqiy qadriyatlarni namoyon etadi va ularning himoyasi jamiyatning ko'p a'zolarini birlashtiradi.

Mustahkamlanish usuliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

Og'zaki — odatlar, urf-odat, axloqiy me'yorlar avloddan avlodga og'zaki (og'izdan-og'izga) o'tib keladi.

Yozma — huquqiy me'yorlar yozma ravishda tasdiqlanganidan va maxsus hujjatlarda (qaror, qonun, farmoyish) bosib chiqarilganidan so'ng o'zining majburiy ko'rinishi va huquqiy himoyasiga ega bo'ladi.

Barcha me'yorlar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi:

- hozirgi davr va muhitga xos tipik me'yor «o'zini tutish» qoidalarining standart (namuna, etalon)ini o'zida namoyon etadi;

- majburiy va imkoniyat darajasidagi o'zini tutish qoidalarining chegarasini belgilaydi, ijtimoiy yoqlangan harakatlarni tashlashda mo'ljal sifatida xizmat qiladi va shu bilan birga shu harakat nazoratining vositasi hisoblanadi;

- insonlarning hayot faoliyati jarayonida shakllanadi va shu ma'noda jamiyatdan ajralmasdir;

- jamoatchilik munosabatlarining tartibi va tashkiliylikini ta'minlash uning yagona maqsadidir.

Ba'zan shaxs kimgadir biror-bir ish yuzasidan shunchaki yordam berishga harakat qiladi, masalan, yangi ko'chib kelgan qo'shniga yangi joyga moslashishda yordam berishi. Bunga bizni jamoatchilik me'yorlarini qabul qilib ulgurgan ichki hissiyotlarimiz majbur qiladi. Me'yor — ijtimoiy kutish sifatida shaxs xulqining me'yorlarini belgilab beradi va unga o'z majburiyatlarini eslatib turadi.

Ijtimoiy sanksiya va uning turlari

Ijtimoiy sanksiya tushunchasi ostida jamiyat uchun ahamiyatga ega vaziyatda shaxsning xatti-harakatlariga nisbatan

ijtimoiy guruh yoki jamoatchilikning munosabati tushuniladi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy sanksiya – bu jamiyatdagi me'yorlarni jamiyat a'zolari tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligiga nisbatan boshqa bir kishilar tomonidan bildiriladigan jazolash yoki rag'batlantirish yo'llaridir. Sanksiyalarni bu ma'noda ijobiy yoki salbiy sanksiyalarga ajratish mumkin. Masalan, ijtimoiy me'yorlar bajarilgan holatda ijobiy sanksiyalar qo'llanilsa, me'yorga amal qilinmaganda salbiy sanksiyalar qo'llaniladi.

Shaxs jamiyatdagi mavjud biror turdagi me'yorni buzganda o'ta qattiq sanksiyalar – davlatdan quvg'in qilish, o'lim jazosi, qamoq jazosi kabilar qo'llaniladi. Sanksiyalarning eng og'iri tabu (axloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy taqiq) va yuridik qonunlarni (masalan: odam o'ldirish, davlat sirlarini sotish) buzishga nisbatan qo'llanilsa, eng yumshog'i – guruhiiy me'yorlarning, shu jumladan oilaviy me'yorlarning (ro'mol o'ramaslik) alohida ko'rinishlarini buzish kiradi. Ammo shunday guruhiiy odat yoki udumlar yoki me'yorlar mavjudki, ular juda qadrlanadi va ularning buzilishiga yoki ularga amal qilmaslikka qarshi ham qattiq choralar, sanksiyalar qo'llaniladi.

Ba'zan bir vaziyatda bir necha ijtimoiy me'yor qoidalari va ularni nazorat qiluvchi sanksiyalar mavjud bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxsning ko'p qirrali, har tomonlama tartibli bo'lib rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Olimlar tomonidan sanksiyaning verbal va noverbal turlari ajratilgan. Bundan tashqari yana to'rt turi ajratilgan bo'lib, ular: pozitiv, negativ, formal, noformal. Ular yana to'rt tipdagi uyg'unlikni namoyon etadi.


Sanksiyalarning mavjudligi kishilarni ijtimoiy me'yorlarga amal qilishga chorlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy me'yorlarga amal qilgan yoki qilmagan shaxs jamiyat a'zolari tomonidan turli xil sanksiyalarga duch kelishini bilgani va anglagani holda mavjud me'yorlarni qabul qilib, ularga amal qiladi.

	Pozitiv (ijobiy)	Negativ (salbiy)
Rasmiy	Rasmiy-pozitiv sanksiyalar (R+) jamoatchilik oldida shaxsning rasmiy tashkilotlar tomonidan rag'batlantirilishi – hukumat sovrinlari, davlat medallari, stipendiyalar.	Rasmiy-negativ sanksiya R – yuridik qonunlar, hukumat qarorlari, buyruq va farmoyishlarida ko'rsatilgan jazolashlar – qamoq jazosi, fuqarolik huquqidan mahrum etish, ishdan bo'shatish, jarima solish, mulkni musodara qilish kabi jazolar.
Norasmiy	<i>Norasmiy-pozitiv sanksiya (N+) – rasmiy tashkilotdan chetda bo'lmagan jamoatchilik oldida rag'batlantirish: kompliment, olqishlash.</i>	<i>Norasmiy-negativ sanksiyalar (N) – rasmiy bosqich va yo'l-yo'riqlar bilan ko'rib chiqilmagan jazolar: tanbeh, ustidan kulish.</i>

Tadqiqotchilar ijtimoiy me'yorlarning buzilishiga nisbatan bee'tiborlik yoki me'yorga amal qilinmaganda sanksiya qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligi holatini o'rganish maqsadida odamlarga so'rovnoma bilan murojaat qilganlar. So'rovnomaga kiritilgan quyidagi savolga nisbatan bildirilgan munosabatlar orqali ma'lum bir vaziyatda jamiyat a'zolari tomonidan sanksiya qanchalik tez-tez qo'llanilishi o'rganilgan. Savol va unga beriladigan javob variantlari quyidagicha: *Siz jamoat transportidasiz. Avtobusga yoshi katta ayol chiqdi. U qo'lida og'ir yuk bilan bir yosh o'smir bolaning oldiga keldi. Bola esa ayolni ko'ra turib unga joy bermadi. Bunday holda Siz:*

- a) e'tibor bermayman (bu holatga aralashmayman);
- b) bolaga o'qrayaman yoki ichimda uni yoqlamay o'tiraveraman;
- d) bolaga tanbeh beraman (so'zlar orqali).

Yoshi, millati va jinsi turlicha bo'lgan 25 ta odamga ushbu so'rovnoma bilan murojaat qilingan. Uning natijalari quyidagi diagramma orqali ko'rsatiladi:



So'rov 12–55 yosh orasidagi shaxslarda o'tkazilgan va bunda «e'tibor bermayman» degan javobni asosan 18–20 yoshdagilar berishgan. Bu natijadan ikki xil xulosa chiqarish mumkin:

1. Bu yoshdagilarning ko'pchiligi ijtimoiy me'yorlardan biri bo'lgan kattalarga joy berish me'yoriga amal qilmaydilar.

2. Bu yoshdagilar ushbu me'yorga amal qilsalar-da, o'z tengdoshlariga tanbeh berishga o'zlarini haqli emas, deb hisoblaydilar.

Zero, bu yoshlar oralig'ida «har kim o'z faoliyati uchun o'zi javobgar, o'ziga o'zi mas'ul» degan qoida mavjud bo'ladi.

Aksariyat katta yoshdagilar me'yorga amal qilmaslikka nisbatan albatta qandaydir verbal yoki noverbal shakldagi sanksiya turini qo'llashini aytganlar.

Ijtimoiy rol tushunchasi va ko'rinishlari

Shaxsning jamiyatdagi xatti-harakatlarini nazorat qilib turishga yordam beruvchi yana bir mexanizm ijtimoiy roldir.

Ijtimoiy rol jamoatchilik munosabatlari tizimida u yoki bu individ egallovchi ma'lum holatning fiksatsiyasidir. Ijtimoiy rol o'zida jamoatchilik munosabatini aks ettiruvchi shaxsning ijt-

moiy faoliyati va xulq-atvorining muhim ko'rinishidir. Ilk marotaba ijtimoiy rol tushunchasi amerikalik sotsiologlar R. Linton va D. Mid tomonidan ilmiy atama sifatida taklif etilgan. Har bir individ bir emas, bir nechta ijtimoiy rollarni bajaradi. Ijtimoiy rol uni bajaruvchi shaxsning har bir harakati va faoliyatini mayda-chuydasigacha belgilab bermaydi, balki bu shaxs o'z rolini qanchalik qabul qilganligiga qarab o'z rolini bekam-u ko'st bajarishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy rolning asosiy tavsiflari amerikalik sotsiolog T. Parsons tomonidan ajratib ko'rsatilgan. Bular masshtab, qabul qilish usuli, emotsionallik, shakllantirish, motivatsiya.

Rolning masshtabi — shaxslararo munosabatlar oralig'iga bog'liq. Masalan, er va xotin roli ular munosabatlarining kengligi yoki torligiga bog'liq.

Rolni qabul qilish usuli — shaxs uchun ushbu rolning qanchalik muhimligiga bog'liq. Kampir, chol, erkak, ayol kabi rollar shaxsning yoshi va jinsi bilan bog'liq ravishda egallanadi va uni egallashda hech qanday murakkablik kuzatilmaydi. Ba'zi rollar esa hayot davomida egallanadi va hatto maxsus choralar orqali egallanadi, bular shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog'liq rollar hisoblanadi.

Ijtimoiy rollar emotsionallik darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Har bir rol uning subyektini namoyon qiluvchi emotsionallikni o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega.

Ijtimoiy rolni shakllantirish ayni rolni bajaruvchining shaxslararo munosabatdagi o'ziga xosligi bilan aniqlanadi. Ba'zi rollar faqat xulq-atvorning qat'iy reglamenti bilan rasmiy munosabat o'rnatishni talab etsa; ba'zilari faqat norasmiy; boshqasi esa o'zida rasmiy va norasmiy munosabatlarni uyg'unlashtirishi mumkin. Masalan, birga ishlaydigan hamkasblar rasmiy munosabatlardan so'ng yaqin munosabatlarda ham bo'lishlari mumkin.

Rollar motivatsiyasi esa shaxsning ehtiyoj va motivlariga bog'liqdir. Turli xil rol o'ziga xos motivatsiya bilan shartlash-

gandir. Ota-onalik roli bolasiga g'amxo'rlik qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, rahbar shu tashkilotning yutug'i uchun qayg'uradi.

Ijtimoiy rollarning turi shaxsning qaysi munosabat va faoliyat turiga taalluqli ekanligiga ko'ra ajratiladi. Jamoatchilik munosabatlariga ko'ra ijtimoiy va shaxslararo ijtimoiy rollar mavjud. Ijtimoiy rollar ijtimoiy maqom, kasb yoki faoliyat turiga bog'liq. Bu shaxsi noaniq bo'lgan standartlashtirilgan rollar uni kim bajarayotganligidan qat'i nazar shu rolning huquq va majburiyatlari asosiga quriladi. Ijtimoiy demografik rollar: er, xotin, o'g'il, qiz va h.k. kirsam, shaxslararo rollarga emotsional darajada boshqariluvchi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan lider, arazlagan shaxs, xafa yoki xursand shaxs kabi rollar kiradi.

Namoyon qilinishiga qarab faol va yashirin rollarga ajratiladi. Faol rol aniq bir vaziyat yoki vaqtda bajariladi, yashirin rol esa dolzarb vaqtda namoyon bo'lmaydi, lekin ushbu jarayonda u mavjud bo'ladi. Bundan tashqari taqdirga bitilgan (ayol, yosh bola, o'zbek) va hayot davomida o'zlashtirilgan (ona, rahbar, o'qituvchi) rollarga bo'linadi.

Ijtimoiy rollar borasida ish olib borgan psixologlar Dj. Mid va T. Shibutanining fikriga ko'ra, ijtimoiy rollar shaxsning aniq bir vaziyatda optimal harakat qilishini ta'minlovchi uzoq vaqt davomida shakllanib kelgan xulq-atvor usullaridir. Har bir rol o'zining huquq va majburiyatlar to'plamiga egadir. Majburiyat — o'z roldan kelib chiqib unga yoqadimi yoki yo'qmi qat'i nazar shaxs bajarishi lozim bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakatlar ketma-ketligi. O'z roliga mos bo'lgan majburiyatini bajarar ekan, har bir shaxs boshqalardan talab qilishi mumkin bo'lgan huquqlarga ham ega. Majburiyatlar hamisha burchlar bilan birgalikda kechadi. Ularning uyg'unligi ijtimoiy rolning me'yorida bajarilishini ta'minlaydi, aksincha holat esa ijtimoiy rolning yaxshi o'zlashtirilmaganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy rolning shaxs shakllanishiga ta'siri

Ijtimoiy rolning shaxs shakllanishiga ta'siri juda katta. Shaxs o'zi bajaradigan rollar tufayli boshqalar bilan munosabatga kiri-

shadi. Shaxsning bajaradigan rollari qanchalik ko'p bo'lsa, uning hayotga va jamiyatga moslashuvi osonroq kechadi. Yangi rolni zimmasiga olish ham shaxsdan katta mas'uliyatni talab etishi bilan birga shaxs ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun psixoterapiyada shaxs xulqini korreksiya qilishga yordam beruvchi imogoterapiya deb nomlanuvchi usul qo'llaniladi. Bu usul **D. Moreno** tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, unga ko'ra patsientga yangi – o'zi istagan, lekin imkoni bo'lmagan rolni bajarish imkoni beriladi. Bu orqali Moreno nevrozlarni davolagan. Har bir rolni o'ziga xos bajarilishida shaxsning xarakteri, temperamenti va shaxsiy xususiyatlari ham katta rol o'ynaydi.

D.A. Leontevning ta'kidlashicha, shaxs ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayonida ikki aspekt mavjud: texnik va fikriy. Talaba o'zining talabalik rolini qabul qilar ekan, uning qanday bajarilishiga e'tibor qaratadi, lekin ba'zi talabalar bu rolni o'ziga qabul qilmaydilar va natijada majburiyatlarini to'liq anglab yetmagan holda bu rolni bajaradilar. Shaxs butun umr yoshi, oilaviy va kasbiy maqomi, shaxslararo munosabatlariga bog'liq holda yangi rollarni o'zlashtirib boradi. O'zlashtirish ba'zida oson, ba'zan esa qiyin kechishi mumkin.

Rollardagi nizolar. Ma'lum bir rolni egallab turgan shaxsdan uning atrofidagi ma'lum bir guruh kutayotgan kutuvlarni amalga oshirilishi jarayonida sodir bo'ladigan to'qnashuv. Ya'ni shaxs bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq rolni bajarishga majbur bo'lganda sodir bo'ladigan holat. Rollar nazariyasida ikki xil to'qnashuv yoki nizo turi ajratiladi: rollararo va rollar ichida kuzatiladigan nizolar. Rollararo to'qnashuv shaxsga bir vaqtning o'zida bir nechta rol bajarish to'g'ri kelganda sodir bo'ladi, chunki bunday vaziyatda u rollarning talablarini bajarish uchun ruhan tayyor bo'lmaydi (17 yoshli qiz kelinlik rolini eplashga zo'rg'a ulgurayotganida ona bo'lishi natijasida bu rollarni birvarakayiga bajarishga ruhan javob bera olmaydi) yoki javob berish uchun vaqt va jismoniy imkoniyatlari yetmaydi. Rollararo nizolarni tushuntirishda amerikalik psixo-

log *U.G. Guda* o'zining «Rollardagi nizolar nazariyasi» asarini chop ettirgan. Bu nazariyada u rollar to'qnashuvi natijasida nizolar yuzaga keladigan zo'riqishlar haqida fikr bildirib, shu zo'riqishlarni bartaraf etish usullarini tavsiflaydi. Muallifning fikriga ko'ra, zo'riqishlardan qutulish uchun shaxs bajarishi lozim bo'lgan rollardan o'zini birmuncha ozod qilishi kerak. Buning uchun qaysi rol uning uchun eng muhim ekanligini ajratib olishi, ma'lum bir rolining bajarilmasligiga nisbatan qo'llaniladigan ijobiy yoki salbiy sanksiyalarga e'tibor berishi, biror rolni bajarmasligiga atrofdagilarning reaksiyasini hisobga olishi kerak.

Rollar ichida kuzatiladigan nizolarni tahlil qilish bir rolning egasiga nisbatan turli xil guruhlarda turlicha talablar qo'yilishi natijasida kelib chiqadi. Bu borada M. Komarovskaya tomonidan Amerikadagi kollejlardan birida talabalar bilan o'tkazilgan tadqiqot klassik xarakterga ega. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, talaba qizlarga nisbatan ularning ota-onalarining kutuvlar bilan shu kollejdagi talaba yigitlarning kutuvlari orasida farq kuzatilgan. Rollar bilan bog'liq nizolar tez-tez sodir bo'lib turuvchi hodisadir. Bu esa shaxslararo munosabatlarning murakkabligi bilan bog'liq. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, rollardagi nizolar shaxslararo o'zaro ta'sir jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ijtimoiy psixologlar rollardagi nizolarni hal etish bilan bog'liq konsepsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishmoqda. Ulardan biri U. Gudaning rollardagi zo'riqishlar nazariyasi bo'lsa, aynan shunday yo'nalishni N. Gross, U. Meysonlarning ham ishlarida ko'rish mumkin. Ular bu boradagi omillarni uch guruhga ajratishadi. Birinchisi, rol ijrochisiga nisbatan subyektiv munosabatlar bilan bog'liq omillar. Ikkinchi guruhga rolning ijro etilganligi yoki etilmaganligiga qarab sanksiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq omillar. Uchinchi guruhga rol ijrochisining oriyentatsiyasini kiritishadi. Bu omillardan qay birini tanlash orqali rollardagi nizoni bartaraf etish rol ijrochisining o'ziga bog'liq.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy me'yor — insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi harakatlar qoidasi.

Ijtimoiy nazorat — ijtimoiy munosabatlarning jonli pardasini saqlaydi va o'zida jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos mexanizmi.

Noijtimoiy (texnik) me'yor — me'yorlar inson va tashqi dunyo, tabiat, texnika vositalari o'rtasidagi munosabatni nazorat qiladi.

Ijtimoiy me'yor — shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tibor etilgan harakatlar talablari hamda tartib va qadriyatlarning himoyachisidir.

Ijtimoiy sanksiya — jamiyat uchun ahamiyatga ega vaziyatda shaxsning xatti-harakatlariga ijtimoiy guruh yoki jamoatchilikning munosabati.

Rol — shaxsning aniq hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi.

Rollardagi nizolar — ma'lum bir rolni egallab turgan shaxsdan uning atrofidagi ma'lum bir guruh kutayotgan kutuvlarni amalga oshirilishi jarayonida sodir bo'ladigan to'qnashuv.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy me'yorlarning kelib chiqish bosqichlariga tavsif.
2. Barcha me'yorlar uchun qanday xususiyatlar umumiy hisoblanadi?
3. Rollardagi nizolarga misol keltiring.
4. Qanday uyg'unlikdagi sanksiyalar mavjud, ularning har biriga misollar keltiring.
5. Udum va marosim me'yorlarining farqli va o'xshash jihatlari ajrating.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ijtimoiy me'yorlarning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi.

2. Ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish va qabul qilishning milliy mentalitetga xos jihatlari.

3. Rollar bilan bog'liq nazariyalarning xorij va rus psixologiyasida o'rganilishi.

TEST

1. Ijtimoiy me'yorlarga xos alomatlarni ko'rsating.

1) umumahamiyatga ega namunalar; 2) guruh yoki jamiyat tomonidan sanksiyalarni qo'llash imkoniyati; 3) subyektiv tomon borligi; 4) o'zaro bog'liqlik; 5) masshtablilik.

a) 1, 2, 3, 5, 4

b) 2, 3, 5, 4, 1

c) 1, 3, 4, 5, 2

d) 1, 2, 3, 4, 5

2. Barcha me'yorlar uchun umumiy xususiyatlar keltirilgan bandni ko'rsating.

1) hozirgi davr va muhitga xos tipik me'yorlar «o'zini tutish» qoidalarining standart (namuna, etalon)ini o'zida namoyon etadi; 2) insonlarning hayot faoliyati jarayonida shakllanadi va shu ma'noda o'zining egasidan ajralmasdir; 3) jamoatchilik munosabatlarining tartibi va tashkiliyligini ta'minlash hisoblangan, o'zining yagona maqsadi ortidan qolmay kuzatadi; 4) majburiy va imkoniyat darajasidagi o'zini tutish qoidalarining chegarasini belgilaydi, ijtimoiy yoqlangan harakatlarni tanlashda mo'ljal sifatida xizmat qiladi va shu bilan birga shu harakat nazoratining vositasi hisoblanadi.

a) 1,3,2,4

b) 2,3,1,4

c) 1,3,4,2

d) 1,2,3,4

3. «Inson – ishlab chiqarish» munosabatini qaysi me'yor nazorat qiladi?

a) noijtimoiy

b) iqtisodiy

- c) texnik
- d) a va d javoblar to'g'ri

4. Ijtimoiy texnik (noijtimoiy) va ijtimoiy me'yorlar nimasiga ko'ra farqlanadi?

- a) nazorat predmetiga ko'ra
- b) nazorat subyektiga ko'ra
- c) sanksiyalariga ko'ra
- d) masshtabliligiga ko'ra

5. Jamoatchilik munosabatlarini nazorat qilish sohasiga ko'ra me'yor turlari to'g'ri ajratilgan bandni ko'rsating.

1) odat; 2) urf-odat; 3) huquqiy; 4) axloqiy me'yorlar; 5) korporativ me'yorlar; 6) siyosiy me'yorlar; 7) diniy tashkilot me'yorlari; 8) talabalar yotoqxonasi me'yorlari; 9) estetik me'yorlar; 10) etiket me'yorlari; 11) o'z-o'zidan kelib chiqqan; 12) odamlarning ongli faoliyati natijasida shakllangan; 13) og'zaki; 14) yozma.

- a) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 13, 14
- b) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12
- c) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10
- d) 11, 12, 13, 14

6. Kelib chiqish usuliga ko'ra me'yor turlari to'g'ri ajratilgan bandni ko'rsating.

1) odat; 2) urf-odat; 3) huquqiy; 4) axloqiy me'yorlar; 5) korporativ me'yorlar; 6) siyosiy me'yorlar; 7) diniy tashkilot me'yorlari; 8) talabalar yotoqxonasi me'yorlari; 9) estetik me'yorlar; 10) etiket me'yorlari; 11) o'z-o'zidan kelib chiqqan; 12) odamlarning ongli faoliyati natijasida shakllangan; 13) og'zaki; 14) yozma.

- a) 1, 2, 7
- b) 7, 11, 12
- c) 11, 12
- d) 13, 14

7. Mustahkamlanish usuliga ko'ra me'yor turlari to'g'ri ajratilgan bandni ko'rsating.

1) odat; 2) urf-odat; 3) huquqiy; 4) axloqiy me'yorlar; 5) korporativ me'yorlar; 6) siyosiy; 7) diniy tashkilot me'yorlari; 8) talabalar yotoqxonasi me'yorlari; 9) estetik me'yorlar; 10) etiket me'yorlari; 11) o'z-o'zidan kelib chiqqan; 12) odamlarning ongli faoliyati natijasida shakllangan; 13) og'zaki; 14) yozma.

- a) 1, 2
- b) 3, 7
- c) 11, 12
- d) 13, 14

8. Sanksiyaning nechta turi mavjud?

- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4

9. Shaxsning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiruvchi tushuncha nima?

- a) rol
- b) me'yor
- c) sanksiya qilish
- d) rollardagi nizo

10. Ijtimoiy rol turlari qanday mezonga ko'ra ajratiladi?

- a) shaxsga taalluqli bo'lgan munosabat turiga ko'ra
- b) shaxsga taalluqli faoliyat turiga ko'ra
- c) shaxsga taalluqli bo'lgan muhitga ko'ra
- d) a va b javoblar to'g'ri

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVI

Ijtimoiylashuv tushunchasi

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadlaridan biri – barkamol avlodni tarbiyalashdir. Barkamol avlod tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan kishilar sifatida psixolog mutaxassislariga bugungi mavzu juda dolzarbdir.

«Ijtimoiylashuv» atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U o'zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) kitobida «ijtimoiylashuv individ tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi.

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada *ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya* deb yuritiladi. Ijtimoiylashuvga oid bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, quyida ulardan bir qanchasining izohi beriladi.

Ijtimoiylashuv (ba'zi adabiyotlarda sotsializatsiya deb berilgan) tushunchasi ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, bu atama shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'siri ostida jamiyatdagi mavjud tajribalarni o'zlashtirishga moyilligi yoki o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosi ostida individ tug'ilib, uni o'rab turgan birlamchi va ikkilamchi muhit ta'sirida ulg'ayishi, undan so'ng jamiyatga qo'shilishi, o'rgangan barcha tajribalarini atrof-muhitdagilar bilan hamkorlik qilish jarayonida qo'llashi va kimlargadir shu tajribalarni uzatishda vosita bo'lishi jarayoni tushuniladi.

Ijtimoiylashuv inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot va faoliyat jarayonida uni faol tarzda qo'llash jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning me'yorlari, talablari, kutishlari va ta'sirini

qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasini o'z navbatida o'zgalarga o'rgata olish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv so'ziga berilgan ta'riflardan eng keng tarqalgani (lot. Socialis – ijtimoiy, jamoaviy) individning jamiyatga kirib borib, undagi hayot uchun zarur bo'ladigan malaka, rollar, me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishidir. Ijtimoiylashuv jarayonida insonlarda jamiyatdagi muloqotning ishtirokchisi bo'lishi uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar shakllanib boradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ijtimoiylashuv terminining yana ikkita sinonimi keng qo'llaniladi: ya'ni bular «shaxs shakllanishi» va «tarbiya» jarayonidir. Ijtimoiylashuv «individning jamiyatga kirib borishi», «ijtimoiy ta'sirlarni o'zlashtirish» hamda «ijtimoiy aloqa jarayonida ulardan foydalanish» kabi tushunchalar orqali ham ifodalanadi.


Ijtimoiylashuv – bu bizning jamiyatga qo'shib yashashimiz va shu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishimizdan iborat bo'lgan jarayondir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat holda kechadi:

Individ ijtimoiy tajribani

- qabul qilishi, singdirishi;
- o'z hayoti, faoliyati, munosabati jarayonida qo'llashi;
- o'zgalarga uzatishi, o'z ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

Ijtimoiylashuvni quyidagi sxema orqali tushunish osonroq kechadi:

Ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayondir, bir tomondan individning jamiyatga kirib borib, undagi malakalarni o'zlashtirish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson faolligi hamda jamiyatdagi faol ishtiroki orqali ijtimoiy aloqalarni o'rnatishdir. Ijtimoiylashuv g'oyasini psixologiya sohasiga kiritgan hamda bu muammoni ijtimoiy psixologik bilimlarni rivojlantirish uchun muammo sifatida olib kirgan olimlar ijtimoiylashuvning aynan shu ikki tomoniga katta e'tibor qaratishgan.



Ijtimoiylashuv jarayonining birinchi tomoni – ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish – bu jamiyatni insonga ta'sir etuvchi tavsifsi, ikkinchi tomoni esa inson faolligi – insonning jamiyatga o'zining faoliyati orqali ta'sir etishidir. Bunda inson faolligi pozitsiyasi – ijtimoiy aloqalarga har qanday ta'sir ma'lum bir qaror qabul qilish va keyinchalik shu qarorni bajarish uchun ma'lum bir faoliyat strategiyasini ishlab chiqish orqali tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv jarayoni shu keltirilgan tushuntirishlar orqali shaxsni shakllanish jarayoniga qarshi chiqmaydi, lekin bu muammoga turli tomondan yondashishni talab qiladi. G.M.Andreyevaning fikriga ko'ra, «Yosh psixologiyasi uchun bu muammo «shaxs» mavzusiga taalluqli bo'lsa, ijtimoiy psixologiya uchun «shaxsning jamiyatga ta'siri» tomonidan qiziqroq hisoblanadi».

Shu o'rinda ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib o'tishni lozim topdik. Bular: Biologik kontekst va Madaniy kontekst.

Biologik kontekst. Insonlarga ko'zni yumib-ochish, ushlash, so'rish kabi genetik reflekslar xos bo'lsa-da, ularning genida o'zini tutishning qiyin modellari programmalashtirilmagan bo'ladi. Ular kiyinish, ovqatlanish, uy-joy qilish kabi ko'nikmalarni o'rganishlari, yashash uchun kerakli ko'nikma, malakalarni sekin-astalik bilan o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. Hayotining dastlabki yilida bola butkul kattalarning diqqat-e'tibori ostida bo'ladi va asta-sekin boshqa jonzotlarga xos bo'lmagan, ular o'zlashtira olishi qiyin bo'ladigan ko'nikmalarni o'zlashtirib olishadi (masalan, gapirish).

Madaniy kontekst. Har bir jamiyat boshqalardan ustun bo'lgan ma'lum bir shaxs sifatlarini qadrlaydi va bolalar ijtimoiylashuv jarayonida bu sifatlarini o'zlashtirib olishadi. Insondagi aynan qaysi sifatlar ko'proq qadrlansa, ijtimoiylashuv usullari shunga bog'liq bo'ladi, ular turli madaniyatlarda turlicha bo'ladi. Masalan, Amerikada o'ziga ishonish, o'zini boshqara olish va agressivlik kabilar qadrlansa, Hindistonda uning aksi, passivlik va mistitsizm qadrlanadi. Shuning uchun amerikaliklar buyuk sportsmenlar, astronomlarga hurmat bilan qarashadi. Hindlar esa, zo'ravonlikka qarshi harakat qiladigan dindorlar va siyosat arboblari (masalan, Maxatma Gandi)ga hurmat bilan qarashadi. Bu madaniy qadriyatlar ijtimoiy me'yorlar asosida yuzaga keladi. Tarkibida bir xillik mavjud bo'lmaganligi tufayli, ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayondir. Biologik omillar hamda madaniy omillarning, shuningdek, ijtimoiylashayotgan hamda ijtimoiylashmoqchi bo'lgan odamlar o'rtasida bir-biriga ta'sir etish jarayoni ro'y beradi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi uning bilishga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda shaxsda boshqa bir obyektiv ehtiyoj — o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi ham shakllanadi. Shaxs uni yuzaga chiqarish uchun turli usul hamda vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarz-

da namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashtirish (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib, ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashtirish jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashtirish) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish subyekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuvi jarayoni va natijasidir (J. Piaje, R. Merton).

Ijtimoiylashuv borasidagi nazariyalar

Ijtimoiylashuv jarayonini turli psixologik ilmiy maktablar turlicha tahlil qilganlar:

1) neobixeviorizm namoyandalari ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy o'rganishdir;

2) interaksionizm vakillari ijtimoiy o'zaro ta'sirlar natijasi;

3) gumanistik psixologiya vakillari esa «Men» konsepsiyasining namoyon bo'lishi deb ta'riflaganlar. Ijtimoiylashuv serqirra jarayon bo'lib, yuqorida psixologiyaning ilmiy maktablari namoyandalari tomonidan keltirilgan fikrlar uning faqatgina bir tomonigagina asosiy urg'u beradilar. Hozirgi kunda jahon psixologlari ijtimoiylashuv muammosini ijtimoiy xulq-atvorni boshqarishning dispozitsion konsepsiyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga harakat qilmoqdalar. Bu konsepsiya shaxslararo munosabatlarga kirisha olish darajasiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy xulq-atvorni boshqarish tizimini tahlil qiluvchi dispozitsiyalar ierarxiyasini o'z ichiga qamrab oladi.

U ijtimoiylashuv mexanizmlariga quyidagilarni kiritadi: adaptatsiya; identifikatsiya; ishontirish; taqlid qilish.

Adaptatsiya – shaxsning o'z ichki xususiyatlarini o'zi yashayotgan muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi.

**Shaxsning ijtimoiylashuvi borasida ish olib borgan olimlardan biri
E. Frommdir**



Identifikatsiya – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xulq-atvorini, qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini o'zida qayta tiklashi (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Taqlid qilish – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xatti-harakati, yurish-turishi, gapirishini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Ishonish – individ tomonidan ongli va ongsiz holatda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari, dunyo-qarashlarini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiylashuv mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Fransuz olimi Gabriel Tard, amerikalik Uri Bronfentener, rus olimlaridan V.S. Muxina va A.V. Petrovskiy-larning tadqiqotlarida ijtimoiylashuv mexanizmlariga turlicha yondashuvlar keltirilgan.

I.P. Podlosiyning ta'rifi bo'yicha, ijtimoiylashuv mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Bostirish mexanizmi. Uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish-istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir.

Ajratish mexanizmi. Bu ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. U odatda nizolarni hal qilish kuzatiladi.

O'z-o'zini cheklash mexanizmi – agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stinikiga nisbatan ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'ziga nisbatan hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu esa uning o'z «Men»ini cheklab qo'yishi va qiyinchiliklar oldida ojiz qolishi demakdir.

Loyihalash mexanizmini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash tashkil qiladi.

Ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri **identifikatsiyadir**. Identifikatsiya jarayonida shaxs xayolan o'zini boshqalar bilan qiyoslaydi. Ijtimoiy, jinsiy rollarni, qadriyatlarni, an'analarni o'zlashtiradi, ularni o'zaro taqqoslaydi, fikr yuritadi.

Shunday qilib, shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida ijtimoiy agentlar, ijtimoiylashuv mexanizmlarining ta'siri muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiylashtiruvchi maskanlar va oilaning ijtimoiylashuvdagi o'rni

Har qanday shaxs ijtimoiy muhitda yashar ekan o'sha ijtimoiy muhit uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi va maskan vazifasini bajaruvchi bir qancha muassasalarga ega bo'ladi. Shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazuvchi atrof-muhitni birlamchi va ikkilamchi ijtimoiylashuv maskanlariga ajratish mumkin. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o'chog'i, fan tilida aytilganda ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek muhitida mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalari ham birlamchi ijtimoiylashuv maskani sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlariga esa mehnat jamoalari, OAV, turli xil jamoatchilik tashkilotlari,

din kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, mehribonlik uylari, maxsus internatlar, harbiy bilim yurtlarida nisbatan uzoq vaqt mobaynida bolalarning tarbiyalanishini, o'sha yerning me'yorlari, qadriyatlari va talablari ta'sirida uning dunyoqarashi shakllanishini, o'sha yerdagi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi hisobga olinsa, bu maskanlar ham ijtimoiylashuv maskanlari sifatida tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

Oila – bu maskanning ahamiyatini anglash uchun «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqolni tahlil qilishning o'zi kifoya. Ya'ni har qanday bola o'z oilasida o'zlashtirgan tajribalaridan hayoti davomida foydalanadi va uni keyinchalik o'z farzandlariga ham o'rgatadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti shu jamiyatdagi sog'lom oila muhitiga bog'liqdir. Sog'lom oila muhitida sog'lom avlodlar tarbiyalanadi va kamol topadi. Ma'lumki, dunyoga kelgan go'dakning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Aynan shu maskan quchog'ida bola ijtimoiy muhitga moslashib, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shular asosida ijtimoiy hayotga kirib boradi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi. Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini o'rganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqotda bo'lishining usul va shakllarini o'rganib boradi.

Aynan oila bag'rida bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni oladi. Oila a'zolarining munosabatlari misolida u boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadi, xulq-atvori va munosabatlar shakllarini tushunib boradi va bu tushunchalari uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qoladi. Ota-onaning farzandini noto'g'ri xatti-harakatiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog'at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlari-ga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada axloq-odob me'yorlariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi *A. Antonov*ning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday me'yortiv va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy me'yorlar, xulq andozalarini egallaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning me'yortiv ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va me'yorlar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki litseyda o'qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo'lib, bolalar jamiyatida hamisha o'zining o'rniga ega bo'la oladi. Bunday farzandga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib yetishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning Vatanimizda qadrlanib, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. *A. Antonov*ning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush

tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti. Bundan tashqari, G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda aksariyat ayollarda onalik ustanovkalarining yo'qligi, bola tarbiyalash xohishining yo'qligi, qo'ydi-chiqdining bermalol amalga oshirilishi, rasman FHDY bo'limlarida nikohni qayd etmay yashash (fuqarolik nikohi), ajrimlardan keyingi erkak va ayolning o'zaro yomon munosabatlari bolalarning ijtimoiylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday er-xotinlarning farzandlari bir tomondan umuman oila institutiga va nikohga nisbatan salbiy qarashlarga ega bo'lib, voyaga yetsalar, ikkinchi tomondan, ularning xarakterida asosan xudbinlik, agressivlik kabi salbiy sifatlar shakllanmoqda. Demak, jamiyatda o'z davriga munosib, sog'lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishning muhim omili bu rasmiy nikohda bo'lgan er-xotinlar oilasining bahamjihatlikda yashashlaridir.

Shaxs ijtimoiylashuvi muammosining milliy asoslari o'zbek psixologi, professor V. Karimova tomonidan juda chuqur tahlil etilgan bo'lib, unga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota-ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Bizning kuzatishlarimiz shuni isbotlaydiki, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni ota-onaning o'zaro tinch-totuv yashashi, ular orasida me'yoriy, insoniy munosabatlar va sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning nafaqat jismoniy jihatdan salomatligini, balki ma'naviy va ruhiy jihatdan ham barkamol bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. Bola uchun oilada ham ota, ham onaning bo'lishi zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va unug oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan

munosabatiga qarab, o'zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo'lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o'g'il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurishi mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo'lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o'zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o'rtog'iga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo'lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining yetakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma'noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo'lishi uchun oila muhiti sog'lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g'amxo'r, mehrlil va sadoqatli bo'lishlari o'ta muhimdir.

Har bir shaxs oilaning jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini, qadr-qimmatini anglamasdan, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, Vatan tuyg'usini tom ma'noda his qila olmaydi. Bu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishishi orqali amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, shaxsning barkamolligi har bir shaxs ongida oilaning muqaddasligi, Vatanning aslida oiladan boshlanishi, shu bois uni sevish va nikohni muqaddas bilish zarurligini, oilaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va funksiyalarini tushuntirish orqali ro'y berishi inobatga olinadi.

Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan biri tarbiyalovchi funktsiya ekanligini doimo e'tirof etadilar.

Lekin ayrim oilalarda er va xotin o'rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo'qligi, tashqi tomondan nomiga oila qurganliklari, ma'nan esa bir-birlariga nisbatan begonaday bo'lib qolganliklari bois bu yerda o'zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo'lib boradi. Tabiiy, bunday munosabatlar nafaqat ularning o'ziga, balki ularni o'rab turgan boshqa qarindoshlar, ayniqsa, farzandlarga faqat salbiy ta'sir etadi, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga to'g'anoq bo'lishi ham mumkin. «Ko'cha bolalari», «tarbiyasi og'ir bolalar», voyaga yetmay turib jinoyatga qo'l urgan o'smirlar aksariyat holatlarda aynan shunday oilaviy muhitning qurbonlari hisoblanadi.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni insonlarga nafi tegadigan darajada yetuk qilib tarbiyalash uchun ham ilm shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun bu fikrlarning naqadar to'g'riligi va ayniqsa, ayol kishi uchun savodlilik va ilmning zarurati to'g'risida o'z vaqtida o'rta asrning ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Abdibek Sheroziy shunday yozgan edi: «Ilm — ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi».

Bobolar va momolar o'zbek oilasida shaxsni tarbiyalashda bevosita ishtirok etadilar. Azaliy turkiy udumga binoan ota-onadan ham ko'ra bobo-buvilarning tarbiyaviy ta'siri kuchliroq bo'ladi. Masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug' bibilari-buvilari shug'ullanishini lozim topgan. Shunga ko'ra, Saroy-Mulk xonim Shohruh Mirzoni, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolar tarbiyasini o'z bo'yniga olgan.

Shuning uchun ham yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezi-

larli, hukumat bola tarbiyasida ota-onalar mas'uliyatini oshirish uchun har yili xayrli tadbirlar ishlab chiqmoqda.

Mahalla — boshqa millatlarga nisbatan bizda mahalla bolaning ijtimoiylashuviga juda katta hissa qo'sha oluvchi maskandir. Mahallaning bolasi biror nojo'ya ish qilayotganini ko'rgan shu mahallaning har bir a'zosi unga tanbeh berib noto'g'ri tarbiyaning oldini olishga harakat qiladi.

Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi-ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kekin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha-eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash me'yorlar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Ijtimoiylashuvda jamiyatdagi tashkilotlarning roli

O'quv muassasalari — bog'cha, maktab, litsey va kollejlari, oliy o'quv yurtlari — bu muassasalarning har biri individning ijtimoiylashuvida katta o'rin egallaydi. Bola bog'chadan to oliy o'quv yurtini tugatguncha bo'lgan davrda juda katta ijtimoiy tajribani egallaydi va keyingi faoliyatida albatta bulardan foydalanadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvida oila va mahalladan so'ng ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskanlardan biri — maktabgacha ta'lim muassasalaridir. Ularning bu jarayonda o'ziga xos ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo'ladi va ular

maktab ma'muriyatidan farqli ikki xil funksiyani bajaradi: rasmiy va norasmiy. Ya'ni tarbiyachi ota-ona bilan faqat tarbiyachi sifatida gaplashish yoki yaqin munosabatlarda bo'lishi ham mumkin. Ota-ona va tarbiyachi munosabatlari qanday bo'lishidan qat'i nazar maqsad bolaning ijtimoiylashuvi uchun ijobiy yordam berishdan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun bir qator psixologik tamoyillar mavjud:

Tarbiyachi va ota-ona bir-biriga bolaning faqat yaxshi tomonlarini ko'rsatibgina qolmasdan, uning xulqiga xos bo'lgan salbiy ko'rinishlarni ham yotig'i bilan aytishdan cho'chimasligi lozim. Har ikkala tomon ham bolaning ijobiy xulqini maqtab, salbiyini tuzatish uchun birgalikda choralar ko'rish maqsadga muvofiqdir. Bunda bolaning erishgan yutuqlarini maqtash, boshini silash, quchish, olqishli so'zlar bilan qo'llab-quvvatlash yaxshi samara berishi bilan birga, uni kamsitish, tahqirlash, ustidan kulish, so'kish, urish, kaltaklash kabi vositalarni qo'llash umuman mumkin emasligini unutmaslik kerak. Shuningdek, bolaning o'rtoqlariga ham uning kamchiliklarini aytib ustidan kulishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Shundagina bola bog'chadan uyga va uydan bog'chaga yaxshi kayfiyat bilan yo'l oladi.

Ijtimoiylashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun yuqorida ta'kidlanganlarni hisobga olish har ikkala taraf uchun ham ijobiy yutuqlarni olib keladi.

Maktabdan boshlab ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bu joyda ijtimoiylashuv ikki xil yo'nalishda kechadi: birinchisi, o'quv muassasasida o'qiyotgan fanlaridan olgan bilimlari orqali ijtimoiylashadi, ikkinchisi, bola o'ziga darsga kirayotgan o'qituvchining xatti-harakati, xulq-atvoriga qarab ijtimoiylashadi. Bu jarayonda eng asosiysi tarbiyachi, pedagog, o'qituvchining o'zini tutishi, kiyinishi, muloqot madaniyati, o'z hissiyotlarini boshqara olish qobiliyati kabilar bolaning ijtimoiylashuviga o'ziga xos holatda ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun o'qituvchilarda faqat bilim berish emas, balki tarbiyalashning ham talab etilishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi o'qituvchilar

o'z vazifalarini faqatgina bilim berishdangina iborat deb hisoblashi noto'g'ri, albatta. Bundan tashqari bo'laning dars va darsdan tashqarida amalga oshirayotgan xatti-harakatlari yoki xulq-atvoriga nisbatan o'qituvchining e'tibor berishi yoki e'tiborsizligi ham uning ijtimoiylashuvida o'ziga xos o'rin egallaydi. Talabalar guruhida bilimi kuchli bo'lsa-da talabalarga e'tiborsiz bo'lgan, ularning tarbiya jarayoniga aralashmaydigan o'qituvchilarga talabalar ham befarq munosabatda bo'ladilar. Shu nuqtayi nazardan talabalar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi ular tomonidan tan olinadi, aks holda o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi.

Bundan tashqari oliy o'quv yurtida talabaning ijtimoiylashuvida uning guruhi ham ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda har bir guruhning o'ziga xos psixologik iqlimi mavjud bo'lib, bu iqlimning talaba tomonidan ijobiy yoki salbiy deb qabul qilinishi, guruhdagi mavjud me'yorlarning talaba tomonidan qabul qilinishi yoki qilinmasligi, guruhiy dinamikaning o'ziga xos jihatlari kabilar uning ijtimoiylashuvida asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mehnat jamoalari ham shaxs ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega. Bu jamoaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, shaxs bu jamoaga ancha aqli pishib, ma'lum tajribaga ega bo'lib, hayot haqidagi tasavvurlari shakllanib qolgan paytda keladi, qolaversa, o'quv yurtida egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy me'yorlar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Din — bolaning ijtimoiylashuvida jamiyatdagi diniy erkinlikning ham o'rnini o'ziga xosdir. Bola mansub bo'lgan jamiyat va oilada dinning ijobiy jihatlaridan uning tarbiyasi yo'lida foydalanish yaxshi foyda beradi. Bolaning vatanparvar, insonparvar, mehribon, madaniyatli, to'g'riso'z, vijdonli bo'lib ijtimoiylashuvi uchun dinning roli kattadir.

OAV — ayni paytda bu sohaning shaxs ijtimoiylashuviga ko'rsatayotgan ta'siri juda katta ekanligi barchaga ma'lum. Ko'rsatilayotgan, eshittirilayotgan, yozilayotgan barcha ma'lumotlar kishilar ongiga juda tez va unumli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida **jamoat tashkilotlari** alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo'yishi natijasida shaxsda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi. Bunda inson sifatida jamiyat oldida o'z burchini uddalay olish, jamiyatning turli sohalarida o'zligini namoyon qilish va jamiyatdan qanoatlanish tuyg'ularining kechishi bilan xarakterlanadi. Jamoatchilik tashkilotlaridagi ijtimoiy faoliyatda, jamoat ishlari-da shaxs o'z xususiyatlarini namoyon etib boshqalarning ham ijtimoiylashuviga ko'maklashadi.

Albatta, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u yerlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (machitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializatsiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o'zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo'lib qolishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda, ijtimoiy faol bo'lgan va bolaning ijtimoiylashuvi uchun javobgar bo'lgan kishilar ko'pincha bolalarning aqlli, farosatli, qobiliyatli, bilimli bo'lib yetishishlari uchun

jon kuydiradilar, uning bilimi va jismoniy quvvatini oshirishga ko'proq e'tibor qaratadilar, lekin bolaning irodasini mustahkamlashni bee'tibor qoldiradilar. Buning oqibatida bola turmush so'qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib ulg'ayadi. Shuning uchun ham ijtimoiylashuv maskanlarining barchasida mas'ullar bolaning ijtimoiy bilimdonligi bilan birga uning ijtimoiy ko'nikmalarini oshirishga ham harakat qilishlari kerak.

Shaxs ijtimoiylashuvining sohalari

Umumiy psixologiyada qabul qilingan tezisdan kelib chiqqan holda gapiriladigan bo'lsa, inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki shaxs bo'lib shakllanadi. Ijtimoiylashuvning tuzilishiga ko'ra, shaxs shakllanish jarayoni inson tug'ilgan daqiqadan boshlanadi. G.M.Andreyeva o'zining «Ijtimoiy psixologiya» kitobida shaxs shakllanishining uchta soha orqali amalga oshirilishini aytib o'tadi:

1. *Faoliyat sohasi*, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar sohasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi faolligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi.

2. *Muloqot sohasi*, ayniqsa maktabga ham yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot tizimlari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3. *O'z-o'zini anglash sohasi*. Ijtimoiylashuvning yana bir sohasi o'z-o'zini anglash sohasidir. Umumiy qilib aytganda, ijtimoiylashuv jarayoni odamdagi «Men» obrazining shakllanganligidan dalolat beradi (I.S.Kon, 1978). Ko'p tadqiqotlarda, qayd etilishicha, shaxsdagi «Men» obrazi birdaniga shakllanmaydi, balki

uning shakllanishi butun hayot davomida ko'p sonli ijtimoiy ta'sirlar ostida kechadi.

O'z «Men»ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloq paytidanoq boshlanadigan va uzoq davom etadigan jarayondir, shuning natijasida individ shaxs sifatida shakllanib, ijtimoiylashib boradi.

Ijtimoiylashuv sohalaridan biri bo'lmish o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni «Men» obrazi yil sayin o'zgarib boruvchi jarayon bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini angelaydi, so'ngra o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadi.

A.V. Petrovskiyning fikricha, ijtimoiy-psixologik munosabatlar shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida yosh davrlarini inobatga olgan holda amalga oshadi. Petrovskiy shaxs xarakteri va tarbiyasini rivojlantirishda ahamiyatga ega bo'lgan 3 asosiy makrofazani ajratib ko'rsatadi:

1. Bolalik davri.
2. O'smirlik davri.
3. Yoshlik (o'spirinlik) davri.

Bolalik davrida individning adaptatsiyalashuv jarayoni amalga oshadi, bunda ma'lum me'yorlarni egallash bilan jamiyatga ijtimoiylashuv, ya'ni ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yuz beradi (masalan: 2 yoshli bolaga choynakdagi choyning issiqligini o'rgatish).

O'smirlik davri individualizatsiya, ya'ni inson o'z ehtiyojlarini, shaxsiy turmushi (hayoti)dagi talablarini anglashi bilan ifodalalanadi (masalan: mehrga nisbatan ehtiyojning kuchayishi va bu ehtiyojning yetarlicha qondirilmasligi).

Yoshlik (o'spirinlik) davri jamiyatga qo'shilish (integratsiya) jarayoni bo'lib, bu jarayonda shaxsda muayyan xislatlar va xususiyatlar vujudga keladi, shu bilan birga, bu davrdagi shaxsiy va guruhij ijtimoiylashuv jarayoniga zarurat va ehtiyoj ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Inson o'zgaruvchan ijtimoiy atrof-muhitda yashaydi, shundan kelib chiqib uning zimmasiga faoliyat va munosabatlarning yangi

ko'rinishlari qo'shilaveradi, yangi ijtimoiy rollarni bajarib boshishga majbur bo'ladi. Demak, individ o'z hayoti davomida yangi ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirib boradi, bir vaqtning o'zida dunyoqarashidan kelib chiqqan holda unda boshqacha ijtimoiy munosabatlar ham yuzaga keladi.

Shaxs ijtimoiylashuvi bosqichlari

Shaxs ijtimoiylashuvining quyidagi bosqichlari mavjud:

Rus sotsiologi N. Andreyenkova ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning **birinchi bosqichi** – individning ijtimoiy mavjudod sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu bosqichda quyidagilar amalga oshadi:

- *ilk ijtimoiylashuv (bolalik davri);*
- *me'yortiv xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);*
- *ijtimoiylashuv oqibatlarining yaxlit namoyon bo'lishi (o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga oladi).*

Ikkinchi bosqich – shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra nafaqa yoshiga yetgan inson sifatida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko'proq yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog'liq bo'lsa, uning keyingi bosqichlarida ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi. Shunga mos ravishda ijtimoiylashuv usullari ham turlicha bo'ladi.

Ijtimoiylashuv bosqichlari haqida F. Akromova quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

Birinchi bosqich – mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol

ravishda onga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi. *Ikkinchi bosqich* — mehnat faoliyati davri — bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda namoyon etadi. Bu davrda kasbga ega bo'lish, aniq hayot yo'lini tanlash, turmush qurish, kelgusi avlodni tarbiyalash kabi shaxsning barcha ijtimoiy fazilatlari shu davrda shakllanadi. Nihoyat, *uchinchi bosqich* — mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan mehnat faoliyatidan so'nggi qariqlik gashtini surayotganlar kiradilar. Bu davrda ham shaxs ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs tuzilishida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi. Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o'ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malaka, hayotiy tajribasi bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, amalda yoshlarga shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota-bobolarimiz asosan o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq xalqlarida juda e'zozlanadi. Xalqimizdagi «qari bilganni pari bilmas» degan naql ham bobolar va momolar o'gitlarining tarbiyalovchi mohiyatini aks ettiradi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e'zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila tarbiyaning bosh o'chog'i sifatida davlat himoyasida bo'lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlik burchining rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiylashuv — bizning jamiyatga qo'shilib yashashimiz va shu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishimizdan iborat bo'lgan jarayon.

Ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish – jamiyatning insonga ta'sir etishi, ijtimoiy tajribani qabul qilish va o'zlashtirish.

Adaptatsiya – shaxsning o'z ichki xususiyatlarini o'zi yashayotgan muhitni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi.

Identifikatsiya – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xulq-atvorini, qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini o'zida qayta tiklashi (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Taqlid qilish – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xatti-harakati, yurish-turishi, gapirishini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Ishonish – individ tomonidan ongli va ongsiz holatda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari, dunyo-qarashlarini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiylashuv tushunchasini izohlang.
2. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi necha yo'nalishda olib boriladi?
3. Ijtimoiylashuv mexanizmlari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida oila institutining ahamiyatini izohlang.
5. Ijtimoiylashuv jarayonining sohalari va bosqichlarini aytib bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Petrovskiyning shaxs xarakteri va tarbiyasini rivojlantirish haqidagi konsepsiyasi mohiyati.
2. Shaxs ijtimoiylashuvida televideniyaning roli.
3. Shaxsning ijtimoiylashuvida mahallaning o'ziga xosligi.
4. Din shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida.

TEST

1. Ijtimoiylashuv atamasini birinchi bo'lib qo'llagan olimni toping.

- a) E. Fromm
- b) F.G. Keddings
- c) A. Antonov
- d) G. Andreyeva

2. «Ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy o'rganishdir» degan fikr psixologiyaning qaysi ilmiy maktabi tomonidan ilgari surilgan?

- a) neobixeviorizm namoyandalari
- b) interaksionizm vakillari
- c) gumanistik psixologiya vakillari
- d) geshtalt psixologiya vakillari tomonidan

3. Ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) ijtimoiylashuv mexanizmlari
- b) adaptatsiya va identifikatsiya
- c) biologik va madaniy kontekst
- d) oila va din

4. Adaptatsiya – bu...

a) shaxsning o'z ichki xususiyatlarini o'zi yashayotgan muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi

b) individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xulq-atvorini, qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini o'zida qayta tiklashi (o'ziniki qilib o'zlashtirish)

c) individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xatti-harakati, yurish-turishi, gapirishini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish)

d) individ tomonidan ongli va ongsiz holatda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari, dunyoqarashlarini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish)

5. O'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash nima deb ataladi?

- a) loyihalash mexanizmi
- b) identifikatsiya
- c) o'z-o'zini cheklash mexanizmi
- d) bostirish mexanizmi

6. Ijtimoiylashuvning tuzilishiga ko'ra, shaxs shakllanish jarayoni ... boshlanadi.

- a) 2–3 yoshdan
- b) shaxs tug'ilgan daqiqadan
- c) bola maktabga borgach
- d) 4–5 yoshdan

7. I.P.Podlosiy ta'rifi bo'yicha, ijtimoiylashuv mexanizmlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) adaptatsiya, taqlid qilish va bostirish mexanizmi
- b) ajratish mexanizmi, bostirish mexanizmi va adaptatsiya
- c) o'z-ozini cheklash mexanizmi, taqlid qilish va loyihalash
- d) o'z-o'zini cheklash, loyihalash va bostirish mexanizmlari

8. G.M.Andreyevaning fikriga ko'ra shaxs shakllanishi qaysi sohalarda amalga oshadi?

- a) o'yin, faoliyat, muloqot
- b) faoliyat, muloqot, o'z-o'zini anglash
- c) ta'lim, muloqot, faoliyat
- d) muloqot, faoliyat va tarbiya

9. Rus sotsiologi N.Andreyenkova fikriga ko'ra ijtimoiylashuv jarayoni necha bosqichdan iborat?

- a) 3
- b) 4
- c) 2
- d) 5

10. Inson faolligi – bu ...

- a) insonning jamiyatga o'z faoliyati orqali ta'sir etuvchi tavsifsi
- b) jamiyatning insonga ta'sir etuvchi tavsifsi
- c) ijtimoiy tajribani qabul qilishi, singdirishi
- d) o'z xatti-harakatlarini boshqara olishi

SHAXSNING IJTIMOIIY USTANOVKALARI

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi

Psixologiya fanida shaxsning xulq-atvori va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllari orasidagi bog'liqlik muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka borasidagi muammolarga tegishlidir. Ustanovka inglizcha set so'zidan olingan bo'lib, ko'rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nolarida qo'llanib kelinadi. Ustanovkalar dunyoni bilishning samarali usulidir. Bizda biror-bir voqea-hodisa yoki shaxsga nisbatan ma'lum bir munosabat mavjud bo'lsa, bu munosabat bizning his-tuyg'ularimiz va harakatlarimizda ifodalanishi bizning ustanovkalarimiz bilan bog'liqdir. Masalan, bizda biror-bir millat yoki xalqqa tegishli bo'lgan ma'lumotlar asosida ularni dangasa, tajovuzkor degan tasavvur mavjud bo'lsa, o'sha xalqning istalgan vakilini ko'rganimizda unga nisbatan bizda salbiy his-tuyg'u paydo bo'ladi va bu harakatlarimizda ham aks etadi. Ba'zi jamoa, guruh va oilalarda ustanovkaga asoslanish, ishonish ba'zi noxush oqibatlariga olib keladi. Demak, ustanovka – insonning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda his-tuyg'ularini namoyon qilishi yoki o'zi bilmagan holda harakat qilishidir, desak bo'ladimi? Bu savolga ustanovkalar haqidagi ilmiy ma'lumotlarni bilish asosida javob berishga harakat qilamiz.

Bir qarashda «ustanovka» va «ijtimoiy ustanovka» tushunchasi bir-biriga juda yaqin va o'xshash. Ayniqsa, shaxs, faoliyat, yo'nalish, tayyorgarlik, munosabat tushunchalari ikkala tushuncha uchun ham birday ahamiyat kasb etadi, qolaversa, ularni bir-biridan ajratgan holda ta'riflash ham juda mushkul. Lekin fanda aniqlik va har bir sohaning ilmiy yo'nalishi nuqtayi nazaridan, shuningdek, ustanovka muammosining umumiy psixologiyadagi va ijtimoiy psixologiyada tutgan o'rni va o'ziga xos vazifalarini belgilash maqsadida «ustanovka» va «ijtimoiy ustanovka» tushunchalari shartli ravishda qabul qilingan. Balki, bu ustanov-

ka muammosini yanada chuqurroq, yanada mukammalroq o'rganishga xizmat qiladi.

Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Ba'zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi. Ustanovka — insonning o'zi bilmagan holda yon-atrofida-gi insonlar va voqelikni baholashi va ularga nisbatan munosabat bildirishidir. Ustanovka bu faoliyatga mustaqil tayyorlikdir. Ustanovka — insonning ichki o'ziga xos tuyg'ularini namoyon etishga ruhan tayyorlik holatidir.

Ustanovka uzoq vaqt davomida shakllanadi va u insonning qadr-qimmati bilan uzviy bog'liqdir. «Moyillik», «yo'nalganlik», «tayyorlik» kabi mazmuni anglatuvchi, bir-biriga o'xshovchi «ustanovka» va «ijtimoiy ustanovka» tushunchalarini bir-biridan farqlash lozimligi ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan.

Umumiy psixologiyada ustanovka tushunchasi ostida subyektning ma'lum bir faoliyatga nisbatan tayyorligi tushuniladi. Va bu ikki xil omilga bog'liqligi ta'kidlanadi: birinchisi, subyektning ehtiyojlari bo'lsa, ikkinchisi obyektiv vaziyatga mos kelishidir. Biz psixologiya sohasidagi barcha muammolarni ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan qarayotganligimiz bois ustanovkalarni emas, balki ijtimoiy ustanovkalarni o'rganishga doir ma'lumotlarni tahlil qilamiz.

Ijtimoiy psixologiyada esa shaxsning asosiy ijtimoiy-psixologik tavsiflaridan biri uning ijtimoiy ustanovkalari hisoblanadi. Ijtimoiy ustanovka (ingl. social attitude) — insonning boshqa kishilarga, ijtimoiy guruhlariga, tashkilotlarga, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga, voqea-hodisalarga bo'lgan barqaror munosabatdir. Barcha mutaxassislar bir fikrga kelishganki, ijtimoiy ustanovka-

larni o'rganish shaxsni tushunishga bo'lgan ijtimoiy psixologik yondashuvdir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'rganishdagi uch bosqich

Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy ustanovkalarning o'rganilishi uch bosqichli jarayonni boshidan kechirgan. Birinchi bosqich — XX asrning boshlariga tegishli bo'lib, bu davrda fanga ijtimoiy ustanovka tushunchasi kiritildi hamda olimlar ijtimoiy ustanovkalarning mazmunini tushunish uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlarni boshlab yuborishdi.

Bir-biriga ma'nodosh bo'lgan ustanovka va attityud, bir vaqtning o'zida ham bir xil, ham boshqa-boshqa xil ma'no va tushunchalarni anglatishi olimlarni bir qancha chalkashliklarga olib kelgan edi. Lekin amerikalik sotsiologlar U. Tomas va F. Znanetskiylarning «Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada» deb nomlangan taniqli asari nashr (1918–1920-yillar) qilingandan boshlab, attityud kategoriyasiga ijtimoiy psixologiyaning asosiy komponenti va shaxsning tavsifi sifatida qaray boshlandi. Shuning uchun «Ijtimoiy ustanovka» tushunchasining fanga kiritilishi amerikalik sotsiologlar U. Tomas va F. Znanetskiylarning yuqorida qayd etilgan asari bilan bog'liq, deb hisoblaniladi. Asarda Amerikaga muhojir bo'lib borgan polshalik dehqonlarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan ularning munosabatiga bog'liq ekanligiga oid mulohazalar berilgan edi. Aynan mana shunday munosabatlar ijtimoiy ustanovkalar deb nomlandi. 1935-yilga kelib faqat amerika adabiyotlarining o'zidagina ijtimoiy ustanovkalarning 20 ga yaqin ta'riflari vujudga kelgan edi.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar Birinchi Jahon urushi yillarida ham jadallik bilan rivojlandi. Chunki, «psixologik urush», ya'ni dushman tomonidagilarga psixologik ta'sir ko'rsatish uchun olib boriladigan targ'ibot va tashviqot ishlari aynan ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish bilan bog'liq edi. Bunda dushmanga nisbatan qarama-

qarshi tomondan ko'rsatilayotgan psixologik ta'sirlar dushmanning ijtimoiy ustanovkalarini boshqacha yo'nalishda shakllantirish, takomillashtirish va o'zgartirishga qaratilgan edi.

Demak, urush jarayonida insonning ijtimoiy ustanovkalaridan raqiblarni yengish maqsadida psixologik qurol sifatida foydalanilgan. Hozirgi kunda ham terroristik guruh a'zolari o'zlarining qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida yoshlarning ongini zaharlashda ularning ijtimoiy ustanovkalaridan foydalanayotganligini hisobga olsak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham bu muammoning chuqur o'rganilishi lozimligi ayon bo'ladi.

Ijtimoiy ustanovkaning o'rganilishida ikkinchi bosqich 1939–1950-yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi Jahon urushi boshlarida va u tugagandan so'ng ham ijtimoiy ustanovkalarni o'rganish borasidagi tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan. Faqat 1950-yillarning oxirlaridan boshlab bu ishlar yana rivojlanib ketgan.

Ijtimoiy ustanovkaning o'rganilishida uchinchi bosqich 1960-yildan hozirgacha davom etib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib, ijtimoiy psixologiyaning ko'pgina amaliy (masalan, reklama bilan bog'liq) sohalari insonning ijtimoiy ustanovkalarini o'rganish bilan qiziqmoqdalar. Ijtimoiy ustanovkalar to'g'risidagi ilmiy bilimlarning bunday qo'llanishi tadqiqotning uchinchi bosqichini tashkil etmoqda.

D.N.Uznadze ham ustanovka va ijtimoiy ustanovka (attityud)ni bir-biridan ajratish lozimligini ta'kidlaydi. Ustanovka umumpsixologik jihatdan qaralib, ongning ma'lum bir reaksiyaga bo'lgan tayyorgarligi, ongsiz fenomen deb ta'kidlanadi. Ijtimoiy ustanovka (attityud) esa quyidagini bildiradi: shaxs tomonidan ijtimoiy obyektlarning mazmun-mohiyatini psixologik boshdan kechirish.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki anglanilmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Ustanovka (psixologiyada) shaxsning muayyan faolligi (idrok, tafakkur, maqsadga muvofiq harakatlar va h.k.)ga ko'ra avvalgi tajribasi bilan belgilangan

tayyorgarligi; shaxsni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik shaklidir.

Ijtimoiy ustanovka (attityud) atrof-olamni umumlashgan holda baholash qobiliyatidir. Tajribalarda aniqlanishicha, ustanovkada ko'pincha reallikka mos kelmaydigan tasavvurlarning saqlanib qolishi kuzatiladi.

«Ijtimoiy ustanovka» atamasi psixologiyada bir necha ma'nolarga ega. Dastlab ijtimoiy ustanovka deganda insonning biron-bir masalani hal qilishga bo'lgan tayyorgarligi tushunilgan.

Attityud tushunchasining mohiyati va attityudning vazifalari

Keyinchalik G'arb va AQSH olimlari tomonidan ijtimoiy ustanovka tushunchasi «Attitude» – «attityud» so'zi bilan ifodalanib, ijtimoiy psixologiya va sotsiologiya fanlarining ilmiy kategoriyasi sifatida kiritilgan. 1935-yilda G. Ollport «ehtimol attityud tushunchasi, hozirgi zamon amerika ijtimoiy psixologiyasi uchun eng zarur va xarakterli tushunchadir», deb ta'kidlagan edi.

«Attitude» atamasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda «yaroqlik» yoki «moslik» degan ma'noni bildiradi. «Attitude» so'ziga yana bir ta'rif quyidagicha: «individ tomonidan ijtimoiy obyektning qimmatini, mazmun-mohiyatini, ma'nosini psixologik his qilish»dir. «Attitude» ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha tushunilgan:

- onging ma'lum bir holati;
- reaksiyaga tayyorlikni aks ettiruvchi holat;
- inson tomonidan maxsus tashkil etilgan holat;
- avvalgi tajribaga asoslanuvchi holat;
- xulq-atvorga dinamik ta'sir ko'rsatuvchi holat.


U. Tomas, F. Znanetskiy, G. Ollport, M. Smit, D. Kats va boshqalar attityudni shaxsning guruh a'zosi sifatidagi xulq-atvori mexanizmlarini o'rganuvchi obyekt sifatida qaraganlar. Demak, ijtimoiy psixologiyada birinchi bo'lib «attityud» tushunchasi «individning ijtimoiy maqsadi va mohiyatiga nisbatan psixologik

tayyorgarligi sifatida yoki ayrim ijtimoiy sifatlarni anglashga nisbatan namoyon bo'luvchi individning ongli holati» sifatida talqin qilingan va bu talqin qator eksperimental tadqiqotlar asosida mustahkamlangan.

G. Ollport attityudga shaxsning harakatga tayyorgarlik jarayoni sifatida qarab, u xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi yakunlangan manba ekanligini e'tirof etadi va bunday ta'rif, ijtimoiy psixologiyada shaxsning yo'nalishini o'rganish uchun juda muhimdir. Xuddi shunday mulohazani E. Bogardusning «Attityud — bu atrof-muhitdagi ayrim omillarga mos yoki qarama-qarshi harakat qilish an'anasidir», degan fikri bilan ham izohlash mumkin.

Attityudning aniq psixologik tuzilmasini asoslashga oid yangicha qarash I. Aytsen va M. Fishbaynlar tomonidan taklif qilingan «komponentlilik» nazariyasi bilan bog'liqdir. Ular murakkab ustanovka tushunchasini faqat affektiv baholash komponenti doirasida kognitiv, affektiv va konativ komponentlari bilan chegaralashni tavsiya etadilar va buni g'arb ijtimoiy psixologiyasidagi ustanovka muammosining 4 jihati: harakat, maqsadli obyekt, bajarish konteksti jarayoni va bajarilish vaqti asosida talqin qilinishi bilan ham ifodalash mumkin.


1942-yilda M. Smit attityudning uch komponentli strukturasi ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uch qism bo'lib, bular kognitiv, affektiv va konativ qismlaridir.



Kognitiv qism — shaxsdagi attityud obyektiga nisbatan bilimlar yig'indisi bo'lib, shu obyektning shaxs tomonidan anglanishidir. Unga shaxsdagi bilimlardan tashqari g'oyalar, tasavvurlar, prinsip-lar va hokazolar kiradi.

Attityudning affektiv qismi (emotsional) — o'sha obyektning hissiy-emotsional baholash bo'lib, obyektga nisbatan yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi.

Konativ qism — xulq-atvor bilan bog'liq qism bo'lib, unga obyektga nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, aynan xulq-atvor ko'rinishlari kiradi. Xulq-atvor komponenti o'z ichiga obyektga nisbatan real (inson tomonidan bajarilayotgan) yoki potensial (shaxs bajarishga tayyor bo'lgan) xatti-harakatlarni qamrab oladi.



Ijtimoiy ustanovkalarni o'rganish jarayonida ularning jamiyatda bajaradigan uchta asosiy vazifalarini ajratish muhimdir:

1. Bilish funksiyasi. Mazkur funksiya shaxsga ijtimoiy obyektlar haqidagi bilimlarni operativ qabul qilish imkonini beradi. Ijtimoiy ustanovkaning bilish funksiyasi kognitiv tarkib orqali realizatsiya qilinadi (amalga oshiriladi).

2. Ifodalash funksiyasi. Bu funksiya shunda namoyon bo'ladiki, ijtimoiy ustanovkalar insonning jamiyat bilan munosabatlarida uni shaxs sifatida taqdim qiladi. Mazkur funksiya asosan ijtimoiy ustanovkaning emotsional komponenti orqali amalga oshiriladi.

3. Moslashtiruvchi funksiya. Bu funksiya quyidagilarda namoyon bo'ladi: agarda ijtimoiy ustanovkalar jamiyatning (guruhning) real holatiga mos kelsa, u holda ular individga mazkur jamiyatga (mazkur ijtimoiy guruhga) moslashishiga imkon beradi. Ijtimoiy ustanovkaning bu funksiyasi asosan uning xulq-atvor komponenti orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ustanovka muammosining rus psixologiyasida o'rganilishi

Tadqiqotchilarni har doim shaxs ustanovkalari uning qila-yotgan ishlariga qanchalik darajada ta'sir qilishi qiziqtirib kelgan. Shaxsning qarashlari, his-tuyg'ulari orqali uning jamiyatdagi xulq-atvori aniqlanadi, bu xulq-atvorni o'zgartirish uchun aqlni va yurakni o'zgartirish kerak, degan taxmin mavjud.

«Ustanovka» tushunchasini rus psixologiyasiga gruzin psixologiya maktabining yetakchisi D.N. Uznadze olib kirgan, bu tushuncha ruscha «ustanovka» so'zidan olingan bo'lib, yo'nalish, yo'naltirish ma'nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda D.N. Uznadze ustanovkaga quyidagicha ta'rif beradi: Ustanovka – kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki obyektlarga qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, baho berish va ularga nisbatan qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holatidir. Ijtimoiy ustanovkalar esa sof ijtimoiy psixologik kategoriya sifatida o'ziga xos mazmun kasb etadi va uning ma'nosi – yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizmdir. Demak, ijtimoiy ustanovka – shaxsning atrof-muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga yo'naltirilgan ruhiy ichki hozirlik bo'lib, bu hozirlik asosida shaxsning dunyoqarashini ham o'zgartirish mumkindir.

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi (Obuxovskiy, 1972) insonlarning xatti-harakatlarini bashorat qilishda kundalik hayotda ham qo'llaniladi: «Nilufar bu konsertga bormasa kerak, chunki u estrada musiqasiga mutlaqo qarshi». Bu holatda kundalik hayotdagi ijtimoiy ustanovka tushunchasi «munosabat» tushunchasiga yaqinroq yuradi.

L.I. Bojovich yo'nalganlik muammosini o'rgana turib, quyidagi ta'rifni beradi: «yo'nalganlik shaxsning ichki pozitsiyasi sifatida

ijtimoiy muhitga nisbatan shakllanib boradi. Ushbu ta'rifda «yo'nalganlik» tushunchasi ijtimoiy ustanovka tushunchasi bilan bir qatorda turuvchi ma'noni bildiradi.

Shaxsning asosiy ijtimoiy-psixologik tavsiflaridan biri uning ijtimoiy ustanovkalari hisoblanadi. Ijtimoiy ustanovka (social attitude – ingl.) bu insonning boshqa kishilarga, ijtimoiy guruhlarga, tashkilotlarga, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga va hodisalarga bo'lgan barqaror munosabatdir. Barcha mutaxassislar bir fikrga kelishganki, ijtimoiy ustanovkalarni o'rganish shaxsni tushunishga bo'lgan ijtimoiy psixologik yondashuvdir.

Ijtimoiy ustanovka atamasi psixologiyada bir necha ma'nolarga egaligi va g'arb ijtimoiy psixologiyasida ijtimoiy ustanovkalarni «Attitude» atamasi bilan nomlashganligini yuqorida qayd etib o'tgan edik.

Attityud tushunchasiga G.M.Andreyeva (1988) tomonidan quyidagi to'rt ilmiy yo'nalishni belgilash asosida yanada oydinlik kiritiladi:

1) muvofiqlashtirish – o'z maqsadlariga erishish uchun xizmat qiluvchi attityudning obyektga nisbatan subyektini yo'naltirish olishi;

2) bilish – u yoki bu obyektga nisbatan attityudning soddalashtirilgan xulq-atvor ko'rsatmasini ta'minlay olishi;

3) ifodalilik – shaxs o'z-o'zini idora qilishida attityud shaxs sifatida o'zini ifodalash uchun subyektning keskin, tang holatlaridan xalos qilish usuli sifatida namoyon eta olishi;

4) himoya – attityudning shaxs ichki ziddiyatlarini bartaraf etishga xizmat qilishi. Demak, aytish mumkinki, attityudning bu to'rt vazifasi ham inson va faoliyat taraqqiyoti uyg'unligiga xizmat qiluvchi psixologik muhofazaning qaror toptirilishiga ko'maklashishi tabiiy. Chunki ijtimoiy taraqqiyot omillari hamisha inson ustanovkalari kamolotiga hamohangdir. Bu hamohanglikni to'liq his etgan holda attityudni yanada kengroq ko'lamda «ijtimoiy ustanovka» nomi bilan e'tirof etish qabul qilingan (V.A.Yadov, D.N.Uznadze, G.M.Andreyeva, P.N.Shixerev, Sh.A.Nadirash-

vili, A.G. Asmolov va boshqalar). Bu esa ijtimoiy psixologiya fani uchun muhim bo'lgan psixologik muhofaza metodologiyasini nazariy-ilmii jihatdan yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi. Chunonchi, D.N. Uznadzening tadqiqotida ustanovka ma'lum ehtiyojlar va ularni qondirish majmuasi sifatida mukammal ochib berilgan bo'lsa (Uznadze D.N., 1961), V.A. Yadov tadqiqotlarida ustanovka ma'lum vaziyatlar bilan bog'liq «o'z-o'zini idora qilish» mezoni sifatida o'rganiladi va bu o'z navbatida, ijtimoiy psixologiya fanining taraqqiyotiga «ijtimoiy faoliyat ierarxiyasi», degan yangi tushunchaning olib kirilishiga sabab bo'ladi (Yadov V.A., 1979).

Ustanovkalarining to'rt bosqichli tizimi

Ijtimoiy ustanovkaning yaxlitlik g'oyasi ilgari surilganidan so'ng rus olimi V.A. Yadov bu borada o'zining dispozitsion nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya «Shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini boshqarishning dispozitsion konsepsiyasi» deb nomlanadi.

Bu nazariyaga ko'ra turli dispozitsion hosilalarning darajalar ierarxiyasi quyidagicha yuzaga keladi: har bir dispozitsiyaga nisbatan ehtiyojlar darajasi bilan bu ehtiyojlarni qondirish jarayonidagi vaziyatlar darajasi kesishishi darkor. V.A. Yadov o'zining dispozitsion nazariyasida ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimlilikini tasavvur qilgan holda izohlaydi va o'z ilmiy xulosalarini quyidagi darajada joylashtirib asoslab berdi:

Birinchi daraja – bunday daraja g'arb tadqiqotchilarida set termini bilan ma'lum va mashhur bo'lib, oddiy vaziyatlarda namoyon bo'luvchi ehtiyojlar ustanovkasi sifatida yuzaga chiqadi. Demak, **elementar (sodda) ustanovkalar (set)** – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya. D.N. Uznadzening fikricha, bunday ustanovkalar eng sodda vaziyatlarda, oilaviy muhitning oddiy shart-sharoitlarida shakllanadi.

Ikkinchi daraja – biroz murakkabroqdir, chunki bunga kichik guruhlarda kechadigan muloqot bilan bog‘liq shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat kechinmalari kiritiladi. Bu yerda shaxs faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy obyekt talabiga nisbatan ma‘lum munosabatlarning tarkib topish jarayoni yotadi. Bu esa g‘arbda qabul qilingan «uch komponentli tuzilma» – «kognitiv», «affektiv», «xulq-atvor»lardan iborat ekanligi bilan alohida ajralib turadi. **Demak, ijtimoiy ustanovkalar (attityud)** – ijtimoiy vaziyat ta‘sirida ijtimoiy obyektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar hisoblanadi. Ularni o‘zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o‘zgartirish kerak bo‘ladi.

Uchinchi daraja – ijtimoiy ustanovka manbai sifatida ijtimoiy faollikka nisbatan shaxsning umumiy qiziqishlar yo‘nalishini o‘z ichiga oladi. Bunda shaxs o‘z ehtiyojlarini qondirish bilan birga aniq faoliyat turiga nisbatan faollikni ham namoyon qilishi ko‘zga tashlanadi. Albatta, bunda ham ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan yuqoridagi 3 komponent tizimi ishtirok etadi. Demak, **bazaviy ijtimoiy ustanovkalar** shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e‘tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir.

To‘rtinchi (eng yuqori) daraja – shaxsning ijtimoiy faollik tizimidagi xulq-atvori va faoliyatini ma‘lum me‘yorda boshqarish bilan bog‘liq. Bunda shaxs faolligi jamiyat va uning iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy yo‘nalishdagi prinsiplari asosida tarkib topadi. Demak, **qadriyatlar tizimi** ustanovkasi avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih Hadislar islom dinidagilar uchun ana shunday qadriyatlardan biri sanaladi va bu dinga e‘tiqod qiluvchi har bir kishi barcha hadislarni tanqidsiz, muhokamasiz qabul qiladi, chunki ular birinchidan, ilohiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchidan, buyuk allomalar tomonidan yaratilgandir. Shuning uchun ham qadriyatlar tizimi har doim avloddan avlodga o‘z qadrini yo‘qotmay o‘tkazib kelinadi va bunga mos holda ustanovkalar shakllanadi.

V.A. Yadov tomonidan ishlab chiqilgan mazkur ierarxik tizim shaxs faoliyatini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq psixologik himoya ierarxiyasi tizimini tasavvur etishda ham ma'lum darajada asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, taqdim etilgan 1-daraja predmetga nisbatan shaxsning bevosita dastlabki harakatlarini ko'rsatsa, 2-daraja esa shaxsning o'z xatti-harakatlarini idora qila olishi bilan bog'liqlikdan dalolat beradi, 3-daraja xatti-harakatlardagi vaziyatni hal qilish bilan bog'liq kechinmalarni va nihoyat, 4-daraja esa xulq-atvorning bir butunligini yoki shaxs faoliyati bir butunligini ifodalovchi mezon sifatida yakunlanadi.

Psixologik himoya va ustanovka uyg'unligining metodologik asosini talqin qilishda, psixologiya fanida ma'lum va mashhur D.N.Uznadze maktabi tadqiqotchilari tomonidan ustanovka muammosining maxsus predmet sifatida ishlab chiqilib ilmiy xulosalar chiqarilganligini unutmazlik lozim.

Ustanovka muammosi ijtimoiy psixologiya fanining eng muhim obyekti ekanligini, D.N.Uznadze tomonidan keltirilgan quyidagi ta'rifda ham ko'rish mumkin: 1. Ustanovka ma'lum faollik holatiga nisbatan tayyorgarlikdir. Ayni paytda, subyekt ehtiyoji va unga mos obyektiv vaziyatning yaratilishi bilan bog'liq subyektning bir butun dinamik holatidir. Bu o'rinda obyektiv vaziyat bilan bog'liq psixologik himoyaning shaxs faolligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarning o'rni va ahamiyati alohida o'rin tutganligi ko'rinib turibdi. Lekin D.N.Uznadze o'z tadqiqotlarida shaxsning oddiy fiziologik ehtiyojlarini o'rganish va tahlil qilish asosida ustanovka qonuniyatlarini ochib berdi va ilmiy xulosalar qila bildi.

Ustanovkaning shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lishi

Ijtimoiy ustanovka shaxsning jamiyatdagi xulq-atvorini tushuntirib berish usuli sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy ustanovka muammosi ijtimoiy psixologiyaning eng muhim muammolaridan biri sifatida ko'rilar ekan, ustanovkaning shaxs xulq-atvorida

namoyon bo'lishi masalasi ham ba'zi tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan va quyidagi xulosalarga kelingan.

Ustanovka shaxsning xulq-atvorini belgilab beradi, agarda:

- boshqa ta'sirlar kamaytirilgan bo'lsa;
- ustanovka xatti-harakatga mos kelsa;
- ustanovka kuchli bo'lsa;
- ustanovka ongacha yetkazib borilsa.

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi ma'lum bir darajada xulq-atvor motivining tanlovini ham izohlab beradi. Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir talabaga qaysidir o'qituvchining dars o'tishi yoqadi, u nima uchun shu o'qituvchining dars o'tishi yoqishini tushunmagan holda o'qituvchining keyingi darslari ham «menga yoqadi» degan tasavvurda bo'ladi. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy obyektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu obyektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

1964-yil Lion Festinger (ijtimoiy psixologiya asoschilaridan biri) quyidagi xulosaga keldi: «Ustanovkalarining o'zgarishi xulq-atvorning o'zgarishiga olib kelishi mumkinligi aniqlanmadi, aksincha, bizning xulq-atvorimiz bu otlar, ustanovkalar esa arava».

Robert Eybelson shunday deydi: «Biz har qanday harakatimizni o'zimizni oqlagan holda asoslab berishimiz mumkin, biroq isbot talab qilinadigan harakatlarni yaxshi bajara olmaymiz».

1969-yilda ijtimoiy psixolog Allan Uiker o'zi o'tkazgan tadqiqotlari asosida: «Kishilarning o'zlari o'ylab topgan ustanovkalariga qarab, ularning xulq-atvorini oldindan aytib bo'lmaydi»,

degan hayron qolarli xulosaga keldi. Masalan: talabaning yolg'onga bo'lgan munosabati bilan uning real hayotda boshqalarni aldashi mumkinligi o'rtasida deyarli bog'liqlik bo'lmaydi yoki faqat yakshanba kunlari masjidga borib turish bilan masjidga bo'lgan munosabat o'rtasida nisbiy bog'liqlik bo'lishi mumkin.

V.G. Kriskoning fikricha «Har qanday ustanovkalar ong ostidan chiqadi va shuning uchun ularning to'g'ri yo'l bilan kelishishlari juda qiyin».

Ustanovkalar bilan harakatlar o'rtasidagi bo'linishni Daniel Betson va uning kasbdoshlari «o'ziga axloqiy bino qo'yish», ya'ni o'zida bo'lmagan axloqiy xususiyatlarni egallashga bo'lgan harakatlardir, deb ta'riflaydi. Universitet talabalariga ikkita topshiriq berildi, agar topshiriqning birinchisi to'g'ri bajarilsa 30 dollar mukofot berilishi, ikkinchisi uchun hech narsa berilmasligi aytiladi va talabalarga ikkalasidan bittasini tanlashlari taklif qilinadi. 20 ta talabadan bittasigina «pul to'lanadigan topshiriq»ni olish kerak, degan fikrni rad etadi, 80% talaba esa aksincha yo'l tutadi. Bundan kelib chiqadiki, moddiy manfaatdorlik har doim ustun turishi mumkin ekan.

A. Uiker va uning hamkasblari ustanovkaning xulq-atvorga ta'siri kuchsiz ekanligini yoritib bergan. Kishilar har doim ham ochiq muloqotga tayyor bo'lmashliklari olimlarni yangi izlanishlar sari yetakladi, ularning ichidagilarini qanday bo'lmasin aniqlash uchun Edvard Djouns va Garald Sigal aldov yo'llari bilan kishilarning haqiqiy ustanovkalarini chiqarib olish, «ko'rinmas axborot manbalarini» aniqlash metodini ishlab chiqishdi. 1971-yilda G. Sigal va Richard Peydj birgalikda Rochester universiteti talabalari ishtirokida eksperiment o'tkazdi. Sinaluvchi talabalarning qo'llariga elektrodlar o'rnatildi, ularning rost yoki yolg'on so'zlaganini muskullarining qisqarishiga qarab tablodagi chiroqning yonib o'chishi aniqlab berishi tushuntirildi. Tadqiqotning haqqoniyligi hech kimda shubha uyg'otmadi. Bu usulda qo'llanilgan apparat «ustanovkalar haqqoniyligini o'lchash yoki

aniqlash» deb nomlandi, ayrim hollarda «yolg'onlar detektor» deb ham nomlanadi.

Aytek Eydjen va Martin Fishbeyn fikriga ko'ra umumiy ustanovkalar aniqlanayotgan vaqtda xulq-atvor o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi va ular bog'liq bo'lmasligi mumkin, ya'ni shaxsning so'zi bilan ishi bir xil bo'lmagandek. Biz avtomatik ravishda biror-bir vazifani bajarganimizda ustanovkalar yuzaga chiqmaydi. Har kuni uyqudan uyg'onib, birinchi qiladigan ishimiz yuzimizni yuvish va salom berish, bu narsani o'ylab ham o'tirmay bajaramiz yoki yo'lda keta turib biror-bir tanishimizni ko'rsak salomlashib o'tib ketamiz va hokazo. Bunday avtomatik reaksiyalar adaptatsiyalashgandir.

Alfreyd Nort Uaytxedning fikriga ko'ra «avtopilot rejimida» harakat qilganimizda bizning ustanovkalarimiz «uyquda» bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilishi kuchli bo'lgan insonlar uchun ustanovka ijtimoiy moslashtirish rolini o'ynaydi. Ijtimoiy ustanovka ularga yangi ishga, yangi rollarga moslashishga va o'zaro munosabatlarga kirishishga yordam beradi.

Insonlar kimningdir ustanovkasi haqida so'raganlarida, ular qaysidir insonlarga va voqealarga bo'lgan ishonch va tuyg'ularni nazarda tutadilar va bu holat o'zlarini qanday tutishga tayyor ekanliklarini aniqlab oladilar.

Ustanovkalari har xil bo'lgan partnyorlar bir-birlarini tushuna olmaydilar va shu orada anglashilmovchilik tufayli ajraladilar. Ustanovkalari bir-biriga mos kelgan partnyorlar esa muloqotda ko'ngildagidek natijaga erishadilar.

Ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishi

Ijtimoiy psixologiyada bugungi eng muhim va dolzarb muammolardan biri — shaxsning shakllanib bo'lgan ijtimoiy ustanovkalarining hayot va faoliyat mazmuniga qarab o'zgarishi yoki o'zgarmasligini aniq dalillar misolida asoslab berishdir. Bu borada ham g'arbda ma'lum tadqiqotlar mavjud. Binobarin,

bixevioristik yo'nalishdagi ijtimoiy psixologik oqim namoyandasi K. Xovlandning fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yoki ijtimoiy psixologik ta'sir yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni insondagi turli xil ustanovkalarni o'zgartirish uchun unga nisbatan rag'batlantirish yoki jazolash tizimini o'zgartirish dar-
kor.

Kognitiv yo'nalishdagi ijtimoiy psixologik oqimi namoyandalari (F. Xayder, T. Nyukom, L. Festinger, Ch. Osgu, P. Tannenbaum)ning fikriga ko'ra, shaxslar orasidagi nizoli vaziyatlar hosil bo'lganda ulardan biri ongli ravishda o'z ustanovkasini o'zgartira olishi kerak. Bu esa o'z navbatida, psixologik himoya omili sifatida talqin qilinishi mumkin, ya'ni ular orasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizoning oldini olishi mumkin. Umu-
man, ijtimoiy ustanovka ongli faoliyat, ijtimoiy mas'ullikni anglash zamirida o'zgarishi e'tirof etiladi. Bu esa psixologik himoya vositasi sifatida shaxs va uning kamolotida muhim aha-
miyat kasb etadi.

Ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishini talqin qilishda, P.N. Shixerev tomonidan keltirilgan ilmiy dalil va xulosalar hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya fanining amaliyot bilan bog'liq taraqqiyotida muhim o'rin tutganligini ko'rish mumkin. P.N. Shixerev ustanovka insonni o'z-o'zini idora qilishda va samarali faoliyatida namoyon bo'luvchi jarayon ekanligini va uni o'zgartirish uchun, dastlab shu jarayonni o'rganish muhimligini ta'kidlaydi (P.N. Shixerev, 1976).

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim K. Xovlandning fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rganish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ya'ni talabalarga turli xil ma'lumotlarni qayta-qayta takrorlab, uning ongida shu bilimni hosil qilish orqali ularning ustanovkalarini o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari talaba va o'qituvchi o'rtasida nizolarning oldini olish uchun ham ularning qay biridir o'z ustanovkalarini qay usulda bo'lmasin o'zgartirishi maqsadga

muvofiqdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra ularning orasida shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

Xorij tadqiqotchilari «Ustanovkalar vaqt o'tishi bilan qay darajada o'zgaradi?» degan savolga javob topishga harakat qilishdi va misli ko'rinmagan natijaga erishishdi: vaqt o'tib ustanovkalar o'zgargan kishilar kamdan kam hollarda aynan shunday bo'lganini ta'kidlashadi. Daril Bem va Keyt Mak Konell Karnegi Mellon universiteti talabalari o'rtasida so'rov olib bordi. Tadqiqotchilar bergan savollar orasida talabalarning o'quv jarayonini, aynan talabalarni nazorat qilishga munosabatini aniqlovchi yashirincha savol ham mavjud edi. Unga nisbatan talabalar deyarli yomon munosabat bildirmaganlar. Lekin bir haftadan so'ng tadqiqot qayta o'tkazilganda sinaluvchilar talabalar nazoratiga qarshi ekanliklari haqida fikrlarini yozib berishgan va talabalar nazoratiga munosabati ham anchagina yomonlashgan. Tadqiqotchilar ulardan savollarga qanday javob berishganlarini eslashni so'rashganda, ular avvalgi va hozirgi javoblari bir xil ekanligini ko'rsatganini tan olishmagan. Klark universiteti talabalarida ham shunday so'rov o'tkazilgan va ular ham xuddi shunday javob qaytarishgan. A. Uikson va Djems Lerd talabalarning hozirjavoblik va qat'iyatlilik bilan o'z o'tmishlari haqida gapirishlariga tan berdilar.

Ijtimoiy ustanovkalarining shakllantirish va o'zgarish jarayonini tadqiq qilishga katta hissa qo'shgan olimlardan biri amerikalik olim K. Xovland hisoblanadi. U shaxsning ijtimoiy ustanovkalariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning uchta guruhi borligini uqtirgan:

1. Ma'lumot manbai bilan bog'liq omillar guruhi.
2. Ma'lumot mazmuni bilan bog'liq omillar guruhi.
3. Mazkur omillar yo'naltirilgan auditoriya bilan bog'liq omillar guruhi.

Ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi va o'zgarishiga ma'lumotlarning manbai quyidagicha ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1) ma'lumot manbaiga nisbatan kishilarda ijobiy munosabat mavjud bo'lsa, u holda ularning ijtimoiy ustanovkalari kuchliroq o'zgarishi mumkin;

2) ma'lumot manbaiga nisbatan kishilarda salbiy munosabat mavjud bo'lsa, u holda ijtimoiy ustanovkalar umuman qarama-qarshi tomonga o'zgarib ketishi mumkin («bumerang effekti»);

3) agarda ma'lumot manbai kishilar o'rtasida «o'zimizniki» sifatida qabul qilinsa (u va shaxs o'rtasida ijtimoiy-psixologik distansiya bo'lmasa), u holda bunday manba kishilarning ijtimoiy ustanovkalariga kuchliroq ta'sir ko'rsata oladi;

4) agarda ma'lumot manbai kishilar tomonidan «begona» sifatida qabul qilinsa (u va shaxs o'rtasida katta ijtimoiy-psixologik distansiya bo'lsa), u holda bu manba kishilarning ijtimoiy ustanovkalariga jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Informatsiyaning mazmuni va yetib kelish tartibi kishilarning ijtimoiy ustanovkalar shakllanishi va o'zgarishiga quyidagicha ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Kishilarga birinchi bo'lib yetib kelgan ma'lumot, ikkinchi yoki keyingi yetib kelgan ma'lumotga nisbatan ijtimoiy ustanovkalarga ko'proq ta'sir ko'rsata oladi (bu hol «birinchilik effekti» degan nom olgan). Bu quyidagi shart-sharoitlarda yuz beradi:

a) insonlar kerakli ma'lumotni tinimsiz oqim ko'rinishida olishsa;

b) kishilarda jismoniy va psixologik charchoq kuzatila boshlagan vaqtda (diqqatning o'chishi, informatsiyaga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi va h.k.) ma'lumot kelishda davom etsa.

2. Kishilarga ikkinchi yoki undan keyin yetib kelgan ma'lumot quyidagi holatlarda ijtimoiy ustanovkalarga ko'proq ta'sir ko'rsatadi:

a) agarda kishilar uni ko'p vaqt oralig'ida qismlarga bo'lib-bo'lib olishsa;

b) agarda bu ma'lumot kishilarga juda uzoq vaqt mobaynida yetib kelaversa va nihoyat ular eng avvalida nimalarni eshitganliklarini unutib yuborishsa.

3. Agar ma'lumot olishdan avval shaxsga «bu ma'lumotga ishonish kerak emas» degan ogohlantirish bo'lsa, u holda ma'lumot yetib kelganida shaxs uni umuman qabul qilmaydi hamda o'zining ijtimoiy ustanovkasini o'zgartirmaydi.

4. Agarda «ma'lumot manbaiga ishonmang» degan ogohlantirish kechroq yetib kelsa va ungacha shaxs ma'lumotni qabul qilib bo'lgan bo'lsa, u holda bu ogohlantirish shaxsdagi ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

5. Ko'pchilik holatlarda murakkab va qarama-qarshi ma'lumot ijtimoiy ustanovkalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, aksincha oddiy va aniq ma'lumot ijtimoiy ustanovkalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: agar shaxsga aynan bitta masala yuzasidan ikki xil ma'lumot berilsa-yu, lekin u bu ma'lumotlarni tushunmasa, u holda shaxs ma'lumotga javoban o'z ijtimoiy ustanovkasini o'zgartirmaydi. Agar shaxsga bitta, lekin aniq ma'lumot taklif qilinsa, ikkinchi ma'lumot haqida umuman gapirilmasa, u holda shaxs garchi bu borada ikkinchi nuqtayi nazar borligini bilsada, unga taklif qilinayotgan dastlabki ma'lumotni qabul qiladi.

Auditoriyaning o'ziga xosligiga ko'ra ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishi va shakllanishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Shaxs ma'lumot manbaiga nisbatan avvaldan ijobiy munosabatda bo'lsa, u holda ma'lumot beruvchining nuqtayi nazarini qabul qilishadi (hatto bu nuqtayi nazar yetarlicha mantiqiy va tartibli bo'lmasa ham).

2. Shaxs ma'lumot manbaiga avvaldan salbiy munosabatda bo'lsa, u holda ma'lumot beruvchining nuqtayi nazarini deyarli qabul qilmaydi (hattoki bu nuqtayi nazar mantiqiy izchil va mukammal isbotga ega bo'lsa ham).

3. Yuqori darajadagi intellekt, ta'lim va madaniyatga ega bo'lgan shaxs ko'pincha emotsiyalarga emas, balki mulohazali fikrlarga asoslanib reaksiya bildiradi.

4. Past darajadagi intellekt, ta'lim va madaniyatga ega bo'lgan shaxs ko'pincha mulohazali fikrlarga emas, emotsiyalarga asoslanib reaksiya bildiradi.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy ustanovka (sotsial attitude – ingl.) – insonning boshqa kishilar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga va hodisalarga bo'lgan barqaror munosabati.

Attityud – (o'zbekcha «yaroqlilik», «moslik») individ tomonidan ijtimoiy obyektning qimmatini, mazmun-mohiyatini, ma'nosini psixologik his qilish yoki bo'lmasa ma'lum bir ijtimoiy qimmatlikka nisbatan individdagi ong holatini bildiradi.

Ustanovka – (ruscha ustanovka so'zidan olingan bo'lib, yo'nalish, yo'naltirish ma'nosini anglatadi) shaxsning tevarakatrofdagi odamlar yoki obyektlarga qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligini anglatadigan holati.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ustanovka tushunchasi mazmunini izohlang.
2. Shaxs xatti-harakatlari uning ustanovkalariga bog'liqmi?
3. G'arb olimlarining ijtimoiy ustanovkalar borasida olib borgan tadqiqotlari haqida nimalar bilasiz?
4. Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy ustanovkalarining hosil bo'lishi va o'zgarishi qay darajada o'rganilgan?
5. Ustanovkalarining to'rt bosqichli tizimini sharhlab bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi va o'zgarishi.
2. Ijtimoiy ustanovkalarining vazifalari.
3. Ijtimoiy ustanovkalarining xulq-atvoriga ta'siri masalasining G'arb psixologiyasida o'rganilishi.

TEST

1. Qaysi olim attityudga shaxsning harakatga tayyorgarlik jarayoni sifatida qarab xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi yakunlangan manba ekanligini e'tirof etadi va bu shaxsning yo'nalishi uchun juda muhimdir deya ta'kidlaydi?

- a) F. Xayder
- b) T. Nyukom
- c) G. Ollport
- d) P.N. Shixerev

2. «Ijtimoiy ustanovka o'rgatish yoki ijtimoiy psixologik ta'sir yo'li bilan o'zgarishi mumkin». Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- a) G. Ollport
- b) D.N. Uznadze
- c) K. Xovland
- d) V.A. Yadov

3. Quyidagi olimlar orasidan ijtimoiy ustanovka borasida tadqiqot olib borgan g'arb olimlarini ajratib ko'rsating: 1. U. Tomas, 2. V.A. Yadov, 3. M. Smit, 4. D.N. Uznadze, 5. G. Ollport.

- a) 1, 2, 3
- b) 2, 4, 5
- c) 1, 4, 5
- d) 1, 3, 5

4. Ijtimoiy psixologiya faniga «ijtimoiy faoliyat ierarxiyasi» tushunchasini olib kirgan olim nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) V.A. Yadov
- b) K. Xovland
- c) U. Tomas
- d) P. Tannenbaum

5. O'z maqsadlariga erishish uchun xizmat qiluvchi attityudning obyektga nisbatan subyektni yo'naltira olishi nima deb ataladi?

- a) bilish
- b) muvofiqlashtirish

- c) ifodalilik
- d) himoya

6. «Attityud -- bu atrof-muhitdagi ayrim omillarga mos yoki qarama-qarshi harakat qilish an'anasidir». Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- a) E. Bogardus
- b) M. Fishbayn
- c) A.G. Asmolorov
- b) N. Rokich

7. «Attityud» atamasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda qanday ma'noni anglatadi?

- a) «avvalgi tajribaga asoslanuvchi»
- b) «yaroqlilik» yoki «moslik»
- c) «xulq-atvor»
- d) «yo'nalish»

8. «Shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini boshqarishning dispozitsion konsepsiyasi» kim tomonidan ishlab chiqilgan?

- a) D.N. Uznadze
- b) V.A. Yadov
- c) P.N. Shixerev
- d) G.M. Andreyeva

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING KECHISHI

Shaxslararo munosabatlarda egoistik munosabatning namoyon bo'lishi

Shaxslararo munosabatlar jarayonida shaxsning ishtiroki va bu jarayonda shaxslar o'rtasida kechadigan munosabatlarni o'rganish ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bunday munosabatlar sirasiga shaxs xulq-atvoriga tegishli bo'lgan altruizm, egoizm, agressiya, tolerantlik, stigma, diskriminatsiya tushunchalarini kiritish mumkin. Bugungi kunda bu tushunchalarning mohiyatini ochishga harakat qilish ijtimoiy psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining barchasini qiziqtirayotganligi bejiz emas, albatta. Chunki bu tushunchalar aynan shaxs va jamiyat munosabatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxslararo munosabatlarda ba'zan kishilar bir-birlarining egoistik xulqidan shikoyat qilishi kuzatiladi. Bunday xulq qanday kechishini tahlil qilib ko'ramiz. Egoizm shaxsning ijtimoiy muhitiga salbiy ta'sir qiladi. Hech qaysi shaxs o'z atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni hissiyotsiz baholamaydi. Yaqin kishilar bilan yoki oilaviy munosabatlarda muammolar yuzaga kelganida, kishilar mas'uliyatni ko'proq o'z juftiga yuklaydi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ajralish uchun kelganlarning ko'pchiligi oilaning ajrim ostonasiga kelib qolganligi uchun o'z juftini yoki yana kimlarnidir aybdor deb hisoblaydilar. Aksincha, oilaviy munosabatlardagi ijobiy jihatlar, ishdagi yoki boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlarning sababchisini ko'rsatish lozim bo'lsa, albatta o'z ishtirokidan so'z ochadi va bunday xususiyat ko'pchilikka xosdir. Ma'lum bir sohada bir xil muvaffaqiyatga yoki natijaga erishish uchun raqobatlashayotgan olimlar o'zlarining fanga qo'shgan hissalarini haqida gapirayotganida kamdan kam kamtar bo'lishi xorij psixologiyasining yetuk olimlari-

dan biri E. Ross tomonidan tasdiqlangan. E. Ross bu fikrining tasdig'i uchun quyidagi misolni keltiradi: 1923-yilda insulinni yaratgan Frederik Banting va Djon Makleodlar Nobel mukofotiga sazovor bo'lishganidan so'ng, F. Banting ommaviy chiqishlardan birida, laboratoriyani boshqarayotgan unga D. Makleod yordam berishdan ko'ra, ko'proq xalaqit berganligini ta'kidlaydi, D. Makleod esa ixtiroga qanday erishganligi haqida gapira turib, o'z nutqida biron marta ham F. Bantingning ismini tilga olmaydi (Ross, 1981).

Bundan ko'rinadiki, shaxsdagi egoizm uning «Men»ida o'ta markazlashuvi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Ba'zi kishilarning o'zi haqida qayg'urishi ham ularning ijtimoiy xulq-atvorida egoizmni motivlashtirishi mumkin. Kishilar o'z atrofida yaxshi taassurot qoldirish umidida turli xil kosmetikalar, parhezlar uchun milliardlab mablag'larni sarflaydilar. Egoistlarning harakatlari asosan o'z imidji haqida qayg'urish ostida qilinadi. «Odamlarda hech bir mavzu o'zlari haqidagidan ko'ra katta qiziqish uyg'otmaydi. Bundan tashqari ularning ko'pchiligini o'z shaxsidan boshqa hech narsa qiziqitirmaydi», deb yozadi R.F. Baumayster.

Amerikalik olim Patrik Byukenen o'zbekchaga tarjima qilinganda «G'arbning o'limi» deb nomlangan kitobida yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo'lgan voqealarni: jamiyat ma'naviyatidagi inqirozlar, jumladan, oila va nikoh, tug'ilish va aholining tabiiy o'sishi borasidagi inqirozlarni tahlil qilar ekan, bu borada jamiyat a'zolarida kuzatilayotgan salbiy xulq-atvorlardan biri bo'lgan egoizmning jiddiy ta'sirini ko'rsatib o'tadi. P. Byukenenning fikricha, jamiyatda borgan sari birdan boyib ketish, to'kin hayotga erishish kabi egoistik intilishga ega bo'lgan kishilar soni ortib bormoqda, bu esa jamiyatda mavjud qadriyatlarga nisbatan munosabatlarda jiddiy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Muallif bu holatni **gedonistik psixologiyaning** asosi deb baholaydi va buning oqibatida jamiyatda qator ijtimoiy muammolar kelib chiqayotganligini ochiq e'tirof etadi.

Gedonizm — bu shaxs va uning xulq-atvor motivlarida birgina istak — nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligidir. Bunda inson asosan to'q va farovon hayotga intiladi, boy-badavlat yashashni xohlaydi va bundan lazzat oladi. Muallif Yevropada tug'ilishning keskin kamayib ketganligini, ayollar o'zidan sog'lom zurriyod qoldirishni istamayotganligini, mablag'i yetarli bo'lsa-da, farzand tug'ilishiga va uni tarbiyalashga ketadigan mablag'larini qizg'anayotganligi kabi holatlarni qayd etadi. Bundan tashqari gedonizmning eng katta salbiy ta'siri Yevropa kishilarida *egotsentristik* dunyoqarashning shakllanishiga turtki bo'lmoqda.

Egosentrizm lotincha «Ego» — men va «centrum» — doira markazi so'zlaridan olingan bo'lib, insonning o'z fikr o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolganligi, buning oqibatida atrof-muhitga va odamlarga oid bilimlarini hamda o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligini bildiradi. Yoshlarimiz orasida yuqoridagi dunyoqarash ta'siri ostida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizdan yuz o'girayotgan, butunlay yevropacha yoki amerikacha madaniyatning quliga aylanib borayotgan, natijada jamiyatdagi ijtimoiy fikrning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatayotganlar ham mavjud ekanligini hisobga olgan holda bu muammoning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish borasidagi izlanishlarni bo'lajak mutaxassislardan kutib qolamiz.

Egoistik xulq va egoizm atamasini qo'llash ham, D. Mayers ta'kidlaganidek, kundalik hayotda juda ko'p uchraydi. Buning sababi shuki, keng jamoatchilik orasida egoizm tushunchasini ko'pchilik biladi, aksincha Altruizm atamasining qanday ma'noga ega ekanligini aksariyat kishilar bilmaydi. Aytish mumkinki, bu atama ko'proq ilmiy mavzuda ish yuritganlar uchungina tanish bo'lsa kerak.

Ma'lumki, egoizm kishilar orasida salbiy sifat deb qaraladi va egoistik xulq-atvor jamoatchilik tomonidan ham salbiy munosabatga loyiq deb qaraladi. Altruizm esa aksincha ijobiy sifat deb qaraladi va altruistik xatti-harakat ijobiy munosabatga loyiq deb

tanlanadi. Nega shunday? Buning sababi esa egoistik xulqning asosida birinchi o'ringa o'z manfaatini qo'yish yotsa, aksincha altruistik xulqning asosida birinchi o'ringa o'z galar manfaatini qo'yish yotadi. Demak, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Altruizm egoizmning antonimidir. Shuning uchun Altruizm atamasini tushunishda D. Mayers kundalik hayotimizda ko'p uchraydigan egoizm atamasidan foydalanishni ma'qul ko'rgan.

Shaxsning altruistik xulqi haqida nazariyalar

Altruizm qisqa va lo'nda, aniq qilib aytilganda, hech qanday manfaatni kutmagan holda boshqalarga yordam berish, birovlariga yordam qo'lini cho'zish demakdir. Uning asosida hech qanday manfaat kutmaslik yotishi shu bilan asoslanadiki, altruist odam har doim, hammaga, hatto buning evaziga hech narsa olmasligini bilsa ham, yordam beraveradi. Ta'kidlash joiz, bunday odamlar birovlariga qilgan yordami uchun o'zi jabr ko'rsa ham, baribir boshqalarga yordam berishni kanda qilmaydi. Bunday odamlar so'nggi chaqasi, so'nggi imkoniyati va hatto jonini ham hech qanday minnatdorchilik yoki taqdirlanishni kutmasdan bera oladi. Misol: Moskvadagi metro bekatlaridan birida 6 yoshli qizchanning relslar ustiga tushib ketganligini ko'rgan V. Ivanov poyezd kelayotganligini ko'rib, o'zini pastga tashladi va qizni perronga otishga ulgurdi, lekin o'z jonini saqlab qola olmadi. Qizaloq uning hech kimi emas edi. U buni shunchaki odamiylik nuqtayi nazardan amalga oshirdi. Ya'ni Altruizmni namoyon qildi. Savol tug'iladi: Kishini bunday harakat qilishga nima majbur qiladi?

Bu savolga faylasuf, psixolog, sotsiolog va boshqa sohadagi olimlar uzoq yillardan buyon javob izlashadi va bu savolga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatganki, savolga javob berayotgan olimning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu savolga javob beriladi: ya'ni, agar bu olimning o'zi inson sifatida odam hech qachon biror-bir manfaatni ko'zlamasdan boshqalarga shunchaki yaxshilik qilmaydi, degan fikrga ega bo'lsa va o'zi ham bunga amal qilsa, u holda bu olim Altruizmning

asosida yo moddiy, yo ma'naviy manfaatdorlik yotadi, deb hisoblaydi.

Aksincha, bu savolga javob izlayotgan olim inson sifatida o'zi altruistik e'tiqodga amalga qilsa, bu olim altruistik xulq-atvorni birovlariga hech qanday foyda ko'zlanmasdan qilinadigan yaxshilik deb tushuntiradi.

Ijtimoiy psixologiyada Altruizm ijtimoiy xulq-atvor sifatida qaraladi va uning asosi yoki motivini tushuntirishda 2 xil nuqtayi nazar mavjud.


Birinchi nuqtayi nazar biologik nuqtayi nazar bo'lib, bu nazariya Altruizmni biologik ehtiyoj sifatida qaraydi va uni insonga tug'ma holda beriluvchi instinktiv xulq-atvor deb baholaydi. Ularning fikricha, hatto hayvonot olamida ham bir tur vakillari orasida bir-biri uchun qayg'urish va bir-biriga yordam berish holatlarini kuzatish mumkin. Bundan tashqari hali manfaat nimaligini unchalik tushunib yetmagan yosh bolalarda ham altruistik harakatlarni kuzatish mumkin-ki, bu holatlar Altruizmning tug'ma ehtiyoj ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi nuqtayi nazar sotsiologik (ijtimoiy) nazariyadir. Bu nazariya vakillari yuqoridagi nazariya vakillarining fikriga butunlay qarshi chiqadi. Ularning fikrida ham jon bor, albatta. Ularning fikri quyidagicha: agar ota-onalar yosh bolalar bilan munosabatda va muloqotda tez-tez altruizmni namoyon etsalar, bunday holatda bolalar ham ularga taqlid qilib, shunday harakatlarni amalga oshira boshlaydilar.

Shuni kuzatish mumkinki, ota-onalardagi altruizm ko'pincha ularning bolalarida ham altruizmni namoyon qilishlariga sabab bo'ladi. Masalan, bolaning oyisi konfetidan bittasini ukasiga berishni o'rgatsa yoki 2 tadan bittasini dadasiga deb olib qo'ysa, bunday bola bog'chadagi o'rtog'iga ham konfetining yarmini beradi. Aksincha, ota-onalaridagi altruistik harakatlarning kuzatilmashligi ko'pincha ularning bolalarida ham bunday xulqning kuzatilmashligini tasdiqlagan. Ushbu nazariyalar asosida yana bir qancha nazariyalar yaratilganki, ularni quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin:

Sotsiologik yoʻnalishdagi nazariya altruizmning asosida nima yotishiga qarab ikki asosiy guruhga boʻlinadi:

1. Manfaatni koʻzlab amalga oshiriladigan altruistik harakatlari.
2. Manfaatni koʻzlamasdan amalga oshiriladigan altruistik harakatlari.



Birinchi nazariya tarafdorlarining fikriga koʻra, har qanday altruistik xulqning asosida ochiq yoki yashirin, ongli yoki ongsiz holatda boʻlsin, qandaydir foyda yoki manfaat koʻzlanadi.

Ikkinchi nazariya tarafdorlari esa altruistik xulqning asosida hech qanday manfaat yoki foyda yotmaydi, degan fikrni ilgari suradilar.

Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlari altruistik xulqni tushuntirishda quyidagi variantlarni taklif etadilar.

- *Ijtimoiy oʻzaro almashuv.* Bu yoʻnalish tarafdorlarining fikriga koʻra jamiyatda har qanday shaxslararo munosabatlar zaminida oʻzaro manfaatdorlik yotadiki, shunga koʻra Altruizm — bu mehr-muhabbat, hurmat, gʻamxoʻrlik, oqibat kabi psixologik hissiyotlarni oʻzaro almashishdir. Yaʼni altruistik harakat qilyotganda kishi buning evaziga oʻziga albatta shunday munosabat qaytishini kutadi. Odatda, bunda «kamroq berib» «koʻproq olishga» moʻljallab altruistik harakat qilinadi. Masalan, oʻrtogʻi uchun

qayg'urayotgan (kechikayotgan o'rtog'ini «hozir kelib qoladi», deb oqlayotgan) talaba, o'rtog'laridan o'ziga nisbatan xuddi shunday munosabatlarni kutadi. Hatto bunday munosabat qaytarilmasa, undan xafa ham bo'ladi.

Niqoblangan egoizm. Bu nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, altruistik harakat qilayotganda kishi o'ziga baho berish, o'ziga bo'lgan ishonch yoki hurmatning asosida yotgan ehtiyojlarni qondiruvchi o'zidan qoniqish va g'ururlanish kabi hissiyotlarni boshidan kechiradi. Bu esa odamga juda katta psixologik kuch beradi. Masalan, eridan bitta farzand bilan beva qolgan yosh ayol turmushga chiqmaydi. Uni altruist deymiz. «Bechora bolasi uchun gulday hayotini qurbon qildi», deb qo'llab-quvvatlaymiz. Lekin chuqurroq tahlil qilinsa, asosiy sabab: ona turmushga chiqsa va o'gay ota bolasiga yomon munosabatda bo'lsa, birinchi navbatda onaning o'zi bezovta bo'ladi, qiynaladi. Ya'ni altruistik xulqning asosi o'zining xotirjamligini ta'minlashdir. (Farzand xursand bo'lsa, o'zi xursand bo'ladi, xotirjam bo'ladi.) Yoki boshqa bir misol. Talaba uy vazifasini bajarmagan o'rtog'iga daf-tarini ko'chirish uchun berib turdi. Bu bilan u go'yoki o'rtog'iga manfaat kutmagan holda yaxshilik qildi, lekin buning asosida shu o'rtog'i uchun sevimli bo'lish istagi yotmaydi, deb ham aytib bo'lmaydi.

Ikkinchi nazariya tarafdorlari birinchi nazariyaga alternativa sifatida chiqishadi va ular altruistik xulqning asosida hech qanday manfaatdorlik yotmaydi, degan fikrni ilgari surishadi. Ular altruistik xulqni tushuntirishda quyidagicha nuqtayi nazarlarni taklif etishadi:

1. Empatiya nazariyasi. Bunda altruistik xulqdagi kishi tabiiy holatda, o'zi ham anglamagan holda boshqalar uchun qayg'urish va g'amxo'rlik qilishga moyil bo'ladi. Bunday odamlar qiynalayotgan kishilarni ko'rsa, o'z-o'zidan altruistik xulqni namoyon qiladilar.

2. Ijtimoiy me'yortiv nazariya. Bu nazariya tarafdorlari-ning fikricha, kishi ijtimoiy rol va ijtimoiy me'yorlarni yaxshi

o'zlashtirganlari uchungina altruistik xulqni namoyon qiladi. Bunday odamlar sirasiga ayniqsa ma'lum bir dinga e'tiqod qiluvchilar, jamiyatda mavjud bo'lgan ma'lum bir qadriyatlarga, ijtimoiy me'yorga qat'iy amal qiluvchilar kiradi. M.: transportda o'zi charchagan yoki kasal bo'lsa-da, o'zidan kattaga joy bo'shatish, kimningdir yukini ko'tarishib yuborish va h.k.

Bundan tashqari altruistik xulqni tushuntirishda quyidagi yo'nalishga asoslanuvchi nazariyalar ham mavjud. Ular altruistik xulqning asosida qanday mohiyat yotganligiga ko'ra quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: altruistik xulqni namoyon qilayotganda **boshqalarning borligi**. Talaba hech kim bo'lmagandagidan ko'ra ko'pchilik oldida o'zini altruist ko'rsatib, boshqalarga yordam qo'lini cho'zishi mumkin, bunday hol aksariyat odamlarga xosdir.

E'tiborli kishilarning bahosi. Agar inson uchun qaysidir jihatda e'tiborli kishi (ayniqsa, uning o'zi altruistik xulqni tez-tez namoyon qilib tursa yoki ayni paytda altruistik harakatni kutayotgan bo'lsa) boshqa paytdagiga nisbatan altruistiroq bo'ladi. Talaba o'zi uchun hurmatli bo'lgan o'qituvchisining yonida (agar bu o'qituvchi altruistik xulqni namoyon qiladiganlardan bo'lsa) boshqa paytdagidan ko'ra altruistiroq bo'ladi.

Javobgarlikni his qilish. Kishi boshqalar yoki qonun oldida javobgarlikdan qo'rqib, o'zi istamasa-da boshqalarga yordam beradi. Masalan: ota-onadan qo'rqib uka, singillariga yordam berish. Qonun oldidagi javobgarlikdan qo'rqib mashinada urib ketgan odamni kasalxonaga olib boradi. Ba'zi talabalar guruhida guruhdagilarning ba'zilarigina altruistik bo'lsa, to'rtinchi kursga kelib butun guruh altruistik harakat qiladi va bir-birlari uchun qayg'uradi.

Taqlidchanlik. Har bir jamiyatda kishilar o'zini qanchalik ko'p altruistik tutsa bu holatga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Agar altruistik xulqqa ega bo'lgan o'qituvchilar ko'p bo'lsa va bu xulqni ular talabalar oldida tez-tez namoyon qilsalar, talabalar ham albatta ularga taqlid qilishadi.

Jins farqi (simpatiya). Ko'pgina davlatlarda erkaklar ayollardan ko'ra kuchli jins sifatida tan olinadi. Bunday jamiyatlarda erkaklar ko'pincha jismoniy jihatdan ayollarga o'z yordamlarini taklif etadilar. Masalan, yaqin o'tmishda bizning o'zbek millatimizga tegishli bo'lgan odatlardan biri – beva ayol bo'shagan chelagini ko'cha eshigi oldiga chiqarib qo'ysa, ko'chadan o'tgan istalgan erkak unga suv olib kelib, eshigi tagiga qo'yib ketganligi xalqimizda altruistik hislarning qadrlanganligidan dalolat beradi. Ba'zan ayollardan erkaklarga nisbatan altruizمنى namoyon qilish talab etiladi. Masalan, kirini yuvib berish, ovqatini pishirib berish.

Yosh xususiyati. Barcha jamiyatlarda ham yosh bolalar yoki keksalarga nisbatan ko'proq altruistik xulq namoyon qilinadi. Chunki, ularning yoshidagilar yordamga ko'proq muhtoj bo'ladilar.

Kishining holati. Bunda yordam beruvchining va oluvchining ham holati nazarda tutiladi. Kishi o'zi qiynalib turganda o'zining holatidagi kishiga yordam qo'lini cho'zadi va g'amxo'rlik qiladi. Sessiyadan o'ta olmagan talaba o'ziga o'xshagan talabaga boshqa vaqtdagidan ko'ra mehribonroq munosabat bildiradi.

Kishining psixik xususiyatlari. Kishi qanchalik javobgar, g'amxo'r bo'lsa altruistiroq bo'ladi. Aksincha, qahrli, egoist, qaysar, odamlarga befarq bo'lsa, undan Altruizمنى kutmasa ham bo'ladi.

Kishining dinga munosabati. Islom dini altruistik munosabatlarni targ'ib qiluvchi dinlardan biridir. Unga ko'ra musulmon musulmonga har qanday vaziyatda ham yordam berishi kerak.

Sotsiolog Elvin Gouldnerning ta'kidlashicha, o'zaro me'yoriar universal nomusning yagona kodeksi hisoblanadi, ya'ni kimdir bizga yordam bersa biz ham unga yordam berishimiz, unga yomonlik qilmasligimiz kerak, degan tartib me'yorga aylanib qolgan. E. Gouldner bu me'yorni universal stil deb ataydi. Sinaluvchilardan olingan javoblarga ko'ra xat, hujjat, pul, sovg'alarni birov orqali jo'natuvchilar olib borib beruvchiga ma'lum miqdorda

pul berishadi. Ya'ni ular «pochta»sini olib borib berganligi uchun unga minnatdorchilik bildirishadi. O'zaro munosabatlarda faqat bir shaxsning yordam olaverishi va qaytarmasligi me'yorga mos kelmaydi va shaxslararo munosabatlar buziladi. Xuddi shunday holat talabalar guruhida mavjud. Ya'ni qaysidir guruhdoshining daftaridan foydalangan talaba albatta uni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Agar har qaysi shaxs o'ziga qilingan yaxshiliklarni doimiy ravishda o'zi uchun nazorat qilib borsa, bu o'zaro munosabatlarda yaxshi natija beradi. Laboratoriya eksperimenti asosida shunday xulosaga kelinganki, agar shaxs o'ziga qilingan yaxshilikka nisbatan javob qaytarish majburiyatini his qilmas ekan, ya'ni me'yor sifatida qabul qilmas ekan, o'zaro munosabatlarda egoizm shakllanadi. Mark Uotli o'z tadqiqotida shuni aniqlaganki, talabalar ularga konfet ulashib turgan guruhdoshlariga imtihondan o'tish uchun yordam berishgan. Ba'zi bir shaxslarda qilinayotgan yaxshilikni qaytarish imkoni bo'lmasa, uni qabul qilishga ham qo'rqishadi. Shuning uchun g'ururli insonlar har doim birovdan yordam so'rashga shoshilishmaydi. Agar inson shu yordamga muhtoj bo'lsa va unga adekvat javob qaytara olmasa uning vijdoni qiynaladi. Tadqiqotlar natijasiga qaraganda agar inson o'ziga qilinayotgan yordamlarning hisobini olmas ekan, kelajakda professional muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi.

Ko'rinib turibdiki, jamiyatda shaxs namoyon qiladigan xulqlar orasida egoizm va altruizm doimiy ravishda uchrab turadi.

Shaxslararo munosabatlarda stigma va diskriminatsiyaning namoyon bo'lishi

Diskriminatsiya va stigma har bir jamiyatda, har bir guruhda mavjud bo'lib, shaxsning me'yoriy hayot kechirishi, uni ushbu jamiyatda o'z o'rnini topishi, mavqega ega bo'lishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayrim hollarda esa inson huquqlari buzilishiga va eng yomoni uning himoyalangan qolishiga olib keladi. Aksariyat hollarda bunday cheklovlarga ijtimoiy zaif guruh va-

killari (ayollar, homiladorlar) yoki xavfli guruhga mansub shaxslar (giyohvandlar, OIV bilan kasallanganlar, sil kasalligi borlar), shuningdek, yoshlarga nisbatan munosabatlardagi tafovutlarda kuzatilishi mumkin.

Shaxslaro munosabatlar tizimida uchraydigan shaxsga tegishli yana bir xulq-atvor turi stigmalash holatidir. Bu atama qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, stigma – «belgi», «dog'» ma'nolarini ifodalaydi.

«Men» – konsepsiyaning inson xulq-atvoriga ta'siri borasida tadqiqot olib borgan Djenifer Kroker va Brenda Mayorlar o'tkazgan ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, badanida turli chandiqlar, teri patologiyalari, ko'zga tashlanadigan badbasharaliklar va shu kabi stigmalarga ega bo'lgan kishilarning jamiyatdagi xulqi o'ziga xos bo'lar ekan. Ulardagi jismoniy kamchiliklar boshqa insonlarning rahmini keltirishi yoki ularda qo'rquv hissini keltirib chiqarishi mumkin bo'lib, bunday odamlar o'z kamchiliklarini ataylab hammaga ko'z-ko'z qilishlari mumkin ekan. Bu bilan ular o'z kamchiliklari orqali o'z «Men»ini namoyon etishga urinadilar, chunki stigmal insonlarning «Men» konsepsiyasi markazida aynan o'z stigmasini anglash turadi.

Yana bir narsaga e'tiboringizni qaratamiz, stigmalangan o'z-o'zini anglash faqatgina qandaydir tashqi kamchilikka ega insonlarda emas, balki umuman nimasi bilandir boshqalardan ajralib turuvchi insonlarda ham shakllanishi mumkin. Albert Megrabyaning fikricha, aholisining ko'pchiligini oq tanlilar tashkil qiladigan AQSHda qora tanlilarda stigmalangan o'zini anglash shakllanib qolar ekan. Chunki ko'pchilikni tashkil qiluvchi oq tanlilar ularga o'z salbiy fikrlarini noverbal kommunikatsiya kanallari orqali yetkazib turadilar. Shu yo'l bilan milliy yoki irqiy jihatdan kamchilikni tashkil qiluvchi insonlarda yoshligidanoq stigmalangan o'z-o'zini anglash shakllanadi.

Bundan tashqari shaxs xususiyatlarida kamchiligi bo'lgan insonlarda ham stigmal o'zini anglash shakllanishi mumkin, o'zida biror-bir ustunlikni ko'rmagandan keyin ular o'z ruhiy

kamchiliklarini ro'kach qilib, shu bilan faxrlanib yurishi mumkin (Payns E., Maslach K., 2000). Albatta inson xulq-atvorini faqatgina «Men» konsepsiyaning tarkibi emas, balki, o'z-o'zini anglashning u yoki bu funksiyasi rivojlanganligi ham determinatsiyalaydi. Biroq bizga omma psixologiyasi bo'limidan shu narsa ma'lumki, inson xatti-harakatining juda kam qismi ongli bo'lib, katta qismi anglanmagan mayllar bilan shartlashadi. Shu sababli ongsizlikka singib ketgan stigmalari xohlaymizmi-yo'qmi, bizni boshqarishi mumkin. Albatta bu qarash hozirda ko'p munozaralarga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, ma'lum bir toifadagi insonlar uchun o'rinlidir.

Diskriminatsiya

Jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarda ba'zi toifa vakillariga nisbatan diskriminatsiya asosida yondashish kuzatiladi.

Diskriminatsiya umumiy tushunchada tan olmaslikni maqsad qilgan yoki tenghuquqlilik hamda uni himoya qilishni rad etgan, tenghuquqlik tamoyili va insoniylik qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday ajratish, tahqirlash, cheklash yoki afzal ko'rishni bildiradi. Amerikalik psixolog Chaldinining fikriga ko'ra, shaxslar orasida bir-biriga nisbatan diskriminatsiyaning yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin: *«ijtimoiy, iqtisodiy, diniy, irqiy, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, jinsiy oriyentatsiyasi va boshqa diskriminatsiyalar»*.

Barcha ko'rinishdagi cheklashlarni avtomatik tarzda inson huquqlarining buzilishi, ya'ni diskriminatsiya deb hisoblash mumkin. Agar ular mantiqan muvofiq va obyektiv kriteriyalarga asoslangan bo'lsa, ushbu cheklashlar oqlanishi mumkin.

Diskriminatsiyaning o'ziga xos bo'lgan uchta elementi mavjud bo'lib, biz diskriminatsiyaning barcha ko'rinishlari uchun ana shu asosiy elementlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Harakat — ajratish, tahqirlash, cheklash yoki afzal ko'rish kabi diskriminatsiyalovchi harakatlarni kvalifikatsiya qilishni anglatadi.

Sabablar — irqiy, tana rangi, kelib chiqishi, milliy, etnik kelib chiqishi, jinsi, yoshi, jismoniy barkamollik va boshqalar kabi shaxsiy tavsif diskriminatsiya sabablari hisoblanadi.

Maqsad yoki *oqibat* — diskriminatsiya o'zining maqsadiga ega bo'lib, buning oqibatida jabrlanuvchilar, qurbonlarning insoniy huquqlari va asosiy erkinliklariga to'sqinliklar yaratilishi, qo'llanilishi yoki amalga oshirilishi mumkin. Bu borada odamlar yoki ma'lum bir guruhlariga nisbatan subyekt tomonidan amalga oshirilmoqchi bo'lgan (maqsadi bayon etilgan) *bevosita diskriminatsiya* va ko'rinishidan neytral vaziyatga ega, choralar afzalligini haqiqatdan ham boshqalarga nisbatan solishtirganda bir odam, guruhga berilishiga sabab bo'lgan oqibatlarga dahldor bo'lgan bilvosita diskriminatsiyani ajrata olish zarur.

Diskriminatsiyani tushunish uchun unga beriladigan qo'shimcha tavsiflar mavjuddir. Bular:

Hukmronlik — odatda ustunlik qiluvchi guruh diskriminatsiyani kam sonli bo'lgan yoki ta'sirga nisbatan kam qarshilik ko'rsatuvchi odam va guruhlariga nisbatan amalga oshiradi. Jamiyatda odamlar yoki guruhlarning qaysidir jihatdan bir-biridan ustunlik qilishi son jihatdan (ko'pchilik kamchilikka nisbatan munosabatlarda), hukmronlik jihatdan («*yuqori sinf*» vakillari «*quyi sinf*» vakillariga nisbatan munosabatlarda) kuzatilishi mumkin. Ustunlik qilish orqali bir guruh ikkinchi guruhga nisbatan ular hech qanday ahamiyatga ega emasdek munosabatda bo'ladi, aksariyat hollarda bu guruhda asosiy inson huquqlarining cheklanishlari kuzatiladi. Kolumbiya Universiteti professori B.A. Richardsonning fikriga ko'ra, «*diskriminatsiya inson qadr-qimmatini hamda inson huquqlari amalga oshirilayotgan jarayonda ularning inkor etilishi hisoblanadi*».

Pozitiv harakatlar — pozitiv diskriminatsiya atamasining ilk bor kelib chiqishi AQSHda bo'lib, u yana «*pozitiv harakat*» nomi bilan ham ataladi. U o'zida amaliy tenglik va diskriminatsiyaning institutsiyalashgan shakliga erishish uchun yo'naltirilgan vaqtinchalik maxsus choralarni ham aks ettiradi.

Institutsional diskriminatsiya – jamiyatda, tashkilot va idoralarda tizimli ravishda tengsizlik hamda diskriminatsiyaga olib keluvchi umumiy qabul qilingan qonunlar, siyosat, urf-odat va udumlarga taalluqli. Tajribaga asoslangan harakatlar har doim juda ham munozarali hisoblanadi. Ular boshqalariga nisbatan solishtirganda ma'lum guruhlarga avvalgi tengsizliklar uchun maqsadli guruhlar, masalan, ozchilikni tashkil qiladigan etnik kelib chiquvchi ayollar guruhiga o'rnini qoplash-kompensatsiya to'lash va shuningdek hozirgi paytda barcha asosiy erkinlik, ayniqsa, ta'lim, mehnat qilish va biznesni boshqarishni amalga oshirishga teng imkoniyatlarni yaratishni bildiradi.

Bu kabi «pozitiv diskriminatsiya» ma'lum bir chegaralangan muddatlarda amalga oshirilib, bunday ko'rinisdagi afzal ko'rishga e'tibor qaratilishini diskriminatsiya deb hisoblanmasligini alohida ta'kidlash kerak.

Diskriminatsiya (Discrimination) — ma'lum bir odamlarga nisbatan, ularning qandaydir guruhga tegishliligi tufayli namoyon qilinadigan fe'l-atvor xususiyatlaridir. Biroq diskriminatsiyaning ba'zi ko'rinishlari alohida odamlar tomonidan emas, balki ijtimoiy institutlar tomonidan ham namoyon etiladi va u institutsional diskriminatsiya deb aytiladi. *Institutsional diskriminatsiya (institutionalized discrimination)* — ma'lum bir madaniyatning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlari tarkibiga kiradigan diskriminatsiyadir (Feagin & Feagin, 1999). U to'g'ridan to'g'ri dushmanlik kayfiyatida bo'lishi mumkin, masalan, rasmiy qonunchilik ma'lum bir guruhlarga biror joyda yashashni yoki ma'lum bir sohada ishlashni taqiqlashi shunday diskriminatsiyaga misol bo'ladi. Masalan, XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligida yahudiylarga davlat mansablarida ishlash taqiqlangan, bellariga qizil tasma taqib yurishlari shart qilib qo'yilgan, faqat yakshanba kunlarigina bozorga chiqishlari mumkin bo'lgan. Boshqa bir misol, O'rta Osiyoda XIX asrda ayollar davlat mansablariga yaqinlashtirilmagan va madrasalarda o'qishi taqiqlangan. Jahon tarixida ham bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. AQSHda

quldorlikni qo'llab-quvvatlovchi yoki ayollarning kamsitilishiga yo'l qo'yuvchi qonunlarning mavjud bo'lganligi bunga yaqqol misoldir. Hozirda bunday ochiqdan ochiq diskriminatsiyalar xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra taqiqlansa-da, uning ba'zi shakllari saqlanib qolmoqda. Lekin jamiyatda shunday me'yorlar ham borki, ular diskriminatsiyani odatiy holga aylantiradi. Masalan, ayollarni ehtiyot qilish, ularni asrash kerakligi nafaqat bizning jamiyatimizda, balki butun dunyoda me'yor hisoblanadi, ayni shu me'yor ruda konlari direktorlarining ayollarni kon ishlariga olmasliklariga sabab bo'ladi. Lekin ayollarga nisbatan ba'zi cheklolarning mavjudligi ularning diskriminatsiyalanishi emas, balki ularning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotganligini hisobga olinsa, bunday holatlarni diskriminatsiya deb atab bo'lmaydi. Bunday munosabatlarni tushunish uchun ijtimoiy psixologiya sohalaridan biri sifatida gender munosabatlarni o'rganish lozim bo'ladi.

Shaxs va uning tolerantligi tushunchasi

Rus psixologlaridan B.G. Ananyev o'tgan asrning 60-yillarida tolerantlik atamasidan birinchi bo'lib foydalangan bo'lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olimi G.L. Bardiye (2007) tadqiq etgan.

Aniq sharoitlarda, ya'ni ijtimoiy voqeliklar va jarayonlar (referent guruhdagi ijtimoiy hamkorlik)da tolerantlikni shaxs faoliyatida tutgan o'rni hamda uning qay tarzda namoyon bo'lishi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga qator olimlar o'z diqqatlarini qaratib kelmoqdalar.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassisleri ta'rif berib o'tganlar. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma'noda – lotincha chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe'llik ma'nosida «tolerantia» so'zidan olingan bo'lib, falsafada bag'rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalaydi.

Psixologik ma'noda tolerantlik bu individning o'z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvaffaqiyatli moslashish, adovatga

yo'l qo'ymaslik va uni o'rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma'no-mazmun kashf etgan.

O'zga millat vakilini tan olish unda o'zi uchun aziz bo'lgan boshqacha qadriyat, mantiqiy fikrlash, turmush tarzi, madaniyat mavjudligini anglab yetishdan iboratdir.

Qabul qilish — bu o'zga din va millat vakilining bizga nisbatan farqli jihatlariga ijobiy munosabatda bo'lish demakdir.

Tushunish esa o'zga din va millat vakilining ichki dunyosini ko'ra olish, unga o'zi va o'zgalar nuqtayi nazaridan yondashish demakdir.

Milliy bag'rikenglik — turli millatga mansub kishilarning birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshiradigan o'ziga xos ma'naviy kenglik (bag'rikenglik)ni anglatadi.

Tolerantlik — o'zgalarning xulq-atvori, e'tiqodlari va qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag'rikenglik; shaxsiy qarash va nuqtayi nazarlardan farqlanuvchi fikr va mulohazalariga bo'lgan munosabatdir.

Tolerantlikning psixologik adabiyotlarda o'rganilishi

Boshqa fan sohalarida bo'lgani kabi psixologiyada ham tolerantlikni kundalik va ilmiy tushuncha sifatida farqlash lozim. Biroq hozirgi zamonaviy adabiyotlarda bunday farqni sezish mushkul. Tolerantlikka berilgan ba'zi ta'riflar bilan tanishib chiqishning o'zi kishini shunday xulosaga kelishga undaydi. Xo'sh, bu ta'riflarning asosiy mazmuni qanday? Ular quyidagi holatda namoyon bo'ladi: «qarama-qarshilik sharoitida hamkorlik qadriyati»; «o'zingning shaxsiy maqsad va qiziqishlaringdan farqlilarini qabul qilishing»; «eshitganlaring o'z dunyoqara-

shingga qanchalik nomutanosib bo'lmasin, sabr bilan eshitish, turli fikrlar bilan hisoblashish qobiliyati»; «tinchlik va xotirjamlikka intilish». Yuqorida keltirilgan barcha ta'riflar tolerantlik fenomenining ta'rifi bo'la oladi.

Tolerantlikning namoyon bo'lishiga ko'ra turlari

<i>Turkum</i>	<i>Turlari</i>	<i>Tarkibi</i>
Komponentlari	Ijtimoiy munosabat aspekti (attityud)ga ko'ra	Affektiv, kognitiv, konativ
	Shaxs faolligi komponentiga ko'ra	Ehtiyojlar, motivlar, me'yorlar, qadriyatli yo'nalganlik, faoliyat stili, shaxsiy mazmun, shaxsiy va ijtimoiy (guruh) moslik.
Ko'rinishlari	Farqlarga ko'ra	Avlodlararo, jinslararo (genlar), shaxslararo, madaniyatlararo, dinlararo, kasbiy, boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tolerantlik
Tiplari	Tolerantlik subyektiga ko'ra	Shaxsiy, guruh
	Tolerantlik obyektiga ko'ra	Shaxsiy, guruh, shuningdek situativ (o'z ichiga noaniqlikka nisbatan tolerantlikni oladi)
Darajalari	Psixikaning funksiyasiga ko'ra	Psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik
	Namoyon bo'lish darajasiga ko'ra	Past, o'rta, yuqori

Namoyon bo'lish shakllari	Intolerantlik yo'nalishiga ko'ra	Geterointolerant, auto-intolerant
	Ochiqlik darajasiga ko'ra	Ochiq, yashirin
	Anglanganlik darajasiga ko'ra	Anglanmagan, anglangan

Tolerantlik fenomenining differensiyallashgan tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy tolerantlik – yosh bolalarga xos bo'lgan va uning shaxsiy «Men» sifatlari assotsiatsiyalashmagan – ochiqlik, mehribonlik, ishonuvchanlik («A» tipli tolerantlik);

- ma'naviy tolerantlik – insonning tashqi «Men»i bilan assotsiatsiyalashgan sabr, sabrlik («B» tipli tolerantlik);

- axloqiy tolerantlik – ichki «Men» bilan assotsiatsiyalashgan qabul qilish va ishonch tuyg'ulari («D» tipli tolerantlik).

Ushbu tolerantlik tiplariga batafsil to'xtalib o'tamiz:

«A» tipdagi tolerantlik – bu boshqa bir insonni so'zsiz, tabiiy ravishda, boricha qabul qilish, unga nisbatan qadri va aziz mavjudod sifatida munosabatda bo'lishdir. Bunday tolerantlik yosh bola hayotida katta o'rin egallaydi, chunki uning shaxs bo'lib shakllanish jarayoni hali individual va ijtimoiy tajribalarni his etishga yetib bormagan.

Tolerantlikning bu turi bolalar psixologiyasi va psixoanalizida yetarlicha tadqiq yetilgan. Go'dak o'z ehtiyojlariga nisbatan mutlaqo sabrsiz – u ochlik, sovuq, emotsional «huvillash»ga nisbatan chidamsizdir. U o'zidagi bazaviy ehtiyojlarning qondirilishini o'ziga xos bo'lgan qurol – yig'i bilan talab qilishga moyil. Agar unda boshqa «qurol» bo'lganida edi, u albatta undan foydalangan bo'lar edi. Keyinchalik ota-onalar o'z farzandlarini sabrlikka o'rgatadilar, ba'zida esa ayrim kattalar o'z ehtiyojlarini tezda qondirilishini talab etib, «go'dakligicha» qolib ketadilar.

Tolerantlikning «A» tipi yosh bolalarning o'z ota-onalarini, hattoki ular qattiqqo'l munosabatda bo'lganlarida ham – psixo-

logik yoki jismoniy zoʻravonliklar jarayonida ham mehribondek qabul qilinishining asosidir. «A» tipdagi tolerantlikning mavjud boʻlishi yomon munosabatning namoyon boʻlishidan psixologik, subyektiv himoyalanganlik va ota-onalari bilan ijobiy munosabatni saqlashga yordam beradi.

«B» tipdagi tolerantlik shaxs sifatida oʻzini koʻrsatish uchun xarakterli boʻlgan, individning shaxs boʻlib shakllanish jarayonining ixtiyoriy qismi hisoblanadi. Koʻpincha bu tip katta yoshdagilarga xos ekanligini alohida qayd etish lozim. Tolerant shaxs koʻproq bosiqlikka harakat qiladi, bunda u koʻpincha himoya mexanizmlaridan foydalanadi. Biroq baʼzida u oʻzining hayajonlarini, hissiyotlarini, aytmoqchi boʻlgan noroziliklari va agressiyalarini yashiradi. Shuni aytish mumkinki, koʻpincha «B» tipdagi tolerantlik haqiqiy boʻlmagan, qisman namoyon boʻluvchi, shartli, madaniy tolerantlikdir. Yaʼni bu tipdagi tolerantlikka misol keltiradigan boʻlsak, quyidagicha ifodalarni koʻrish mumkin: «Biz sizga sabr qilamiz, chunki ...»; «Sharoit shuni taqozo qiladiki, biz sizga chidashga majburmiz, chunki ...»; «Ayni paytda men oʻzimdek boʻla olmayman va oʻzimni sabrlidek qilib koʻrsatib turishga majburman ...»; «Men boshqa narsa haqida oʻylayman, lekin buni oshkor aytish ...».

«B» tipdagi tolerantlik bu berk, yashirin ichki agressiya boʻlib, bunday sabrlilik bir qarashda sabrsizlikdan yaxshiroq boʻlib koʻrinsa-da, unisi ham, bunisi ham tabiatan bir xil hodisalar hisoblanadi. Ularning psixologik asosi bir xil boʻlib, ular orasidagi farq sifat jihatdan emas, faqatgina son jihatdandir. Shuni aytish mumkinki, «D» tipdagi tolerantlik – sabrsizlikning teskari tomoni boʻlib, inson ustidan turli xildagi zoʻravonlik, manipulyatsiya, uning subyektiv tavsiflarining suiisteʼmol qilinishidan iboratdir.

«D» tipdagi tolerantlik inson tomonidan atrofdagilar bilan bir qatorda oʻzini ham bir xilda qabul qilishdir. Zoʻravonlik va manipulyatsiyaga qarama-qarshi bunday oʻzaro taʼsir etish boshqa inson uchun qadri boʻlgan ichki qadriyatlar, hayotning mazmuni, his-hayajonlariga hurmat bilan qarashni va ularni toʻgʻri

qabul qilishni aks ettiradi. Bu haqiqiy yetuk, asl pozitiv tolerantlik bo'lib, «A» va «B» tipdagi tolerantliklarga nisbatan inson haqiqatini chuqurroq va to'liqroq anglashga asoslanadi.

Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatdagi o'zaro sabrsizlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, bu kattalarning sabrliligi, ya'ni tolerantligi oqibatidir. Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bolaning oiladagi erta psixologik jarohatlanishi, doimiy ravishda bolaning individual namoyon bo'lishini bosib borilishi natijasida shaxsning avtoritar intolerantligining rivojlanishiga olib keladi.

Avlodlar o'rtasidagi nizo, bu eng avvalo, qadriyatlar tizimi konfliktidir. Masalan, o'smirlik yoshidagi ko'pgina muammolar asosan ularning ota-onasi bilan munosabatdagi sabrsizligi bilan bog'liqdir. Albatta bu sabrsizlik birdaniga yuzaga kelmaydi. O'smirlik davridagi nizolar shunisi bilan qiziqki, tolerantlik ko'rinishlari shakllanishining ketma-ketligini inobatga olgan holda o'smirni «kattalarning kattasi» sifatida ko'rib chiqishi mumkin. O'smir katta bo'lib borgan sari uning hayotidagi barcha o'zgarishlar uning uchun yangilik bo'lib, hali o'smir tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan bo'ladi. O'zining sabrsizligi, qattiqqo'lligi, qat'iyatliligida o'smir kattalardan ancha o'zib ketadi. O'smir «o'z olamida» yashaydi, uning qadriyatlari tizimi yaxshilik va yomonlik dualizmiga asoslangan bo'lib, aynan ularni atrof-olamga ko'chirishga intiladi; kattalar esa ularning ruhiy mavjudlik tomonlarini kuchaytirish o'rniga, ularni ko'proq ijtimoiylashtirishga harakat qiladilar; buning natijasida rezonans yuzaga keladi, ya'ni ota-onasining negativ atmosferasi ta'sirida o'smirda negativizm kuchayib boradi.

Aynan o'smirlik yoshida o'ziga xos «tuynuk» paydo bo'lib, bu tuynuk «A» tipdagi tolerantlik bilan «B» tip tolerantlik o'rtasida hosil bo'ladi; o'smir endi bola uchun xarakterli bo'lgan «A» tipdagi tolerantlikka toqati yo'q va o'z navbatida kattalarga xos bo'lgan sabrlilik tolerantligiga ham hali tayyor emas. O'smirlik

suitsidi aksariyat holatlarda, o'smirning «marginal tolerantligi» kabi chegaralangan imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Kattalarning yosh bolalar bilan o'zaro munosabatidagi muammo shundan iboratki, bolani emas, o'zini-o'zi qabul qilishini, ya'ni ota-onalarning o'zlarini birlamchi qabul qilishlari va bu narsa qandaydir «soya»ni his etishni yuzaga keltiradi.

«D» tipdagi tolerantlik bir qator muloqot amaliyotlarining o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan hisoblanib, psixoterapevtik effektga egadir.

Tolerantlikni tushuntirishga oid ilmiy yondashuvlar

Tolerantlik turli falsafiy va psixologik yondashuvlarda ko'rib chiqiladi. Hozirgi kun adabiyotlarida bixevioral (tolerantlik insonning alohida xulq shakli sifatida ko'riladi) va kognitiv (tolerantlik o'z asosida bilim va ratsional sabablarga ega) yondashuvlar ustunlik qiladi.

Tolerantlikka nisbatan bir qancha yondashuvlar bu borada o'ziga xos fikrlarni bildiradi.

Shaxsiy yondashuv – tolerantlikning murakkab anatomiyasida uning psixologik asosi va bosh o'lchovi – tolerantlikning shaxsiy o'lchami (qadriyatlar, shaxsiy ustanovkalar) hisoblanadi.

Fasilitativ yondashuv – shaxslararo munosabatlar jarayonida to'liq tolerantlik nafaqat shakllanadi, balki rivojlanadi ham; tolerantlikning shakllanishida unga rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar yordam beradi.

Bundan tashqari ekzistensial-gumanistik yondashuv – tolerantlik qandaydir omillar harakatining mexanik natijasi hisoblanmaydi, haqiqiy tolerantlik – bu shaxsning anglangan va mas'uliyatli tanlovi bo'lib, insonning boshqalar bilan munosabat o'rnatishdagi pozitsiyasi va faolligidir. Ekzistensial-gumanistik nuqtayi nazarda to'liq, yetuk tolerantlik bu so'zsiz anglash, tushunish va mas'uliyatlilikdir. Bunday tolerantlik avtomatizm ya'ni oddiy stereotipik harakatlardan emas, balki qadriyat va hayotiy pozitsiya bo'lib, ularni amalga oshirish har bir konkret vaziyatda

o'ziga xos ma'noga ega va tolerantlik subyektdan ushbu mazmunni izlashni talab etadi.

Tolerantlikka diversifikatsion yondashuv — tolerantlikning psixologik mazmuni, alohida bir xususiyatga tavsifga olib kelinishi mumkin emas, bu murakkab, ko'p aspektli va ko'p komponentli fenomen bo'lib, bir nechta bazaviy o'lchamlarga ega.

Aksariyat hollarda murakkab psixologik hodisalarni tasvirlashda komponentlar triadasidan foydalaniladi. Bu triada quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv komponent, emotsional komponent va xulq-atvor komponenti. Ushbu sxemani qo'llashga intilishlar tolerantlikda ham paydo bo'ldi. Eng umumiy hollarda yuqoridagi komponentlarning asosiy mazmuni yoki tolerantlik o'lchamlar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

Tolerantlikning KOGNITIV komponenti.

Bu komponent yaqqol ko'rinuvchi va ko'p jihatdan tadqiq etilganligi uchun tolerantlik ko'pincha kognitiv «transkripsiya»da tasvirlanadi. Bu yerdagi asosiy jihatlar murakkablik, ko'p o'lchamlilik, oldindan bashorat qilib bo'lmasligi, u haqdagi individual fikrlar tabiatini tan olishdir. Shuning uchun ham u haqdagi fikrlarni yagona haqiqatga birlashtirishning imkoni yo'q. Yuqoridagi aspektlar tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasida ham ta'kidlab o'tilgan, unda tolerantlik — bu «eng avvalo bizning olamni, inson individualligining namoyish bo'lish shakllari turlichaligi, boyligini to'g'ri anglashimizdir», — deyiladi. Tolerantlikning kognitiv komponenti inson tomonidan murakkablik va ko'p o'lchamlilikni qabul qilish va tushunishdan iborat bo'lib, bular hayotiy haqiqat bilan bir qatorda uni qabul qilish variantlarining turlichaligi, ularni turli insonlar tomonidan turlicha baholanishi va tushunilishi, nisbiy va to'liq emasligi, subyektivligidir. Tolerantlik kognitiv o'lchamda aynan qarama-qarshilik holatlarida namoyon bo'ladi: fikrlarning to'qnash kelishi, qarashlarning mos kelmasligi va hokazo. Bu mos kelmaslik plyuralizmni qabul qilish, interpretatsiyalarning boyligidan dalolat beradi. Kognitiv intolerantlik tolerantlikning aksi bo'lib,

me'yor mavjudligi pozitsiyasidan kelib chiqadi, shuning uchun u fikrlarning ko'p bo'lish imkoniyatini rad etadi va har qanday fikrlar plyuralizmi, insonlarning turlicha nuqtayi nazarlarini xatolik, adashish va hatto atayin qarshi chiqish deb baholaydi. Tolerantlik shuningdek, shaxsning suhbatdoshi bilan ma'lum vaziyat ustidan turlicha fikrlar bildirish imkoniyatini ham anglatadi, kognitiv «nizo» shaxslararo nizoga olib kelmaydi.

Tolerantlikning EMOTSIONAL komponenti

Tolerantlikda empatiyaning ahamiyati beqiyos va bu fikrni deyarli barcha tadqiqotchilar ma'qullagan. Tolerantlikning emotsional tashkil etuvchisining ahamiyati shundaki, aynan shu o'lchov kommunikativ jarayonda suhbatdoshlarni o'zaro umumiylikka erishishlari, uzilgan insoniy aloqalarni tiklashlari imkonini beradi. Bundan tashqari empatiya suhbatdoshlar o'rtasidagi kognitiv yoki xulq-atvor tekisligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatish imkonini beradi. To'liq empatiya bebaho va bu ma'noda mazmunan tolerantidir. Emotsional komponentning alohida tashkil etuvchisi sifatida emotsional barqarorlikning o'ziga xos ko'rinishi — «affektiv tolerantlikni» aytish mumkin. Uning mazmuni emotsional tolerantlikni, og'riqli hislarni sabr bilan yengish va hokazo. Tolerantlikning ushbu ko'rinishining boshqa bir aspekti o'zga kishining turli emotsional ko'rinishlariga sabrli munosabatda bo'lishi bilan bog'liq. Rivojlangan affektiv tolerantlik insonga shaxsiy emotsional jarayonlar bilan bir qatorda boshqa insonlarning his-hayajonlarini yaxshiroq anglashga, asabiylashmay va ulardan yomon ma'no izlamay qabul qilishga yordam beradi.

Tolerantlikning XULQ-ATVOR komponenti

Ushbu o'lchov «tolerantlik aysbergi»ning eng ko'zga ko'ringan qismini tashkil etadi va odatda o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Xulq-atvor tolerantligiga ko'plab ko'nikma va qobiliyatlarni kiritish mumkin, ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:

1) tolerant fikr bildirish va o'z nuqtayi nazarini shaxsiy mulohaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;

2) boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo'la olish qobiliyati, ya'ni o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o'ziga xos fikri borligi va u ham bu fikrni bildirish huquqiga ega ekanligini tan olish;

3) nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtayi nazar, fikrlar to'qnashuvi yuz berganda) tolerant bo'la olish qobiliyati.

Bular orasida oxirgi uchinchisi, nafaqat xulq-atvor o'lchamida, balki boshqa o'lchamlarda ham alohida e'tiborni talab etadi. Tolerantlikning ushbu aspektlarini tadqiq etishda B.I.Xasanning konflikt va konflikt kompetentligi konsepsiyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv komponent tolerantlik prinsiplarini qabul qilish, tushunish, fikrlash, interpretatsiyalashni nazarda tutsa, verbal komponent «ilmiy tashkil etuvchilar» bilan chegaralanadi. Bu tolerantlikni eng sodda va yuzaki o'lchamidir.

Tayanch tushunchalar:

Gedonizm — shaxs va uning xulq-atvor motivlarida birgina istak — nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligi.

Egotsentrizm (lot. «Ego» — men va «centrum» — doira markazi) — insonning o'z fikr-o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolganligi, buning oqibatida atrof-muhitga va odamlarga oid bilimlarini hamda o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligi.

Altruizm — hech qanday manfaatni kutmagan holda boshqalarga yordam berish.

Empatiya nazariyasi — altruistik xulqdagi kishining o'zi ham anglamagan holda boshqalar uchun qayg'urish va g'amxo'rlik qilishga moyilligi.

Ijtimoiy me'yortiv nazariya — kishining ijtimoiy rol va ijtimoiy me'yorlarni yaxshi o'zlashtirganlari uchungina altruistik xulqni namoyon qilishi.

Stigma – yunon tilidan olingan bo‘lib, stigma – «belgi», «dog‘» ma‘nolarini ifodalaydi. Shaxslaro munosabatlar tizimida uchraydigan shaxsga tegishli yana bir xulq-atvor turidir.

Diskriminatsiya – umumiy tushunchada tan olmaslikni maqsad qilgan yoki tenghuquqlilik hamda uni himoya qilishni rad etgan, tenghuquqlik tamoyili va insoniylik qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday ajratish, tahqirlash yoki cheklash.

Tolerantlik – kengfe‘llik ma‘nosida «tolerantia» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgalarning xulq-atvori, e‘tiqodlari va qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ularini bildiradi.

Nazorat savollari:

1. Gedonistik psixologiyaning asosini nimalar tashkil etadi?
2. Egotsentrizm nima va uning yuzaga kelish sabablarini aniqlang.
3. Altruizm nima?
4. Altruizmni tushuntirishda qanday nazariyalar mavjud?
5. Qanday harakatlar manfaatni ko‘zlab amalga oshiriladigan altruistik harakatlar deyiladi?
6. Egoizm nima?
7. Niqoblangan egoizm deganda nimani tushunasiz?
8. Altruizmga taqlidchanlikning o‘rni qanday?
9. Stigma diskriminatsiyaga ta‘rif bering.
10. Tolerantlikning ijtimoiy psixologik mohiyatini tushuntiring.

TEST

1. Shaxslararo munosabatlar jarayonida shaxsning ishtiroki va bu jarayonda shaxslar o‘rtasida kechadigan munosabatlarni o‘rganish ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bunday munosabatlar sirasiga shaxs xulq-atvoriga tegishli bo‘lgan ...

a) altruizm, egoizm, agressiya, tolerantlik, stigma, diskriminatsiya kiradi

b) agressiya, tolerantlik, stigma, diskriminatsiya, manfaatni ko'zlash, empatiya kiradi

c) altruizm, egoizm, agressiya, tolerantlik, stigma, ijtimoiy me'yortivlar kiradi

d) manfaatni ko'zlash, empatiya, ijtimoiy me'yortivlar tashkil etadi

2. Qaysi olim o'zining kitobida yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo'lgan voqealarni, egoizmning jiddiy ta'sirini ko'rsatib o'tadi?

a) Patrik Byukenen

b) V.G. Ananev

c) Djon Makleod

d) G.L. Bardiyer

3. Gedonizm – bu ...

a) insonning o'z fikr-o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolganligi, buning oqibatida atrof-muhitga va odamlarga oid bilimlarini hamda o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligi

b) shaxslararo munosabatlar tizimida uchraydigan shaxsga tegishli yana bir xulq-atvor turidir

c) shaxs va uning xulq-atvor motivlarida birgina istak – nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligi

d) o'zgalarning xulq-atvori, e'tiqodlari va qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ularini bildiradi

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIVLIGI MUAMMOSI

Agressiya tushunchasi

Shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri bu agressiyadir. Inson agressiyasini o'rganish serqirra mavzu bo'lib, u ushbu fenomenning asl mohiyatini ochib berishga urinayotgan olimlarning diqqatini o'ziga tortib keladi.

Oddiy kundalik hayotda agressiya zo'ravonlik yoki raqibni yengish uchun vosita sifatida qo'llaniladi. Agressiya kishilar o'rtasidagi turli kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan biri bo'lib, u shunday atamaki, unga oid mulohazalar nafaqat psixologlarni, balki sotsiolog, huquqshunos, pedagog, faylasuf, qisqasi, ijtimoiy soha xodimlarining barchasini birdek qiziqtiradi. Agressiya tushunchasining o'ziga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki, bu termin ko'plab xatti-harakat shakllarini o'zida qamrab olgan. Odamlar biron-bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan, o'z g'oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson, deb ta'riflashlari mumkin. Agressiyaga nisbatan berilgan bunday ta'rif to'g'ri yoki noto'g'riligini bilish uchun bu tushunchaga oydinlik kiritish lozim.

Agressiyaga aloqador eng birinchi va balki eng mashhur nazariy tushunchaga asosan bunday fe'l-atvor o'z tabiatiga ko'ra ko'p jihatdan instinktivdir. Bu yondashuv juda keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra insonda genetik va konstitutsional jihatdan shunday harakatlar «programmalashtirilgan»ligi tufayli uning xulq-atvorida agressiya sodir bo'ladi.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtayi nazarlar ichida eng mash-

huri U. Makdaugoll, Z. Freyd, G. Marrey va boshqa olimlarning «Inson va hayvonlarda agressiyaning tugʻma instinkti mavjud boʻladi» degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar XX asr boshlarida yuzaga keldi. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya boʻlib, unda agressiyaning sababi frustratsiya nazariyasi bilan bogʻliq ravishda tahlil etilgan. Unga koʻra agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunday qarash birinchi marta D. Dollard tomonidan ilgari surilgan. Ammo ushbu nuqtayi nazar amaliyotda oʻz tasdigʻini topmadi. Agressiv xulq-atvor xususidagi ikkinchi nuqtayi nazar L. Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga koʻra, maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan toʻsiq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtayi nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bogʻliq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi:

1. Subyektning oʻz agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi.
2. Frustratsiyaning mavjudligi.
3. Affekt yoki stress tipidagi emotsional qoʻzgʻalishning kuchliligi.

R. Kratchfild va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar. Birinchisi, xulq-atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi va unga koʻra «Agressiya kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday koʻrinishidir». Ikkinchisi, odamning ichki niyatlari bilan bogʻliq boʻlib, insonni harakatga undovchi kuchlarni oʻrganish bilan anglash mumkin boʻlgan holatlar bilan mushtarakdir, yaʼni, «Agressiya boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan koʻplab psixologlar agressiyani jonli olamning yashash uchun kurash bilan bogʻliq uzviy tavsifsi deb hisoblaydilar.

Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor ko'rinishidir.

Bir qancha taniqli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan agressiyaning ikkinchi ma'nosi esa quyidagini o'z ichiga oladi: u yoki bu harakatlar agressiya sifatida kvalifikatsiyalanishi uchun ular kimnidir oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi shart emas, balki xafa qilish va haqoratlashni maqsad qilib qo'yish ham agressiyadir. Va nihoyat uchinchi nuqtayi nazar N. Zilman tomonidan bildirilib, unga ko'ra agressiya boshqalarga tan jarohati va jismoniy jarohatlar yetkazish demakdir.

Agressiya tushunchasini talqin qilishdagi kelishmovchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko'plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtayi nazarda bayon etilgan ma'nosini ma'qullashga ko'proq moyillik bildiradilar.

Shaxslararo munosabatlarda agressiv xulqning namoyon bo'lishi

L. Berkovits (1968, 1981, 1995) va boshqa tadqiqotchilar bunday stimullar qatoriga qurol kirishini aniqlashdi. Tajribalarning birida o'yinchoq qurol o'ynagan bolalar o'yindan so'ng boshqalar kubiklardan qurgan uychani osongina buzib tashlashgani kuzatilgan. Yoki yana bir tajribada Viskoniya universiteti talabalari ko'z oldilarida qurol turganda (ularning nazarida bu qurol oldingi tajribadan so'ng tasodifan unutib qoldirilgan edi) o'z «dilozor»lariga ko'proq kuchlanishli tok yuborishgan. «Tasodifan unutib qoldirilgan predmet»lar qurol emas, tennis raketkasi bo'lganida esa tokni kamroq yuborishgan. AQSHda sodir bo'layotgan qotilliklarning teng yarmi shaxsiy qurol orqali amalga oshirilishini bilganda, L. Berkovits unchalik lol qolmadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda uyda qurol saqlansa, u qachondir otiladi va qandaydir begona kishi emas, balki atrofdagi tanishlardan birovi jabrlanadi. «Qurol nafaqat jinoyat sodir qilishga imkon beradi, — deydi L. Berkovits, — balki u jinoyat sodir qilishga un-

dashi ham mumkin. Barmoq tepkiga talpinadi, shuningdek, tepki ham barmoqqa talpinadi».

Bu tushuncha agressiyani emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki xulq-atvor modeli sifatida ko'rishni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'dirdi. Agressiya termini ko'p hollarda g'azab kabi negativ (salbiy) his-tuyg'ular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ ko'rsatmalar sirasiga kiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar yetkazish bo'lgan xulq-atvorda albatta muhim rol o'ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo'la olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart bo'lib hisoblanmaydi, boshqacha qilib aytganda, ayrim holatlarda agressiya o'ta sovuqqonlik holatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgani kabi, o'ta kuchli hayajon holatida ham paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishlari yoki ularni yoqtirishlari umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar.

Shunday qilib, hozirda ko'pchilik tomonidan «Agressiya boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan xulq-atvorning har qanday shakli», degan tushuncha qabul qilingan.

Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda D. Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi.

Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy Verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ko'plab agressiv harakatlarni ular asosida tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisi ustidan otib, pichoqlab yoki kaltaklab zo'ravonlik qilishi ham jismoniy, ham aktiv, ham to'g'ri shkala sifatida kvalifikatsiyalanishi mumkin.

Agressiyaning ijtimoiy ma'qul va assotsial agressiv xulq-atvor turlari farqlanadi. Ijtimoiy ma'qul agressiya turida frustratsiya, affekt, stress va nizo natijasida kelib chiquvchi zo'riqish hamda xavotirlanish ijtimoiy me'yorlarga mos keluvchi harakatlar orqali hal qilinadi. Assotsial agressiv xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zid bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ladi.

D. Bassning agressiya kategoriyalari

Agressiya tipi	Misollar
Jismoniy-aktiv-to'g'ri	Odamni sovuq qurol bilan jarohatlash, uni kaltaklash va o'qotar qurol bilan yaralash
Jismoniy-aktiv-egri	Qopqon-minalarni qo'yish; yollanma qotil bilan dushmanini yo'q qilish uchun til biriktirish
Jismoniy-passiv-to'g'ri	Odamning maqsadga erishishiga yoki istagan faoliyati bilan shug'ullanishiga (masalan, o'tirib o'tkaziladigan namoyish) jismonan yo'l qo'ymaslikka harakat qilish
Jismoniy-aktiv-egri	Zarur vazifalarni bajarishdan bosh tortish (masalan, o'tirib o'tkaziladigan namoyish paytida hududni bo'shatib qo'yishdan bosh tortish)
Verbal-aktiv-to'g'ri	So'z bilan haqoratlash yoki boshqa odamni kamsitish
Verbal-aktiv-egri	Boshqa odamga tuhmat qilish yoki u haqida mish-mishlar tarqatish
Verbal-passiv-to'g'ri	Boshqa odam bilan gaplashishdan, uning savollariga javob berishdan bosh tortish va boshqalar
Verbal-passiv-egri	Aniqlik kiritishdan va tushuntirib berishdan bosh tortish (masalan, nohaq tanqid ostiga olingan odamni himoyasi uchun biron-bir gap aytishdan bosh tortish)

Agressiyaning turli: bevosita jismoniy kuch ishlatishdan, raqibni so'z bilan haqoratlab unga tahdid qilishdan tortib, boshqa

bir insonni yashirincha boshqarishga, kelgusida kutilayotgan noxushliklarga shama qiluvchi bilvosita ta'sir ko'rsatish shakllari kuzatiladi. Shuningdek, agressiyaning ijtimoiylashuvga bo'ysunmaydigan dardmandlik darajasiga boruvchi shakllari ham ma'lum. Psixologiyada agressiv xulq-atvor quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Agressiyaning dardmandlik darajasidagi alomatlarini (tutaqib ketish, jahl kelganda o'zini yo'qotib qo'yish).

2. Agressiyaning jismoniy og'zaki va boshqa butun jamiyat uchun nomaqbul sanalgan axloq qonun-qoidalarini bilan bog'liq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksilijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq bo'ladi).

3. Jamiyatda qabul qilingan axloq qonun-qoidalarini yetarlicha o'zlashtirilmaganligi yoki xatti-harakatlarini idora qilish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni to'liq shakllanganligi bilan bog'liq agressiyaning turli ko'rinishlari (ta'lim-tarbiya ko'rmaganlik).

4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressivlik haq-huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qilinadigan barcha xatti-harakatlar.

Agressiv xulq-atvor bu inson bilan vaziyatning o'zaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bo'lib, barcha xossalari kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Deyarli to'liq nomavjudlikdan to yetarlicha rivojlangan agressivlikkacha namoyon bo'ladi. Agressivlik har bir shaxsda ma'lum miqdorda mavjud bo'ladi. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan kishilar boshqalarga nisbatan agressiv reaksiyalarni namoyon etishga ko'proq moyil bo'ladilar. Agressiv reaksiyalarga boshqa odamlarni qoralash, haqoratlash yoki ularga jismoniy zarar yetkazishga yo'naltirilgan reaksiyalarni kiritishimiz mumkin.

Agressiv xulq-atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi. Agressiv xatti-harakatlar shaxsga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazishi, destruktiv xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta'sir

ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Bunday xatti-harakatlarni bartaraf etishning psixologik jihatdan qiyin tomoni shundaki, agressiv xatti-harakat qiluvchi shaxs o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun turli xil dalillarni keltiradi va o'z aybini soqit qilishga urinadi. Agressiyaning tez-tez ifodalanishi shaxsning emotsional holati bo'lib, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

– nerv-psixik kasalliklar, inson nerv sistemasining nihoyatda charchaganligi;

– oiladagi psixologik muhitning nosog'lomligi va ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi;

– shaxsning xarakter, xislati, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Agressivlikning me'yordan ortishi natijasida shaxsda asab tizimining buzilishi, nerv-psixik kasalliklar, kommunikativ malakalarning pasayishi, o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik, ishonch hissining yo'qolishi, o'z-o'zini boshqara olmaslik, xavotirlanish darajasining ortishi, frustratsiya, depressiya, stress kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi.

Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan agressiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorning oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatidagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Agressiv xulq-atvor borasidagi nazariyalar

Agressiv xulq-atvorni har tomonlama tushuntirib beruvchi nazariyalar mavjud bo'lib, ularning har biri agressiya va uni keltirib chiqaruvchi omillarni batafsil tushuntirib beradi. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

- Psixoanalitik yondashuv.
- Etologik yondashuv.
- Sotsiologik yondashuv.
- Frustratsiya nazariyasi.

- Ijtimoiy o'rganish nazariyasi.

Agressiyaga aloqador eng birinchi va eng mashhur nazariy tushunchaga asosan bunday xulq-atvor o'z tabiatiga ko'ra ko'p jihatdan instinktivdir. Bu yondashuv keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra inson genetik va konstitutsional ravishda shunday harakatlarni bajarishga «programmallashtirilgan»ligi tufayli agressiya sodir bo'ladi.



Agressiyani tushuntirishda psixoanalitik yondashuv. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra agressiya – bu instinktiv fe'l-atvor turlaridan biridir. Bu nazariyaning yaratuvchisi bo'lgan Z. Freyd o'zining dastlabki ishlarida shuni ta'kidlaganki, insoniy fe'l-atvorlarning barchasi bevosita yoki bilvosita erosdan, ya'ni hayot instinktidan yaraladi. Erosning quvvati (libidosi) hayotni mustahkamlashga, saqlab qolishga va ko'paytirishga yo'naltiriladi. Ushbu ma'noda agressiya mana shu libidoz impulslarning buzilishi va blokirovka qilinishiga nisbatan reaksiya sifatida qabul qilinadi. Birinchi jahon urushi zo'raonliklari tajribasini boshdan kechirgan Freyd, agressiyaning kelib chiqishi va mohiyati haqida fikr yuritar ekan, u ikkinchi asosiy instinkt – tanatos – o'limga ishtiyoqning mavjudligini taxmin qildi. Bu instinktning quvvati buzg'unchilikka va hayotni to'xtatishga yo'naltirilgandir. Shunday qilib, tanatos agressiyani tashqariga chiqarishga va boshqalarga yo'naltirilishiga bevosita sabab bo'ladi.

Freydning agressiyaning boshlanishi va tabiatiga nisbatan bildirgan mulohazalari o'ta pessimistik bo'lgan, deyish mumkin. Chunki unga ko'ra agressiv xulq insonga tug'ma berilgan bo'lib, undan qutulib bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Freydning fikricha, tanatos energiyasi tashqariga yo'naltirilmasa, bu inson psixikasining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun agressiyani tashqi namoyon bo'lishi tanatosning bunday buzg'unchi kuchini susaytirishi va natijada yanada xavfli harakatlarning paydo bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Shunday qilib, Freyd keyingi davr nazariyotchilaridan farqli o'laroq bu tushunchaga optimistik jihatdan qaramagan.

Etologik yondashuv. Nobel mukofoti laureati mashhur etolog K. Lorens agressiyaga nisbatan evolutsion yondashuv tarafdoridan biri bo'lgan va uning bu pozitsiyasi Freydning pozitsiyasi bilan o'xshash ekanligini namoyish qilgan. K. Lorens ta'limotiga ko'ra, agressiya insonlarga va boshqa tirik jonzotlarga xos bo'lgan hayot uchun kurash tug'ma instinktidan kelib chiqqan.

U bu instinkt uzoq evolutsiya davrida rivojlangan, deb taxmin qilgan bo'lib, uning uchta muhim vazifasini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi, hayot uchun kurash instinkti turli xil biologik tur vakillarini dunyo bo'ylab katta geografik kengliklarga tarqatib yuboradi, bu esa oziq-ovqat resurslarining maksimal sarflanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, agressiya biologik turning genetik fondi yaxshilanishini ta'minlaydi, chunki faqat eng kuchli va quvvatli individumlarga o'zidan avlod qoldira oladi. Uchinchidan, kuchli tur vakillarigina o'zini himoya qila oladi va avlodining tirik qolishini ta'minlay oladi.

Freyd instinktiv agressiv energiyaning qanday yig'ilishi va tarqab ketishi haqida aniq bir fikrga kelmay turgan bir pallada, K. Lorens bu muammo yuzasidan aniq bir to'xtamga kelib bo'lgan edi. Uning fikricha, yashash uchun kurash instinkti bilan yo'g'rilgan agressiv energiya organizmda uzluksiz ravishda aylanib yuradi, borgan sayin to'planib boraveradi. Demak, agressiv

energiyaning hajmi qancha ko'p bo'lsa, uning tashqariga «otilib chiqishi» uchun shunchalik kam kuchga ega bo'lgan stimul (bahona) kerak bo'ladi.

K. Lorens nazariyasining qiziqarli jihati shundaki, u o'z nazariyasida inson boshqa jonzotlardan farqli o'laroq o'z turiga mansublarga qarshi zulm o'tkazishi holatlarining keng tarqalganligini ta'kidlab ko'rsatadi. Uning fikricha, barcha tirik jonzotlarga yashash uchun kurash instinktidan tashqari o'zining barcha xohish-istaklarini bosa olish imkoniyati berilgan; bu imkoniyat ularning o'ljalariga qay darajada jiddiy talofat yetkazish yoki yetkazmaslik xohishlari bilan o'zgarib turadi. Shunday qilib, tabiat tomonidan boshqa jonzotlarni o'ldirish uchun barcha zarur ashyolar (epchillik, uzun tirnoq va o'tkir tishlar) bilan ta'minlangan yirtqich sher va yo'lbarslar o'z turi vakillariga tajovuz qilishning oldini oluvchi, ushlab turuvchi omillarga egadir. Lekin ularga nisbatan ancha zaif bo'lgan insonlarning o'z tug'ma ehtiyojlarini ushlab turuvchi omillari yetarli darajada kuchli emas. Insoniyat tarixining muqaddimasida erkak va ayollar o'z qabiladoshlariga qarshi agressivlik ko'rsata turib, tish va mushtlarini ishga solganlar va bu hol u qadar qo'rqinchli tuyulmagan, chunki ularning bir-biriga jiddiy jarohat yetkazish ehtimoli u darajada yuqori emas edi.

Insoniyat taraqqiyoti texnik taraqqiyot bilan uyg'unlashishi natijasida inson ommaviy qirg'in qurollarini yaratdi, uning o'z xohish-istaklarini qondirishga bunday holatda intilishi insonning tur sifatida yo'qolib ketish xavfini vujudga keltirdi. K. Lorens tarixda jahonga hukmronlik qilish istagida bo'lgan buyuklarning butun bir millatlarning qirilib ketishini istaganligini o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi — aynan inson zo'ravonligi agressiyaning oldini oluvchi tug'ma ushlab turuvchi omillardan ustunlik qilayotganligi sifatida tushuntiradi.

K. Lorens ham xuddi Freyd kabi agressiyadan qutulib bo'lmaydi deb hisoblasa-da, agressiyani susaytirish yoki nazorat qilish mumkin degan fikrni yoqlagan. U agressiv energiyaning xavfli daraja-

gacha yetishining oldini olish va bu orqali zo'rvonlik holatlarini kamaytirishi mumkin, deb taxmin qilgan.

Sotsiobiologik yondashuv. Bu yondashuv tarafdorlari evolutsion nazariya tarafdorlaridan farqli o'laroq, tabiiy tanlash jarayonini tushuntirishda o'ziga xos asoslarni taklif qiladilar, ularning fikriga ko'ra inson xulq-atvorida genlarning ta'siri kattadir, ya'ni agressiv xulq insonning boshqa avlodlarida ham saqlanib qolishi ta'minlanadi. Ular «...individuumlar Altruizm va o'zini qurbon qilish yo'li bilan bo'lsa-da, o'xshash genliklarga (ya'ni qarindoshlariga) yashab ketish uchun yordam ko'rsatadilar va o'z genlaridan farq qiluvchi (qarindosh bo'lmagan)larga nisbatan agressiv munosabatlarda bo'ladilar, degan farazni isbotlaydilar. Agressiv xulqdagi individuumlar begonalarga zarar yetkazish uchun har qanday vaziyatdan foydalanadilar va hatto ularning o'zlaridan nasl qoldirish imkoniyatlarini ham chegaralab qo'yishgacha yetib boradilar.

Agressiyaning foydali jihati shuki, u (ya'ni agressiya) mazkur individuumni genetik yaroqliligini oshiradi. Agressiv raqobatchilik biron-bir turni o'limga olib kelsa, bu turda genetik layoqatlilikni oshirish imkoni bo'lmaydi. Shunga asoslangan holda ijtimoiy biologlar quyidagi fikrni ilgari suradi: agressivlik — individuumlarning mavjud resurslardan o'z hissasini olish vositasi bo'lib, o'z o'rnida bu resurslar tabiiy tanlashda (asosan, genetik darajada) omad olib keladi.

Agressiyaning ijtimoiy o'rganish nazariyasi

Boshqalaridan farqli o'laroq bu nazariya zaruriy mustahkamlash bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonida uqib olingan xulq-atvorni bildiradi. Ya'ni namunaga asoslangan inson xulq-atvori o'rganiladi. Bu nazariya Bandura tomonidan taklif etilib, o'qib olish, provokatsiya qilish (qayrash) va boshqarishni tushuntirib beradi.

Uning fikricha, agressiv xulq-atvorni tahlil qilish uchun quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olish talab qilinadi:

1. Bunday xatti-harakatni o'qish usullari.
2. Ularni yuzaga chiqarish uchun provokatsiya qiluvchi (qayrovchi) omillar.
3. Ularning mustahkamlanib qolish shart-sharoitlari.

A. Banduraning agressiyani ijtimoiy o'rganish nazariyasi

<ul style="list-style-type: none"> – Biologik omil (nerv sistemasi, garmon) – O'rganish (bevosita tajriba, kuzatuv) 	agressiyaning yuzaga kelishi
<ul style="list-style-type: none"> – Shablonlar ta'sirida (hayajon, e'tibor) – Qabul qilib bo'lmaydigan murojaat bilan (do'q urish, frustratsiya) – Qiziqtiruvchi motivlar bilan (pul, zavqlanish) – Yo'riqnomalar bilan (buyruq) – Ekssentrik ishontiruvchilar bilan (paranoidal ishontiruvchilar) 	agressiyani provokatsiya qilish
<ul style="list-style-type: none"> – Tashqi rag'batlantirish va jazo berish bilan (moddiy rag'batlantirish, yoqimsiz oqibatlar) – Vikar mustahkamlash bilan (boshqalarni rag'batlantirilayotganini yoki jazolayotganini kuzatish) – O'z-o'zini boshqarish mexanizmi bilan (g'urur, ayb) 	agressiyani boshqarish

Shu sababdan bunda katta e'tibor o'qitishga, ijtimoiylashuvning birlamchi vositalari bo'lgan ota-onalarning bolalarni agressiv xulq-atvorini o'zgartirish uchun ta'siriga qaratiladi. Xususan, shu narsa isbotlanganki, ota-onaning xulq-atvori agressiya modeli bo'lib xizmat qilishi mumkin, ya'ni odatda agressiv ota-onalardan agressiv farzandlar dunyoga kelishi mumkin. Bu nazariyaga ko'ra agressiv harakatlarning ba'zilar tomonidan (masalan, talabaning do'sti tomonidan «yasha, bopladig», deb) quvvatlanishi bunday harakatlarning kelgusida ham qaytarilish ehtimolini oshiradi. Shu

bilan birga, natijali agressiya, ya'ni agressiv harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan muvaffaqiyat qozonish ham agressiv harakatlarning qaytarilishida alohida ma'no kasb etadi.

Hozirgi paytda ijtimoiy o'rganish nazariyasi agressivlikning oldini olish mumkin deb hisoblovchi eng effektiv metod bo'lib kelmoqda.

Agressiyaning frustratsiya nazariyasi

Djon Dollard tomonidan taklif etilgan bu nazariya yuqorida keltirilgan yondashuvlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Unda agressivlik evolutsion emas, balki situativ jarayon sifatida qaraladi. Bu nazariyaning asoschisi D. Dollard va uning hamkasblari «Frustratsiya doimo agressiyaga olib keladi» degan fikrni ilgari suradilar (John Dollard, 1939). Masalan, faraz qiling, bugun darsga kech qolmaslik uchun nonushta qilmasdan keldingiz. Uch para dars tugagunicha qorningiz ochib ketdi. Darsdan so'ng mazza qilib ovqatlanishni mo'ljallagan edingiz. Mana qo'ng'iroq ham chalingi. Lekin guruh murabbiysi kirib yarim soatga qolishingizni, shoshilinch muhokama qilinishi lozim bo'lgan masala borligini aytdi. Guruh yig'ilishining tugashini intizorlik bilan kutib ovqatlanish uchun oshxonaga borganingizda, ular sizga odam ko'p bo'lganligi uchun bugunga ovqat qolmaganini aytishdi...

Mana, ovqatlanish ehtiyojini qondira olmasdan, va'dalashganingizdek, o'rtog'ingiz bilan kutubxonaga qaytdingiz. O'rtog'ingiz sizdan ehtiyot bo'lgani yaxshimikan? Unga biror yomon gap aytishga bo'lgan ehtimol ortadimi?

Frustratsiya – bu maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi barcha narsalardir (shu jumladan, ovqati tugagan oshxona ham). Agar shaxsning maqsadi kuchli motivatsiyalangan bo'lsa, qoniqish olishni kutayotgan bo'lsa va uning bu istagi to'siqqa uchrasa frustratsiya kuchayishi mumkin.

Frustratsiya agressiyaning paydo bo'lishi uchun motivatsiya hosil qiladi. D. Dollard va M. Millerning fikriga ko'ra, frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sababga ko'ra agressiyani namoyon qilish jamiyat yoki jamoatchilik tomonidan jazolanishi mumkin.

Bunday jazodan qo'rqish esa agressiya boshqa nishonga, obyektga yoki shaxsning o'z-o'ziga qaratilishi (suitsid sodir qilishi)ga sabab bo'lishi mumkin (Dollard, 1939; Miller, 1941)

Frustratsiya va agressiya nazariyasi borasida o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari ikki xil natija berganligini ko'rish mumkin: frustratsiya ba'zan agressiyani kuchaytirgan bo'lsa, ba'zan aksincha, susaytirgan. Masalan, Yudjin Bernstayn va Filip Uorchel o'tkazgan tajriba bunga yaqqol dalildir: eksperimentatorning assistenti eshish apparati ishlamay qolayotganligi tufayli hadeb guruhiy qaror qabul qilishga xalal beraveradi, bu hol majlis ishtirokchilarida frustratsiyani keltirib chiqazgan, lekin hech qanday agressiyaga olib kelmagan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda frustratsiya agressiyaga sabab bo'lmaganining sababi frustratsiyani keltirib chiqazgan manba aniq va yetarlicha tushunarli bo'lganidir. Frustratsiya va agressiyaning aloqadorligi ilk nazariyalarda oshirib talqin qilinganligini payqagan Leonard Berkovits bu nazariyani qayta ko'rib chiqdi. U quyidagi taxmini ilgari surdi: frustratsiya jahl va agresiv harakat qilishga emotsional tayyorlikni keltirib chiqazadi (frustratsiya agressiyani emas, balki agresiv harakat qilishga tayyorlikni keltirib chiqazadi). Insonning jahli qachon chiqadi, qachonki unda frustratsiyani keltirib chiqazgan odam boshqacha yo'l tutish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa-yu, bunday qilmasa (Averill, 1983; Weiner, 1981). Frustratsiyani his qilgan odam qachon dilozorga tashlanadi, qachonki uni bunga majbur qilishsa. Albatta agressiya kelib chiqishi uchun har doim ham frustratsiya bo'lishi shart emas, lekin agressiya bilan assotsiatsiyalanadigan stimullar doimo agressiyani kuchaytiradi (Carlson & Others, 1990).

Bu nazariyaning asosiy holatlari quyidagicha ifodalanadi:

— Frustratsiya har doim biror-bir shakldagi agressiyaga olib keladi.

— Agressiyani doimo chorlovchi masalalarda uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Subyekt tomonidan kutilayotgan bo'lg'usida erishiladigan maqsadga erishish darajasi — agar shaxs o'z oldiga qo'ygan

maqsadiga erishishi ancha vaqtga cho'zilib ketsa, bunday hol albatta agressiyani chaqiradi.

2. Maqsadga erishish yo'lidagi to'siq kuchi — shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida uchragan to'siq yengib bo'lmas darajada bo'lsa yoki shaxs tomonidan shunday deb tushunilsa, agressiya vujudga keladi.

3. Ketma-ket frustratsiyalar soni — agar maqsad yo'lida bir to'siq ortidan ikkinchisi, uning ortidan uchinchisi va bu davomiylik davom etaversa, bu albatta shaxsda agressiyani keltirib chiqaradi.

Ya'ni subyekt maqsadidan qoniqishni qay darajada ko'p kutsa, bu yo'lida to'siqlar qay darajada kuchli bo'lsa va to'siqlar qay darajada ko'p blokirovka qilinsa, agressiv xulq-atvorga turtki shuncha kuchli bo'ladi.

Frustratsiyalar ketma-ket sodir bo'lganda ularning kuchi bir-biri bilan qo'shilib, katta kuchdagi agressiv reaksiyani tug'dirishi mumkin.

Bundan tashqari organizmdagi og'riq va frustratsiya (maqsadga erishish yo'lida to'siq paydo bo'lishi) ko'pincha tushkunlik va adovat hissini keltirib chiqazishi va buning ortidan agressiya yuzaga kelishi olimlar tomonidan tasdiqlangan. Agar frustratsiya qo'rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bo'lsa, shaxs alamini (agressiyasini) ko'pincha boshqalardan oladi. Bu holat fanda «agressiyani chiqarib yuborish» fenomeni deb ataladi.

O'z agressiyasini chiqarib yuborish uchun shaxs turli xil nishonlarni topadi. Misol sifatida quyidagi tarixiy holatni keltirish o'rinli. Germaniya Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragach, bu davlatga iqtisodiy tartibsizlik, inqiroz kirib keldi va ko'pchilik nemislar buning alamini olish uchun yevreylarni tanlashdi va ularga nisbatan yovuzlikni his qila boshlashdi. Gitler hokimiyat tepasiga kelishidan ancha oldin, bir nemis lideri shunday degan edi: «Yevreylar — bu bizning agressiyamizni chiqarishimiz uchun juda qulay obyektidir. Agar yevreylar bo'lmaganida edi, ularni o'ylab topishga to'g'ri kelgan bo'lardi» (G.W.Allport, 1958). O'rta asrlarda odamlar o'zidagi qo'rqinch va agressiyani

jodugarlarga ko'chirishgan, vaqti-vaqti bilan ularni gulxanda kuydirib, alamini chiqarib yuborganlar.

Agressiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli

Yuqoridagi mavzularni yoritish jarayonida shaxs shakllanishiga oila muhitining roli, ota-onaning farzandini tarbiyalashidagi yoki unga bo'lgan munosabatlaridagi noto'g'ri xatti-harakatlarining salbiy ta'sirlarini ko'rsatib o'tgan edik. Xuddi shuningdek, shaxsda agressiv xulqning shakllanishida ham oila muhitining o'rnini kattadir. Ota-onaning farzandi xatosiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog'at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi.

Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egalashiga sabab bo'ldi. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Bola agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosogʻlom oila muhiti. Baʼzi oilalarda ota-ona bilan farzand oʻrtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar oʻrtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon boʻlishi oilaviy muhitning taʼsir darajasiga bogʻliq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida oʻz tengqurlari bilan boʻlgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarini oʻzlariga singdiradilar. Koʻpgina hollarda bolalar tengdosh doʻstlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda oʻzlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa oʻz tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar oʻzini xoʻrlangandek his qilib, oʻzi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tugʻdirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari – bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga taʼsir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilmoqda. Shu oʻrinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, koʻrsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga taʼsir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning taʼsiri ham oʻziga xosligi inkor etib boʻlmas haqiqatdir. Bolalar internet orqali oʻzining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan maʼlumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressivni targʻib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil oʻyinlarni oʻynash orqali oʻzlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab boʻlmoqdalar.

Bir qator psixologlarning taʼkidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, ota-ona bilan farzand oʻrtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan notoʻgʻri, yanglish xatti-

harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi — oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda har yili uch mingdan besh ming nafarga yaqin bola o'z ota-onasining ularga nisbatan qaratilgan shafqatsiz munosabatlari natijasi qurboni bo'lmoqda. Shuningdek, 16% bola aka-opalari tomonidan jismoniy jazo usuli: savalash, kaltaklash bilan jazolanmoqda. Aniqlanishicha, AQSHda o'gay ota-onalar tomonidan bir yilda sodir etilgan jinoyatlar soni 400 tani tashkil etgan. Ular o'z farzandlarining o'limiga sabab bo'layotganligi achinarli holdir.

Oilaviy munosabatlarga murojaat qilishdan avval shuni ta'kidlash zarurki, oilaga «to'liq yoki noto'liq» deb tavsif berish bolalar agressivligi bilan bog'liqday tuyuladi. Bunday tavsif aynan agressivlikni shakllantiruvchi oilaviy sharoitni tashkil etuvchi oilalarni (ota, ona yoki ularning ikkalasi bola bilan bir uyda yashaydilar, ular o'rtasidagi munosabatlar xarakteri) kvalifikatsiyalaydi. Masalan, tadqiqotchilardan biri bo'lgan F. Getting qotillar ko'p hollarda to'liq bo'lmagan oilalardan chiqqanini aniqlagan. Mak-Kartining fikriga ko'ra, odatda kichkina qotillar «yoki tartibsizlik, jismoniy zo'rvonlik hukm surgan oilada yoki bir-birining his-tuyg'ulariga befarqlik, bir-birini qo'llamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik hukm surgan oilalarda» ulg'ayadilar. To'liq va noto'liq oilalardagi bolalar agressivligi o'rtasidagi korrelyatsiya haqidagi so'z yuritish nimaga zarurligini yanada yaxshi tushunish uchun biz quyida bu bog'liqlikni tushuntirib bera oluvchi oilaviy munosabatlarning o'ziga xos bo'lgan jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Bir necha tadqiqotlar «ota-ona — bola» juftligidagi negativ munosabatlar va bolaning agressiv reaksiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Agar bola (qaysi yosh guruhiga taalluqliligidan qat'i nazar) ota, ona yoki ularning ikkisi bilan ham yomon munosabatda bo'lsa, ota-ona uni nima uchun layoqatsiz deb hisoblashini tushunmasa, ota-onaning qo'llab-quvvatlashini his qilmasa,

bunday holda uning jinoyat yo'liga kirib ketishi ehtimoli yuqori bo'ladi; o'zini boshqa bolalarga qarshi qo'yadi; tengdoshlari uni agressiv bola deb hisoblaydi; u o'zini ota-onasiga nisbatan agressiv tutadi. D. Shtaynmetsning fikriga ko'ra, siyosiy doirada buyurtma asosida qotillik sodir etadiganlar yoki o'z joniga qasd qiluvchilarning aksariyati farzand taqdiri bilan qiziqmaydigan yoki ajrashib ketib, bolaning taqdiriga befarq qaragan oilalardan chiqqanligi tasdiqlangan. Onalari bolaligida e'tiborsiz qoldirgan va o'z ota-onasidan zarur mehrni olmagan qizlar o'zlari ona bo'lganlarida bolalarini jazolab tarbiyalash (masalan, urishish, baqirish, urish, kaltaklash)ga va o'z agressiyasini aksariyat hollarda ularga sochishga moyil bo'lar ekan.

Bunday xulosalar to'liq tan olinmasa-da, lekin xorij psixologlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatkichlariga asoslangan xulosalar sifatida diqqatni tortadi. Bizning o'zbek mentalitetida xorijdan farqli jihatlar mavjudligi sifatida quyidagi muhohazalarni bildirish o'rinli deb hisobladik. O'zbek muhitida ham ajrimlar noto'liq oilalar yoki ota-ona mehriga to'ymayotganlar mavjud, lekin o'zbekchilikning ajoyib jihatlaridan biri sifatida bolaning qalbidagi bu kemtikni o'zbekona mehr — boshqalarning (bobo-buvisi, tog'a va xolalari, mahalladagi qo'shnilar) mehri to'ldirishi hisobiga va mamlakatimiz tomonidan yuritilayotgan bolaparvarlik siyosati tufayli xorijdagi kabi salbiy illatlarni keltirib chiqarmayapti.

Mashhur psixolog Freda Getting «Oiladagi agressiv bolalarni o'rganish» bo'yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko'ra, noto'liq oilalarda o'ta qahrli, qo'pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha to'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog'lom muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir. Nosog'lom oila muhitida asosiy e'tibor o'zaro ziddiyatlarga qaratilganligi sababli bunday oilada bola tarbiyasi ko'pincha tahdid

va jismoniy jazolashdan iborat bo'ladi. Ruhan nosog'lom oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar oiladagi doimiy ziddiyatlardan bezib, ko'pincha ko'chaga chiqib ketadilar. Ko'chada bevaqt yurgan bolalarning aksariyati esa o'zlari ham bilmasdan sodir etilgan jinoyatlarning ishtirokchilari bo'lib qolmoqda. Bunday holat ularning ruhiyatidagi buzilishlar ta'sirida yuz bermoqda.

Ota-ona mas'uliyati bilan bolalar agressivligi o'rtasidagi bog'liqlikning o'ziga xosligini Bridjit Djons va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tajribalar ham yaqqol ko'rsatib bergan. Tadqiqotchilar laboratoriya sharoitida 15, 21 va 39 oylik bolalarning onalari va boshqa bolalar bilan bo'lgan munosabatlarini kuzatadilar. Boshqa ko'plab parametrlar qatorida bola yig'laganidan yoki ko'tarishni so'raganidan so'ng ona uni qancha vaqtda qo'lga olishi ham hisobga olinadi; bola tomonidan boshqalarga nisbatan yo'naltirilgan agressivlik (masalan, qo'li bilan urish, tishlash) qayd etilgan. Onasi qo'lga olishga shoshilmagan bolalar, onasi yig'laganda va chorlaganda tezda javob bergan bolalarga nisbatan o'zini agressivroq tutishgan.

Oiladagi bolalar mushtlashuviga ota-onalarning aralashuvining natijasini o'rgangan Richard Felson, bola boshqa bolalardan ko'ra ko'proq o'zining ukasi yoki singlisiga nisbatan jismoniy va verbal agressiyani ko'rsatishini aniqlagan.

Tadqiqotchilar agressiyaning rivojlanishida aka-uka va opa-singillar munosabatlarining muhimligini alohida ta'kidlaydilar. Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, bir oila farzandlari orasidagi zo'ravonlik barcha boshqa oilaviy munosabatlardan ko'ra individning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelish mumkin. Djeyms Pattersonning yozishicha, «aka-uka va opa-singillar ularning hayotlarini buzuvchi jarayonda bir-biriga o'qituvchidirlar». U oddiy bolalarning aka-uka va opa-singillaridan farqli ravishda agressiv bolalarning aka-uka va opa-singillari hujumiga qarshi hujum bilan javob qaytarishga moyilligini, bu esa jismoniy qarama-qarshilikning uzoq davom etib, eskalyatsiya qilinishi ehtimoli oshishini aniqlagan. Oilaviy boshqaruv

xarakteri, ota-onalarning farzandini «to'g'ri yo'lga solishi» yoki uning xulq-atvorni o'zgartirishiga qaratilgan harakatlari ijtimoiy psixologlarning qiziqishiga sabab bo'ladigan muammolardandir. Bu borada mutaxassislar uch xil tipdagi ota-onalarni ajratib ko'rsatishgan:

1. Ba'zi ota-onalar bola tarbiyasiga kamdan kam aralashadilar: ular tarbiyalashda ongli ravishda aralashmaslik siyosatini qo'llaydilar, ya'ni bolaga o'zi istaganidek ish tutishga yo'l qo'yib beradilar yoki shunchaki unga hech qanday e'tibor qaratmaydilar, bolaning fe'l-atvori to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida ham o'ylamaydilar.

2. Boshqa bir ota-onalar esa bola tarbiyasiga tez-tez aralashadilar: ular bolani goh rag'batlantiradilar (ijtimoiy me'yoriarga xos xulq-atvor uchun), goh jazolaydilar (qabul qilib bo'lmas agressiv xulq-atvori uchun).

3. Ba'zi bir ota-onalar farzandini ongsiz ravishda agressiv harakatlar uchun rag'batlantirib, aksincha jamiyatda qabul qilingan fe'l-atvor uchun jazolab qo'yadilar. Bilib-bilmay amalga oshirilgan bunday mustahkamlash agressiv xulq-atvorning shakllanishini belgilab beradi. Oilaviy boshqaruv amaliyoti va bolalarning agressiv xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda tadqiqotchilar asosiy diqqatni ota-onalarning bolalar xulqini nazorat qilishi, qattiqqo'lligi va jazoning xarakteriga qaratadilar. Umumiy natijalar ota-onaning qattiqqo'llik bilan bolani jazolashi va bolaning yuqori darajadagi agressivligi o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatgan. Aksincha, ota-ona nazoratining sustligi esa ko'p hollarda agressiv xulq-atvor bilan birga kechadigan yuqori darajali assotsiallik bilan korrelyatsiyalanadi.

Edvard Erons va uning hamkasblari agressiyaning bir qator parametrlari va shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash yo'lida longityud tadqiqotlar o'tkazdilar. Ular tekshiriluvchilardan, ularning ota-onalaridan va tengdoshlaridan uch marotaba ma'lumot yiqqanlar: 1-bor 3-sinfda sinovdan o'tayotganda, 2-bor 10 yil o'tgandan so'ng, keyin yana 22 yil o'tganidan so'ng.

Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra bolani jazolash va agressivlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilganda quyidagi natijalar kuzatilgan.

Birinchi tadqiqotda 800 dan ortiq 3-sinf o'quvchilari ishtirok etgan. Bolalarning agressivlik darajasi birga o'qimaydigan tengdoshlarining tavsifiga ko'ra aniqlangan. Bunda bolalardan o'zlari bilan birga o'qiydigan agressiv (turtadigan, itaradigan) o'quvchilarni sanab o'tish so'ralgan. Qattiqqo'llik bilan berilgan jazoning ta'sirini o'rganish uchun ota-onalar bolalarining agresiv xulq-atvoriga nisbatan odatda qanday munosabat bildirishlarini belgilashi lozim bo'lgan 24 savolga javob berganlar. Loyl jazolarga o'zini to'g'ri tutish va xulq-atvorini o'zgartirgach, rag'batlantirish, o'rtacha jazolarga hayfsan va koyishlar, qattiq jazoga esa yuziga yoki boshiga shapaloqlab urish kabilar kirgan. E. Erons va hamkasblarining aniqlashicha, ota-onalar tomonidan qattiq jazo oladigan bolalar tengdoshlari tomonidan agressivroq deb xarakterlanganlar.

Jazolarning ta'siri uzoq muddatli hisoblanadi. O'sha bolalar bilan o'tkazilgan keyingi tajribalar shuni ko'rsatadiki, 8 yoshligida bolaga nisbatan qattiqqo'llik bilan qo'llanilgan jazolar ularning 18 va 30 yoshligidagi agressiv xulq-atvori bilan korrelyatsiya bergan. E. Erons va hamkasblarining xulosasiga ko'ra 8 yoshda qattiq jazolanganlarning ko'pchiligi 30 yoshda o'z bolalariga nisbatan agressivligini baholash bilan ijobiy korrelyatsiya qilingan.

D. Patterson va Stauthamer-Leber oilaviy boshqaruv xarakteri va bolalardagi assotsiallik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Tadqiqotchilar 4, 7 va 10-sinfda o'qiydigan 200 dan ortiq o'g'il bolalarning oiladagi munosabatlarini tahlil qilgan. Odatda, o'g'lining xulq-atvorini kuzatib bormagan va jazolashda nomuntazamlikka yo'l qo'ygan ota-onalarning farzandlari o'zlarini assotsial ravishda tutishgan. D. Patterson va Stauthamer-Leber o'z ishlari natijasini quyidagicha tushuntiradilar: «Assotsial bolalarning ota-onalari ularning vaqtini qanday o'tkazishlariga, oshna-og'aynilarining kimligiga va mashg'ulotlarining qanday-

ligiga befarq munosabatda bo'ladilar. Ular jazo sifatida farzandi xohlayotgan narsalarni man qilish, uning mayda xarajatlari uchun pul bermaslik kabi usullardan foydalanmaydilar. Mabodo bunga e'tibor berib qolsalar ham ko'p hollarda aql o'rgatish, urishish va po'pisa qilishga borib taqaydilar; nima bo'lgan taqdirda ham bunday do'qlar samarali natijaga olib kelmaydi».

Ijtimoiylashuv jarayonida bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida jismoniy jazolarni qo'llashning o'ziga xos «xavfi» mavjud. Birinchidan, bolaga jazo beruvchi ota-ona ular uchun agressivlik namunasi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni jazolash kelgusida agressivlikni provokatsiya qilishi mumkin. Ikkinchidan, me'yoridan ko'p jazolanadigan bolalar ota-onadan nari yurishga yoki ularga qarshilik ko'rsatishga intiladilar. Agar ular jazolar ta'sirida «egilmasalar», ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashishi mumkin bo'lgan achchiq bo'lmagan boshqa «dars»larni o'qib olishlari amrimahol. Ustiga-ustak, agressiv munosabat oxir-oqibat bolani «haqiqatdan ham jazolanishi zarur bo'lgan favqulodda xulq-atvorni namoyish qiluvchi va ma'qullovchi odamlar» kompaniyasiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, agar jazo bolalarni qattiq hayajonlantirsa yoki xafa qilsa, ular jazolanishlarining sababini unutib qo'yishlari mumkin. Bu esa jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishiga xalaqit beradi. Nihoyat, o'z xulq-atvorini shu kabi jiddiy tashqi ta'sirlar natijasida o'zgartirgan bolalar ularga uqtirilayotgan me'yorlarni o'z tamoyillariga aylantirib olishlari amrimahol, ya'ni ularni kimdir kuzatib turgandagina me'yorlarga amal qilib, o'zlari qolganda turli jinoyatlarni sodir etishlari mumkin. Ota-onalar shuni yaxshi bilishlari lozimki, berilayotgan qattiq jazolar boladagi istalmas xulq-atvorning tashqi namoyon bo'lishini yashirishga majbur qiladi, xolos, lekin uni yo'q qilmaydi.

Jazo ko'p hollarda salbiy samara bersada, ba'zida u xulq-atvorni modifikatsiyalashtirishdagi foydali vosita bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Tajribalarning natijalari shuni ko'rsatadiki,

jazolar aniq prinsiplar asosida qo'llanilsa, ular albatta xulq-atvorning barqaror o'zgarishini ta'minlashi mumkin. Jazo bevosita bolaning xulqidan kelib chiqishi va har gal bolaning nojo'ya qiligidan so'ng muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur. Nojo'ya harakat va jazo o'rtasidagi vaqt oralig'i qisqa bo'lishi kerak, chunki xatodan keyin darhol berilgan jazo ma'lum bir xulq-atvor modeli taqiqlanishi muhimligini anglatadi, kechiktirilgan jazo esa buning aksidir.

Jazo bilan qo'rqitgan, lekin ularni amalda qo'llamagan otanalar o'z bolalarini ular bilan hisoblashmaslikka o'rgatadilar. Bolaga doimo buyruq beruvchi, lekin uni nazorat qilmaydigan ota-ona o'zi bilmagan holda bolaga buyruq va po'pisalarning hech qanday ahamiyatga ega emasligini o'rgatadi. Jazo nomaqbul harakatdan keyin darhol qo'llanilsa, uning samaradorligi yuqori bo'ladi, ya'ni aniq bir xato uchun doimo bir xil jazo belgilanadi. Yomon xulq-atvor uchun bir gal jazo berib, keyingi gal hech qanday e'tibor qaratmaslik ham noto'g'ridir.

Eng ijobiy holat sifatida mutaxassislar bolaning jazolashga loyiq bo'lgan salbiy xulq-atvoriga alternativ xulq-atvor taklif qilishni tavsiya etadilar. Ota-ona bolaga yoshligidan qaysi harakatlarni qo'llash mumkin yoki mumkinmasligini tushuntirar ekan, uning boshqa xatti-harakatlarni, shu jumladan, istalgan xatti-harakatlarni amalga oshirishda to'siqlar qo'ymagan bo'ladi. Masalan, bola kattalarning gapini tez-tez bo'lib turadi. Agar ota-ona unga tushuntirmay jazo bersa, bola unga gapirish man etilyapti deb o'ylashi va tortinchoq bo'lib o'sishi mumkin. Ota-ona bolaga kattalarning gapini bo'lish yaxshimasligini tushuntirib, bola ularning e'tiborini talab qilgan paytda unga javob berib borsalar, u bunday vaziyatlarda adekvat ijtimoiy ko'nikmalarni namoyon qilishni o'rganishi mumkin. Ba'zi ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan bolani vaqtincha izolatsiya qilish kabi protseduralar ham jazo turiga kirsada, jismoniy jazolardan farqli o'laroq, ko'p muammo tug'dirmaydi. Bunday protseduralar gapga quloq solmaydigan va agressiv bolalarning xulq-atvorini modifikatsiya qilishda samarali

bo'ladi. Bola o'zini yomon tutganda, uni jim-jit xonada qisqa vaqtga yolg'iz qoldirishda unga nima sababdan uni vaqtincha izolatsiya qilishayotganligini aniq va ravshan tushuntirib berilishi kerak. Bunday protsedura natijasida bola me'yoridan chetga chiqadigan xulq-atvor rag'batlantirilmasligini va qabul qilinmasligini, u o'zini to'g'ri tutishga o'rganmaguniga qadar, boshqalar bilan muloqot qila olmasligini anglaydi. Umuman, har qanday jazo tushuntirib berilishini taqozo etadi.

Agressiv xulq-atvorning shakllanishida tengdoshlarning roli

Bola xulq-atvorning turli modellarini (ijtimoiy jihatdan qabul qilingan va qilinmagan) boshqa bolalar bilan bo'lgan munosabatlar natijasida o'rganib boradi. Agressivlikning turli shakllari ham tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda paydo bo'ladi. Biz bola tengdoshlari bilan aloqa qila turib, qanday agressiv xulq-atvor orttirayotganligini va bolaning tengdoshlariga nisbatan bo'lgan agressivligi qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rib chiqamiz.

Tengdoshlari bilan o'ynash bolaga agressiv reaksiyalarga o'rganish imkoniyatini beradi (masalan, mushtlashish va haqoratlash). Bolalar bir-birini turtgan, masxaralagan, tepgan va bir-biriga ziyon yetkazishga qaratilgan shovqinli o'yinlar agressiv xulq-atvoriga o'rgatishning «xavfsiz» usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarning aytishicha, shovqinli o'yinlardagi ularning sheriklari ularga yoqadi va ular bunday o'yinlarda kamdan kam jarohatlar oladilar. Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalarni o'rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, yoshligida tengdoshlari bilan haddan ortiq muloqot qilish ularning kelgusidagi agressivligi bilan bog'liqdir. O'qituvchilar tomonidan maktabgacha bo'lgan besh yil davomida bolalar bog'chasida muntazam tarbiyalangan bolalar, bog'chaga kamroq borgan bolalarga nisbatan agressivroq ekanligi qayd etilgan. Shuni aytish mumkinki, tengdoshlari bilan agressiv xulq-atvorda ko'proq «amaliyot o'tkazgan»

bolalar (masalan, bog'chada), bunday reaksiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, endi uni boshqa sharoitlarda (maktabda) qo'llashga moyil bo'ladilar.

Agressiv bolalarni tengdoshlari yoqtirmaydilar va ko'p hollarda ularga «yoqimsiz» degan yorliq ilib qo'yadilar. I.S. Kon va A. Kuper Schmidt agressivlik va ijtimoiy mavqe o'rtasidagi bog'liqlikni bir-biri bilan tanish va bir-birini tanimaydigan bolalar misolida o'rganib chiqdilar. Tadqiqotchilar 4-sinf bolalarining sinfdoshlarining fikriga ko'ra ijtimoiy mavqeini o'rganib chiqib, bir-birini tanimaydigan (sinfdoshlar) va bir-birini tanimaydigan (barchasi har xil maktabdan) o'g'il bolalarga darsdan so'ng komanda o'yinida ishtirok etishni taklif qildilar. Boshqa tadqiqotlar natijalarida ham aytilganidek, tengdoshlari tomonidan «yoqimsiz» deb tan olingan bolalar tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda verbal (do'q-po'pisa, so'kinish) va jismoniy (urish, tepish) agressiyaga xos ijtimoiy xulq-atvorni namoyish qildilar va bu bilan boshqalarning nafratini uyg'otdilar. Demak, bola o'zi bilgan yoki bilmagan bolalar bilan o'ynashidan qat'i nazar, uning ijtimoiy statusi sinfda qanday bo'lsa, o'yin guruhida ham shundayligicha qolgan.

Agressivlik va ijtimoiy status o'rtasida uzviy bog'liqlikning borligini isbotlab beruvchi adekvat bir fikrning yo'qligiga qaramay, mazkur tajriba tengdoshlarning nafrati ham, agressivlik ham turli vaziyatlarda saqlanib qoladigan parametrlar ekanligini ko'rsatadi, ya'ni bola maktabda agressiv bo'lsa va uni hech kim yaxshi ko'rmasa, u boshqa muhitda ham agressiv va yoqimsizligicha qolaveradi. Lekin ba'zi tengdoshlari yoqtirmagan bolani boshqa barcha bolalar ham tan olmaydi, degan xulosaga kelish kerak emas. Amalda bir guruh tan olmagan bolani boshqa guruh qabul qilishi va bu guruhda u muhim rol o'ynashi mumkin. E. Keyrns va uning hamkasblari agressiv bo'lmagan bolalar ijtimoiy guruhlarga qanday kirsalar, agressiv bolalar ham shunday kiradilar, deb ta'kidlaydi. Biroq agressiv bolalar o'zlariga o'xshash agressiv xulq-atvorli bolalar guruhlariga qo'shiladilar. Tadqiqotchilar shuni aniqlashdiki, agressiv bo'lmagan bolalarni

qancha o'quvchi yaqin do'st sifatida ko'rsatgan bo'lsa, xulq-atvori agressiv bo'lgan qiz va o'g'il bolalarni ham shuncha ko'p o'quvchilar eng yaxshi do'st, deb atashgan. Lekin shunga qaramay, taxmin qilinganidek, agressiv bolalar o'zlari kabi agressiv tengdoshlari bilan birlashishga moyillar. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan o'smirlardan ko'plab tengdoshlari yuz o'girishi mumkin. Lekin agressiv bolalar ba'zi bir tengdoshlari bilan o'rnatgan munosabatlari muhimlikda noagressiv bolalar bilan o'rnatgan munosabatlaridan kam emas.

O'smirlik davrida o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunday davrlar bo'ladi, ularda agressiv fe'l-atvor eng yuqori yoki eng past ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. O'g'il bolalarda ikki tipdagi agressiyaning namoyon bo'lishi aniqlangan: 12 yosh va 14–15 yosh. Qizlarda ham ikki tipdagi agressiv xulq-atvorning eng yuqori ko'rsatkichlari 11 va 13 yoshga to'g'ri keladi. Qiz bolalardagi va o'g'il bolalardagi agressiv xulq-atvor komponentlarining turlicha namoyon bo'lish darajasi solishtirilganda, o'g'il bolalarda to'g'ri jismoniy va to'g'ri verbal agressiyaga, qizlarda esa to'g'ri verbal va bevosita verbal agressiyaga moyillik aniqlangan. Shunday qilib, o'g'il bolalar uchun agressiyani to'g'ridan to'g'ri, ochiq shaklda va nizoga kirishayotgan shaxsning o'ziga ko'rsatish xarakterlidir. Qizlarga esa aynan verbal agressiyaning turli ko'rinishlarini (to'g'ridan to'g'ri, bevosita) ma'qul deb bilish xarakterlidir. Agressiyaning bevosita shakli boshqasiga qaraganda keng tarqalgan. O'g'il bolalarda to'g'ri agressiyaning (ko'p hollarda jismoniy), qizlarda esa bevosita verbal agressiyaning rivojlanish tendensiyasi o'smirlarga xos bo'lgan holat bo'lsa kerak.

Boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 10–11 yoshli o'smirlarda jismoniy agressiyaga moyillik ko'proq bo'lsa, ular ulg'ayib borgach 14–15 yoshda verbal agressiya birinchi planga chiqib qoladi. Biroq, ulg'ayish bilan jismoniy agressiya ko'rinishlarining susayishi o'zaro bog'liq emas. Aynan 14–15 yoshda agressiyaning barcha shakllarining maksimal namoyon bo'lishi aniqlangan. Lekin jismoniy va verbal agressiyaning ulg'ayishga nisbatan o'sish dinami-

kasi bir xilda emas: jismoniy agressiya ko'rinishlari ko'payib bor-
sa-da, u darajada sezilarli bo'lmaydi. Verbal agressiya ko'rinishlari
esa tez va sezilarli maromda ko'payib boradi. Agressiya shakllari-
ning namoyon bo'lishi bir paytning o'zida ham yosh, ham jinsiy
o'ziga xosliklar bilan belgilanadi. Boshlang'ich o'smirlik davrida
o'g'il bolalarda jismoniy agressiya hukmronlik qilsa, qizlarda u
deyarli sezilmaydi – ular agressiyaning verbal shakllariga moyillar.
Lekin tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 12–13 yoshga kelib qizlarda
ham, o'g'il bollarda ham agressivlikning negativ shakli alohida
namoyon bo'la boshlaydi.

Shuni e'tirof etish joizki, yoshdan qat'i nazar o'g'il bolalarda
agressivlikning barcha shakllari qizlarga qaraganda kuchliroq
namoyon bo'ladi. Agressiv xulq-atvor va ijtimoiy mavqe o'rtasidagi
bog'liqlikni tadqiq etishning ko'rsatishicha, o'smirlar orasida eng
yuqori sotsiometrik mavqega ega bo'lgan («emotsional liderlar»)
larning 48%i agressivlik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan «shaxs-
lardir». Shu tariqa «emotsional lider»larning 33%i o'rta agressiv
ko'rsatkichlarga, 19%i esa past agressiv ko'rsatkichga ega ekanligi
ham aniqlangan.

Ba'zida «agressivlik» tushunchasi nizolashuvchanlik tushun-
chasi bilan sinonim tushuncha sifatida qabul qilinadi. Bu tu-
shunchalarning aralashtirilishi bejiz emas, chunki tadqiqotlar
davomida agressivlik va konfliktlilik o'rtasida korrelyatsion alo-
qalarning mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari bu ikki tu-
shunchaning boshqa shaxsiy sifatlar (shiddatlilik, jahldorlik, tez
xafa bo'lish, betoqatlik va boshqalar) bilan bir xildagi korrelyatsi-
yasi ham aniqlangan.

Agressiv reaksiyalarining ifodalanish darajasi o'smirning o'z-
o'zini baholashi bilan ham korrelyatsiyalanadi. Bundan umumiy
tendensiya to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikning mavjudligiga asosla-
nadi: o'z-o'zini baholash darajasi qancha yuqori bo'lsa, umumiy
agressiya va uning tashkiliy qismlarining ko'rsatkichlari shun-
cha yuqori bo'ladi. Bunday bog'liqlik instrumental agressiyaga va
agressiyaning yana bir turi bo'lgan adovatga ham xosdir. Bir tad-

qiqotda shu narsa aniqlanganki, 14–17 yoshdagi o‘smirlarning jismoniy agressiyasi darajasi shaxsning o‘z-o‘zini umumiy baholash darajasi bilan korrelyatsiya beradi. O‘z-o‘zini baholash qancha yuqori bo‘lsa, jismoniy agressivlikni namoyish qilishga bo‘lgan moyillik ham shu qadar kuchli ifodalangan bo‘ladi. Peshqadamlik qobiliyatiga baho berish va o‘zining «jismoniy Men»ini baholash kabi parsial o‘z-o‘zini baholash turlari ham agressiya bilan korrelyatsiya qilishi ma‘lum bo‘ldi. Shunday qilib, avtoritetlarga va o‘rnatilgan qoidalarga qarshi yo‘naltirilgan xulq-atvor ko‘rinishi ko‘p hollarda aynan o‘zining peshqadamlik sifatlarini, jismoniy barkamolligini va go‘zalligini yuqori baholaydigan o‘smirlarga xosdir.

Shu tadqiqotning verbal agressiyaning yuqori darajada namoyon bo‘lishi peshqadamlik qobiliyatlarini yuksak baholovchilarga xosligi ham aniqlandi. Undan tashqari verbal agressiya shaxsning o‘zidagi mustaqillik, avtonomlik sifatlarini hamda intellekti darajasini yuqori baholash bilan ham bog‘liq bo‘lib chiqdi. Shunday qilib, yuqori verbal agressiyaning ko‘rinishlari shaxsning o‘z-o‘ziga katta baho berishi, ayniqsa, o‘smirning o‘zini eng avtonom, eng mustaqil, eng peshqadam bo‘lishga loyiq va eng intellektual rivojlangan, deb hisoblashi bilan ham bog‘liqligi ayon bo‘ldi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra yana bir tendensiya ko‘zga tashlanadiki, agressivligi yuqori bo‘lgan o‘smirlar ko‘p hollarda ekstremal ravishda o‘z-o‘zini juda yuqori yoki juda past baholash xususiyatiga ega. Noagressiv bolalarga esa o‘zini adekvat baholash xarakterlidir.

Tayanch tushunchalar:

Aggressiya – boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan fe‘l-atvorning har qanday shakli.

Frustratsiya – maqsadga erishishga to‘sqinlik qiluvchi barcha narsalardir.

Autoagressiv xulq-atvor — agressivlikning bir shakli bo‘lib, unda agressiya shaxsning o‘ziga qarshi yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Agressiya nima?
2. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar qaysi asrdan boshlab o‘rganila boshlandi?
3. D. Dollard tomonidan birinchi marta ilgari surilgan nazariyani izohlab bering.
4. Kognitiv nazariyaning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Shaxslararo munosabatlarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo‘lishi borasidagi Berkovitsning tadqiqotlari.
6. Psixologiyada agressiv xulq-atvor qanday klassifikatsiyada qabul qilinadi?
7. Agressiya tez-tez ifodalanishining asosini nimalar tashkil etadi?
8. Agressiv xulq-atvorni tushuntirib beruvchi nazariyalar haqida nimalarni bilasiz?
9. R. Lorens va Z. Freyd nazariyalarining o‘xshashlik va farqlari nimadan iborat?
10. Banduraning sotsial o‘rganish nazariyasi haqida nimalar bilasiz?
11. Agressiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli qanday?

Mustaqil ish mavzulari:

1. D. Dollardning agressiya frustatsion nazariyasining mohiyati.
2. Agressiyani tushuntirishda psixoanalitik yondashuv va Z. Freydning tadqiqotlari.
3. Agressiya borasida O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlari.
4. Televideniyaning agressiv xulqqa ta’siri.

TEST

1. «Inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi» degan qarash mualliflarini aniqlang.

- a) U. Makdaugoll, Z. Freyd
- b) Z. Freyd, G. Marrey
- c) I.S. Kon va A. Kupersmidt
- d) L. Berkovits va K. Lorens

2. L. Berkovitsning ijtimoiy bilish nazariyasiga ko'ra,

- a) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi
- b) inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi
- c) agressivlik frustratsiyaning oqibatidir
- d) agressiya kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir

3. Agressiya – ...

- a) inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi
- b) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq
- c) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi
- d) boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli

4. Bass tomonidan taklif etilgan agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. Bular:

- a) jismoniy-verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri
- b) jismoniy, passiv va to'g'ri-egri
- c) verbal, passiv va jismoniy
- d) jismoniy-verbal, to'g'ri, egri

5. Qaysi nazariya tarafdorlari «agressivlik – individuumlarning mavjud resurslardan o'z hissasini olish vositasi bo'lib, o'z o'rnida

bu resurslar tabiiy tanlashda (asosan genetik darajada) omad olib keladi» degan g'oyani ilgari surganlar?

- a) Psixogenetik nazariya tarafdorlari
- b) Etologik nazariya tarafdorlari
- c) Frustatsion nazariya tarafdorlari
- d) Sotsiologik nazariya tarafdorlari

6. K. Lorens ta'limotiga ko'ra:

- a) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi
- b) agressiya insonlarga va boshqa tirik jonzotlarga xos bo'lgan hayot uchun kurash tug'ma instinktidan kelib chiqqan
- c) boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli
- d) maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq

7. Quyida fanda «agressiyani chiqarib yuborish» fenomeni deb nom olgan holatni aniqlang.

- a) agar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi ancha vaqtga cho'zilib ketsa, bunday holat albatta agressiyani chaqiradi
- b) shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida uchragan to'siq yengib bo'lmas darajada bo'lsa yoki shaxs tomonidan shunday deb tushunilsa, agressiya vujudga keladi
- c) agar frustratsiya qo'rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bo'lsa, shaxs alamini (agressiyasini) ko'pincha boshqalardan oladi
- d) ketma-ket frustratsiyalar soni ~ agar maqsad yo'lida bir to'siq ortidan ikkinchisi, uning ortidan uchinchisi va bu davomiylik davom etaveradi

8. Qaysi olimning fikriga ko'ra, kichkina qotillar «tartibsizlik, bir-birining his-tuyg'ulariga befarqlik, jismoniy zo'ravonlik, bir-birini qo'llamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik hukm surgan oilalarda» ulg'ayadilar?

- a) Mak-Kartining, Z. Freyd

- b) U. Makdaugoll, Z. Freyd
- c) Z. Freyd, G. Marrey
- d) I.S. Kon, A. Kupershmidt

9. D. Pattersonning fikricha,

a) odatda, kichkina qotillar tartibsizlik va sukunat hukm surgan, bir-birining his-tuyg'ulariga befarqlik, jismoniy zo'rvonlik, bir-birini qo'llamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik hukm surgan oilalarda sodir bo'ladi

b) agar frustratsiya qo'rquv yoki ikkilanish tufayli kelib chiqqan bo'lsa, shaxs alamini (agressiyasini) ko'pincha boshqalardan oladi

c) «aka-uka va opa-singillar ularning hayotlarini buzuvchi jarayonda bir-biriga o'qituvchidirlar»

d) agressivlik – individuumlarning mavjud resurslardan o'z hissasini olish vositasi bo'lib, o'z o'rnida bu resurslar tabiiy tanlashda (asosan genetik darajada) omad olib keladi

10. O'smirlik davrida o'g'il bolalarda ikki tipdagi agressiyaning namoyon bo'lishi necha yoshga to'g'ri keladi?

- a) 11 yosh va 13–15 yosh
- b) 12 yosh va 14–15 yosh
- c) 12 yosh va 13–15 yosh
- d) 11–12 yosh va 15 yosh

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
2. Гидденс Э. Социология. – 2002.
3. Маерс Д. Социальная психология. – М.: Аллель, 2000
4. Маерс Д. Изучаем социальную психологию. – М.: 2009.
5. Мельникова Н.А. Шпаргалка по социальной психологии: ответы на экзаменационные билеты. – М.: Аллель. 2000.
6. Мокчанцев Р., Мокчанцева А. Социальная психология. Издательства: Сибирское соглашение, Инфра. – М.: 2001.
7. Семечкин Н.И. Социальная психология на рубеже: история, теория, исследования. – М.: 2001.
8. Смелзер Н.И. Социология. – М.: 1994.
9. Социальная психология. Учеб. пос. \ \ Под ред. А.Л. Журавлева, – М.: 2002.
10. Фромов С.С. Основа социологии. – М.: Юрист, 1997.
11. Чалдини Р., Кенрик Д. Социальная психология. – М.: 2002.
12. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. – T.: 2009.
13. V. Karimova, O. Hayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. – T.: 2007.

MUNDARIJA

KIRISH	3
IJTIMOY PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI	5
Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi	5
Shaxsning «Men» obrazi	8
R. Bernsning «Men» konsepsiyasi	13
«Men» va uning ijtimoiy psixologik mohiyati	15
Shaxsning o'zini anglashida ijtimoiy muhitning ta'siri	19
«Men» obrazi va o'z-o'ziga baho	22
Z. Freyd nazariyasiga ko'ra «Men»ning tuzilishi	26
TEST	29
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY NAZORAT SHAKLLARI	31
Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	31
Ijtimoiy muhitning shaxsga ta'sirida ijtimoiy nazorat shakllarining o'rni	37
Ijtimoiy me'yorlar	39
Ijtimoiy me'yorlarning kelib chiqishi.	42
Ijtimoiy me'yor turlari va ularning shaxs xususiyatlarini shakllantirishda tutgan o'rni	43
Ijtimoiy sanksiya va uning turlari.	47
Ijtimoiy rol tushunchasi va ko'rinishlari	50
Ijtimoiy rolning shaxs shakllanishiga ta'siri	52
TEST	56
SHAXSNING IJTIMOYLAISHUVI.	59
Ijtimoiylashuv tushunchasi	59
Ijtimoiylashuv borasidagi nazariyalar	63
Ijtimoiylashtiruvchi maskanlar va oilaning	

ijtimoiylashuvdagi o'рни	65
Ijtimoiylashuvda jamiyatdagi tashkilotlarning roli	71
Shaxs ijtimoiylashuvining sohalari	75
Shaxs ijtimoiylashuvi bosqichlari	77
TEST	80

SHAXSNING IJTIMOIIY USTANOVKALARI 82

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi	82
Ijtimoiy ustanovkalarni o'rganishdagi uch bosqich	84
Attityud tushunchasining mohiyati va attityudning vazifalari	86
Ijtimoiy ustanovka muammosining rus psixologiyasida o'rganilishi	89
Ustanovkalarning to'rt bosqichli tizimi	91
Ustanovkaning shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lishi	93
Ijtimoiy ustanovkalarning o'zgarishi	96
TEST	102

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING

KECHISHI 104

Shaxslararo munosabatlarda egoistik munosabatning namoyon bo'lishi	104
Shaxsning altruistik xulqi haqida nazariyalar	107
Shaxslararo munosabatlarda stigma va diskriminatsiyaning namoyon bo'lishi	113
Diskriminatsiya	115
Shaxs va uning tolerantligi tushunchasi	118
Tolerantlikning psixologik adabiyotlarda o'rganilishi	119
Tolerantlikni tushuntirishga oid ilmiy yondashuvlar	124
TEST	128

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS

AGRESSIVLIGI MUAMMOSI 130

Agressiya tushunchasi	130
---------------------------------	-----

Shaxslararo munosabatlarda agressiv xulqning namoyon bo'lishi	132
Agressiv xulq-atvor borasidagi nazariyalar.	136
Agressiyani ijtimoiy o'rganish nazariyasi.	140
Agressiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli.	145
Agressiv xulq-atvorning shakllanishida tengdoshlarning roli	154
TEST	160

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	163
--	------------

Nurjahon Ismoilova
Dilbar Abdullayeva

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA
o'quv qo'llanma

Muharrir *M. Akbarov*
Musahhah *M. Turdiyeva*
Dizayner sahifalovchi *D. Ermatova*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 02.07.2015. «Uz-Times» garniturasida. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60·84¹/₁₆. Bosma tabog'i 10,5. Nashr hisob tabog'i 11,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 7.

«START-TRACK PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

47200-00

128, 7

88,5
4877

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-391-68-0



9 789943 391680